Kirish. Temir yo‘l transporti harakatidan kelib chiqadigan vibratsiyalarning ta’sirlarini kamaytirishga qaratilgan strategiyalar aniqlandi. Bu strategiyalar yuqori darajadagi vibratsiya to‘lqinlari binolar va inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan hududlarda vibratsiya darajasini pasaytirishga qaratilgan. Bunga erishish uchun gruntdagi vibratsiya tufayli yuzaga keladigan maksimal ko‘chish amplitudalari, tezliklar va tezlanishlar tahlil qilindi va transheya chuqurligiga qarab uning samaradorligini aniqlash uchun taqqoslash tahlili amalga oshirildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Temir yo‘l yaqinidagi binoda [1] vibratsiya to‘lqinlarning tarqalish ta’sirini sanitar me’yorlarga mos keladigan darajada kamaytirish maqsadida temir yo‘llar yaqinida transheya-ekran o‘rnatishni nazarda tutadi. Shu maqsadda temir yo‘l poyezdlari harakatidan hosil bo‘ladigan vibratsiyaning tarqalish jarayonini o‘rganish uchun masala elastiklik nazariyasining yarim fazodagi to‘lqin tarqalish masalasiga keltirilib, Plaxis 3D dasturiy kompleksi yordamida model yaratildi. Model uchastkasining o‘lchamlari kengligi 100 m, uzunligi 100 m va chuqurligi 20 m ni tashkil qiladi. Tadqiqot uchun gruntli asos sifatida ochiq qo‘ng‘ir tusdagi, makrog‘ovak strukturali, yuqori zichlikka, past namlikka ega bo‘lgan suglinka tanlab olindi.

Masalani yechish uchun chekli elementlar usulidan foydalanamiz.

Tadqiqot hududi 79443 ta tugunli 45071 ta chekli elementlarga bo‘lindi. Chekli elementlarning shakli noto‘g‘ri tetraedrlar sifatida tanlandi. “Grunt-temiryo‘l” tizimi tebranishining chiziqli oddiy differensial tenglamalar sistemasining tartibi 238329 ni tashkil qildi.



Rasm–1. Modelni chekli elementlarga bo‘lish.

Poyezdning relslar orqali o‘tadigan dinamik yuklari grunt asosiga ta’sir etadi, deb hisoblanadi. Bu kontekstda $\boldsymbol{z}$ o‘qi bo‘yicha yo‘nalgan va $\boldsymbol{y}$ o‘qi bo‘ylab ma’lum tezlikda harakatlanuvchi yuklar ta’sirini ko‘rib chiqiladi. Biz materialning fizik-mexanik xususiyatlarini hisobga olgan holda, gruntdagi tugunlarning ko‘chishlari va tezliklarini aniqlaymiz.

Yarim fazodan ajratib olingan parallelepipedning davomi tashlab yuborilgan tomonlariga kelib uriladigan to‘lqinlarni qaytarmasdan o‘tib ketishini ta’minlovchi quyidagi chegaraviy shartlarni qo‘yamiz [2, 3, 4, 5].

$$\left.\begin{aligned}\boldsymbol{\sigma_x = a\rho V_p \dot{u}}\\ \boldsymbol{\tau_{yz} = b\rho V_s \dot{u}}\\ \boldsymbol{\tau_{zy} = b\rho V_s \dot{w}}\end{aligned}\right\} \quad \left.\begin{aligned}\boldsymbol{\sigma_y = a\rho V_p \dot{v}}\\ \boldsymbol{\tau_{xz} = b\rho V_s \dot{w}}\\ \boldsymbol{\tau_{zx} = b\rho V_s \dot{u}}\end{aligned}\right\} \quad \left.\begin{aligned}\boldsymbol{\sigma_z = a\rho V_p \dot{w}}\\ \boldsymbol{\tau_{xy} = b\rho V_s \dot{u}}\\ \boldsymbol{\tau_{yx} = b\rho V_s \dot{v}}\end{aligned}\right\} \qquad (1)$$

Harakatlanuvchi dinamik kuchlar ta’siridagi yarim fazodan ajratib olingan massivning harakat differensial tenglamalar sistemasi quyidagicha yoziladi:

$$[M]\{\ddot{u}(t)\} + [C]\{\dot{u}(t)\} + [K]\{u(t)\} = \{F(t)\} \qquad (2)$$

Bu yerda $[K], [M] -$ bikrlik va massa matritsalari, $\{u(t)\} -$ tugun nuqtalaridagi ko‘chishlar vektori, $[C\,] -$ dempfir matritsasi, bu yerda ham grunt ichidagi ichki deformatsiyalar, ham chegara shartlari hisobga olinadi, $\{F(t)\} -$ vibratsiya manbalaridagi yuklanishlar vektori.

Dinamika masalasini sonli usul bilan yechishda vaqt bo‘yicha iteratsiya jarayonini shakllantirishda hisoblash jarayonining barqarorligi va aniqligi muhim omil hisoblanadi. (2) tenglamalar tizimini bosqichma-bosqich integrallash Nyumark sxemasi bo‘yicha amalga oshiriladi. Grunt va ballast qatlami asosining xarakteristikalari 1va 2 - jadvallarda keltirilgan.

1 — jadval

Materialning fizik-mexanik xususiyatlari


Nomlanish	O‘lchov birligi	Belgilash	Suglinka
Gruntning umumiy xususiyatlari			
Grunt modeli	–	–	Chiziqli elastik
Grunt xususiyati	–	–	Drenajlangan
Gruntning yer osti suvlari ta’sir etganda yuqori qatlamining solishtirma og‘irligi	$\frac{kN}{m^3}$	γ_{unsat}	16
Gruntning yer osti suvlari ta’sir etganda pastki qatlamining solishtirma og‘irligi	$\frac{kN}{m^3}$	γ_{sat}	17
Mexanik parametrlar			
Modul Yunga	$\frac{kN}{m^2}$	E'_{ref}	60000
Koeffitsiyent Puassona	–	$v/\,v_{ur}$	0,35

2 — jadval

Ballast qatlamining xususiyatlari

Nomlanishi	**Himoya qatlami**	**Ballast**
	1	3
Grunt modeli	Chiziqli elastik	Chiziqli elastik
Grunt xususiyati	Drenajlangan	Drenajlangan
Gruntning yer osti suvlari ta'sir etganda yuqori qatlamining solishtirma og'irligi — γ_{unsat} [kN/m^3]	20	16
Gruntning yer osti suvlari ta'sir etganda pastki qatlamining solishtirma og'irligi — γ_{sat} [kN/m^3]	22	17
Young moduli (doimiy)- E [kN/m^2]	70000	130000
Puasson koeffitsiyenti — ν	0,3	0,15

Gruntga o'tayotgan vibratsiya darajasini tahlil qilish uchun kuzatuv nuqtalari 5 metrlik intervalda joylashtirildi..



2 – rasm. Kuzatuv nuqtalari.

Taqdim etilgan grafiklar temiryo'l o'qidan 20 metr masofadagi gruntda transheya chuqurligi 1 dan 10 metrgacha bo'lgan intervaldagi ta'sirini, ya'ni ko'chish, tezlik va tezlanishni ko'rsatadi. Qiyoslash uchun ikki ssenariy taqdim etilgan: **ko'k chiziq** kuzatuv nuqtasi (x=20, y=50, z=0) koordinatalarida joylashgan va transheya temiryo'ldan 8 metr keyin joylashgan holatni aks ettiradi, **qizil chiziq** esa transheyasiz holatni ko'rsatadi.

3-jadval

Transheya turli chuqurlikda bo‘lib, temiryo‘l yo‘lidan 8 metr masofada joylashgan holatda, yer yuzasining erkin sathidagi tebranish amplitudasi moduli qiymatlari.

		O‘qdan 8 metr masofa				
		Transheya yo‘q	1m	%	5m	%
10m	Ko‘chish mm	**0,000150649**	**0,000144830**	**3,86**	**0,000118357**	**21,44**
	Tezlik m/s	0,012029538	0,017500301	**-45,48**	0,005206451	**56,72**
	Tezlanish m/s²	2,839454010	3,798084296	**-33,76**	0,980020409	**65,49**
15m	Ko‘chish mm	**0,000080031**	**0,000077703**	**2,91**	**0,000062364**	**22,08**
	Tezlik m/s	0,009741423	0,008994886	**7,66**	0,003903150	**59,93**
	Tezlanish m/s²	2,173628357	1,864648136	**14,21**	0,650629214	**70,07**
20m	Ko‘chish mm	**0,000079024**	**0,000077495**	**1,93**	**0,000052482**	**33,59**
	Tezlik m/s	0,005005306	0,006413234	**-28,13**	0,005319428	**-6,28**
	Tezlanish m/s²	0,922757107	1,326210446	**-43,72**	0,934523641	**-1,28**
25m	Ko‘chish mm	**0,000067666**	**0,000068144**	**-0,71**	**0,000049462**	**26,90**
	Tezlik m/s	0,006889224	0,009092427	**-31,98**	0,002894294	**57,99**
	Tezlanish m/s²	1,137725217	1,740897676	**-53,02**	0,503298317	**55,76**
30m	Ko‘chish mm	**0,000061624**	**0,000061038**	**0,95**	**0,000051092**	**17,09**
	Tezlik m/s	0,003108647	0,003286407	**-5,72**	0,002459955	**20,87**
	Tezlanish m/s²	0,438087873	0,452722594	**-3,34**	0,302922184	**30,85**
35m	Ko‘chish mm	**0,000059400**	**0,000058166**	**2,08**	**0,000052716**	**11,25**
	Tezlik m/s	0,002913859	0,002842509	**2,45**	0,002670694	**8,35**
	Tezlanish m/s²	0,460720417	0,442999660	**3,85**	0,326313401	**29,17**
40m	Ko‘chish mm	**0,000054082**	**0,000053337**	**1,38**	**0,000053661**	**0,78**
	Tezlik m/s	0,002291547	0,002396926	**-4,60**	0,001789957	**21,89**
	Tezlanish m/s²	0,351571507	0,360645736	**-2,58**	0,169930450	**51,67**
45m	Ko‘chish mm	**0,000043401**	**0,000051124**	**-17,80**	**0,000044876**	**-3,40**
	Tezlik m/s	0,002176783	0,001791236	**17,71**	0,001694348	**22,16**
	Tezlanish m/s²	0,269551297	0,216023262	**19,86**	0,160391768	**40,50**
50m	Ko‘chish mm	**0,000020001**	**0,000028129**	**-40,64**	**0,000024625**	**-23,12**
	Tezlik m/s	0,001006311	0,000933507	**7,23**	0,000855451	**14,99**
	Tezlanish m/s²	0,108997813	0,128987786	**-18,34**	0,079648679	**26,93**

Transheya chuqurligi 1*m*.

Ko‘chish – samaradorlik -3,07%;
Tezlik – samaradorlik 13,08%;
Tezlanish – samaradorlik 11,36%.

Transheya chuqurligi 5m.


Ko‘chish – samaradorlik -30,13%;
Tezlik – samaradorlik — 33,78%;
Tezlanish – samaradorlik — 41,42%.

Ko‘chish

Transheya bor		Transheya yo‘q	
20/50/0		-20/50/0	
Vaqt (s)	u_z[m]	Vaqt (s)	u_z [m]
0,432	0,00007749522	0,432	0,00007511248
0,624	0,00006228114	0,944	0,00005883253


Ko‘chish

Transheya bor		Transheya yo‘q	
20/50/0		-20/50/0	
Vaqt (s)	u_z [m]	Vaqt (s)	u_z [m]
0,432	0,00005248231	0,432	0,00007511979
3,312	0,00004323764	3,440	0,00006534799




Tezlik


Transheya bor		**Transheya yo‘q**	
20/50/0		-20/50/0	
Vaqt (s)	v_z [m/s]	Vaqt (s)	v_z [m/s]
3,568	0,00491093158	3,760	0,00737841194
3,648	0,00641323397	3,792	0,00703707431



Tezlanish


Transheya bor		**Transheya yo‘q**	
20/50/0		-20/50/0	
Vaqt (s)	a_z [m/s²]	Vaqt (s)	a_z [m/s²]
3,616	1,03760543178	2,992	0,97511428595
3,632	1,32621044563	3,776	1,49619388580






Tezlik

Transheya bor		**Transheya yo‘q**	
20/50/0		-20/50/0	
Vaqt (s)	v_z [m/s]	Vaqt (s)	v_z [m/s]
3,296	0,00531942776	3,760	0,00803394802
3,328	0,00416278537	3,792	0,00702215079



Tezlanish

Transheya bor		**Transheya yo‘q**	
20/50/0		-20/50/0	
Vaqt (s)	a_z [m/s²]	Vaqt (s)yo	a_z [m/s²]
3,280	0,64500926490	2,992	1,02816617489
3,312	0,93452364127	3,776	1,59550690651



Xulosa. Barcha ko‘rib chiqilgan holatlarda shunday xulosaga kelish mumkinki, vibratsiya manbai, ya’ni transport inshooti va himoya qilinayotgan obyekt o‘rtasida joylashtirilgan transheya yuza to‘lqinlarini yutish qobiliyatiga ega. Bunda transheya chuqurligi ortishi bilan uning yutish qobiliyati ham oshadi.

Loyihalovchilarga, turli obyektlarni noxush vibratsiyadan himoya qilish maqsadida, transheyalarni turli kombinatsiyalarda keng qo‘llash tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Мирсаидов, М., & Юлдашев, Ф. Ш. (2023). ВЛИЯНИЯ НАЛИЧИИ ГРУНТОВЫХ ВОД НА ПРОЦЕСС РАСПРОСТРАНЕНИИ ВИБРАЦИИ ВОЗНИКАЮЩИХ В

РЕЗУЛЬТАТЕ ПРОХОЖДЕНИИ БОЛЬШЕГРУЗНЫХ ТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ: ВЛИЯНИЯ НАЛИЧИИ ГРУНТОВЫХ ВОД НА ПРОЦЕСС РАСПРОСТРАНЕНИИ ВИБРАЦИИ ВОЗНИКАЮЩИХ В РЕЗУЛЬТАТЕ ПРОХОЖДЕНИИ БОЛЬШЕГРУЗНЫХ ТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ.

2. Mirsaidov, M., Boytemirov, M., & Yuldashev, F. (2022). Estimation of the Vibration Waves Level at Different Distances. In *Proceedings of FORM 2021: Construction The Formation of Living Environment* (pp. 207-215). Springer International Publishing.

3. *Ильичев В.А., Маткаримов П.Ж., Юлдашев Ш.С.* Исследование вынужденных колебаний неоднородной плоской системы с учетом пассивной виброизоляции // Основания, фундаменты и механика грунтов. – 1999. – №. 2

4. *Юлдашев Ш.С. и др.* Влияние высоты расположения железнодорожного полотна на уровень колебания грунта, возникающего при движении поездов //Научное знание современности. – 2018.– №. 10. – С. 55-57.

5. Юлдашев, Ф. Ш. У. (2023). Выбор модели грунта для решения задач распространения вибрации в грунте от транспортных средств. *Механика и технология*, *1*(10), 117-124.

6. Юлдашев, Ш. С., Бойтемиров, М. Б., Юлдашев, Ф. Ш., & Абдурауфов, А. А. (2023). ТЕМИР ЙЎЛ ПОЕЗДЛАРИ ҲАРАКАТИДАН ГРУНТДА ҲОСИЛ БЎЛГАН ТЕБРАНИШЛАР ДАРАЖАСИНИНГ ЙЎЛ ПОЛОТНОСИ ЖОЙЛАШИШИГА БОҒЛИҚЛИГИ: ТЕМИР ЙЎЛ ПОЕЗДЛАРИ ҲАРАКАТИДАН ГРУНТДА ҲОСИЛ БЎЛГАН ТЕБРАНИШЛАР ДАРАЖАСИНИНГ ЙЎЛ ПОЛОТНОСИ ЖОЙЛАШИШИГА БОҒЛИҚЛИГИ.

7. Юлдашев, Ф. Ш. У. (2023). Выбор модели грунта для решения задач распространения вибрации в грунте от транспортных средств. Механика и технология, 1(10), 117-124.

UO‘T 694.1+69.003.13

QURILISH VA YOG‘OCH KONSTRUKSIYALI IMORATLAR

Kosbergenov Nurpolat Niyetbayevich
doktorant, Namangan muhandislik-qurilish instituti
nurpolatkosbergenov@gmail.com

Razzaqov Sobirjon Jurayevich
professor, Namangan muhandislik-qurilish instituti
sobirjonrsj@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada yog‘ochdan qurilgan jahondagi qadimgi imoratlar va ularning tarixi, hozirgi vaqtda kam qavatli yog‘och binolar uchun foydalaniladigan yog‘och turlari va ularning qurilish texnologiylari, shu jumladan, yog‘och uylarning afzalliklari va kamchiliklari, ularning boshqa qurilish materiallaridan farqlari keltirilgan.

Аннотация: В статье приводятся древние деревянные постройки в мире и их история, виды дерева, используемые в настоящее время для малоэтажных деревянных зданий, и их технологии строительства, в том числе преимущества и недостатки деревянных домов, их отличия от других строительных материалов.

Abstract: The article describes the world's ancient wooden buildings and their history, the types of wood currently used for low-rise wooden buildings and their construction technologies, including the advantages and disadvantages of wooden houses, their differences from other building materials.

Kalit so‘zlar: yog‘och konstruksiya, yog‘och imorat, log (yog‘och bo‘laklar) texnologiya, ramka texnologiya, karkas-panelli texnologiya, modul texnologiya.

Ключевые слова: деревянная конструкция, деревянное строение, лог (деревянные куски) технология, рамочная технология, каркасно-панельная технология, модульная технология.

Keywords: wood construction, wood structure, log (wood pieces) technology, frame technology, frame-panel technology, modular technology.

Qurilishda yog‘ochdan foydalanish ko‘plab omillar bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘p asrlik tarixga ega. Yog‘och mustahkam, yengil, ekologik toza, qayta tiklanadigan xomashyo manbai bo‘lib, qurilish materiallari va buyumlarini ishlab chiqarish uchun kam energiya sarfi talab etiladi. Yog‘ochni qurilish konstruksiyalari elementlariga chuqur qayta ishlash va ularni utilizatsiya qilishda atrof-muhitga minimal zarar yetkaziladi, ya’ni yog‘och konstruksiyalari “yashil qurilish” tushunchasini qanoatlantiradigan xususiyatlarga ham egadir.

Yog‘och uylarning qurilishi tarixi bir necha yuz yillik emas, balki bir necha ming yillik tarixni o‘z ichiga oladi - olimlar mashhur “Stounxenj” yaqinida bir nechta yog‘och binolar bo‘lganligini aniqlaganlar. Yaponiyada joylashgan “Xoryuji” buddaviylik ibodatxonasi yog‘ochdan ishlangan eng qadimgi inshootlardan biri hisoblanadi (1-rasm). U taxminan 1400 yoshda. Balandligi 31,9 m bo‘lib, birinchi yarusining o‘lchamlari 6,4x6,4 m. Asosining diametri 0,91 metr bo‘lgan ulkan xinoki daraxtining yaxlit tanasidan yasalgan markaziy ustun tosh poydevorga pastki uchi bilan mahkamlangan. Yuqori uchi “pagoda” ostovidan chiqib, shpil vazifasini bajaradi. Ayni paytda “Xoryuji” ibodatxonasining asosiy tarkibiy qismlari uning besh qavatli “pagoda” va Kondo (oltin zal) dan iborat. Nepal, Shimoliy Hindiston, Tibet, Xitoy, Yaponiya, Vetnam, Indoneziya, shuningdek, g‘arb mamlakatlarida ibodatxonalar sifatida ishlatiladigan ko‘p qavatli minoralar “pagoda”lar, xuddi 1-rasmdagi ko‘rinishdadir.




1-rasm. Dunyodagi eng qadimgi inshoot “Xoryuji” ibodatxonasi (Yaponiya).

Hozirgi Norvegiya hududida yog‘och uylar qurilishi tarixi 1000-yildan ko‘proq vaqt oldin boshlangan va hozirgacha saqlanib qolgan. Masalan, “Ringebu” cherkovi mamlakatning eng qadimiy va mashhur “stavkirkasi” (o‘ziga xos yog‘ochdan qurilgan cherkov turi) hisoblanadi (2-rasm). Cherkovning dastlabki qismi yog‘ochdan qurilgan va unda o‘sha davrning oddiy qishloq cherkovi uslubidan foydalanilgan. Ringebu stavkirkasi yog‘ochdan yasalgan o‘ziga xos ustunlar (stavlar) bilan ajralib turadi. Cherkovning ichki qismi o‘yma yog‘och naqshlar va o‘rta asrlarning diniy san’ati bilan bezatilgan.




2-rasm. Norvegiyadagi Ringebyu cherkovi.

Rossiyada qadimdan yog‘och xodalardan turar-joy binolari, cherkovlar va hatto qal’alar ham qurilgan. Dehqonlarning uylari “tasada” prinsipi bo‘yicha kesilgan - pastki xodalarda chuqurchalar -o‘yiqlar qilingan va ularga keyingi xodalar o‘rnatilgan (3-rasm). Qurilish materiali uchun igna bargli daraxtlar olingan. Binoning pastki qismlari tilog‘och yoki eman daraxtidan yasalgan va tom qismi ikki nishabli bo‘lgan. Binoning isitish tizimi bo‘lgan pechlar, asosan, deraza yaqiniga qo‘yilgan sababi qadim zamonlarda va hatto XVII-asrda ham ko‘chaga deraza teshiklaridan tutun chiqqan. XIX-asrda uy o‘ymakorligi paydo bo‘lgan, buning natijasida binoning deraza oynalari, tomlari va balkonlari nafis naqshlar bilan bezatila boshlangan va turli rangdagi bo‘yoqlar bilan bo‘yaladigan bo‘lgan. Rossiyada yog‘ochdan qurilgan uylar faqat XIX-asrning oxirida toshdan qurilgan uylarga o‘z o‘rnini bo‘shatib bergaan. Biroq, XX-asr boshlarida ham Rossiyada butunlay yog‘ochdan qurilgan ajoyib binolar paydo bo‘lgan.



3-rasm. Rossiyada qurilgan qadimgi yog‘och uyning qiya burchak ostidagi fasad. ko‘rinishi

Hozirgi vaqtda Rossiya va dunyoning boshqa davlatlarida ham tez quriladigan, ekologik toza va energiya tejamkor uy-joylarga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Bunday uylarni loyihalashda landshaft dizayni hisobga olinadi va umumiy foydalanishda turar-joy binolaridagi yashil maydonlar ko‘payadi. Shimoliy Amerika, Kanada va Evropa Ittifoqi mamlakatlarida kam qavatli yog‘och uylar qurishga ustuvor ahamiyat beriladi (4-rasm) [1, 2].



4-rasm. Yog‘ochdan kam qavatli binolar qurilishining dunyo mamlakatlardagi umumiy ulushi (%).

Yog‘och uylar uchun foydalaniladigan konstruksiyalarda quyidagilarni alohida e’tiborga olish kerak: yog‘ochga ishlatiladigan strukturaviy mahsulotlar zaharli moddalarni chiqarmasligi va qo‘llaniladigan qatronlar kam yonuvchan bo‘lishi, issiqlik izolyatsiyalash va yog‘och konstruksiyalari ekologik toza yong‘inga qarshi vositalar bilan ishlov berilishi, uylarni qurishda yog‘ochni texnik quritishdan keyin ishlatish kerak [3-4].

Yog‘och asosan mahalliy xomashyo manbai bo‘lib o‘z vaznining yengilligi, ekologik tozaligi, bardoshligi va energiya tejamkorligi bilan boshqa qurilish materiallaridan ajralib turadi. Shuning uchun yog‘och uylarga bo‘lgan talab va qiziqish har yili ortib bormoqda. Yog‘osh binolarning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri issiqlikni o‘zida yahshi saqlay olishidir. Bunday

binolar esa xona haroratini qishda issiq yozda salqin bo‘lishini ta’minlaydi. Yog‘oshdan qurilgan bino devorlarining issiqlik o‘tkazuvchanlik va energiya tejamkorligi bo‘yicha boshqa qurilish materiallaridan afzalliklari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Yog‘oshdan qurilgan bino devorlarining issiqlik o‘tkazuvchanlik va energiya tejamkorligi bo‘yicha boshqa qurilish materiallaridan afzalliklari

Material turi	Issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti, Vt/(m·K)	Energiyani tejash darajasi	Qo‘shimcha xususiyatlar
Yog‘och devor	0,12–0,16	Yuqori	Tabiiy izolyatsiya, ekologik, estetik
G‘isht devor	0,8–1,2	O‘rtacha	Mustahkam, issiqlikni ushlash darajasi past
Gazobeton bloklari	0,1–0,2	Yuqori	Yengil, issiqlikni ushlash samaradorligi yaxshi
Beton devor	1,5–2,5	Past	Mustahkam, ammo issiqlik yo‘qotilishi yuqori
Ko‘pik bloklari	0,15–0,25	Yuqori	Yengil, yaxshi izolyatsiya xususiyatlari

Zamon rivojlangani sari, yog‘och uy-joy qurilishi uchun eng yaxshi qurilish materiallaridan biri bo‘lib qolmoqda. Yangi texnologiyalardan foydalanish an’anaviy yechimlarni takomillashtirish, ularning mohiyati va estetikasini saqlab qolish yog‘och uylarni yanada chiroyli, barqaror, yig‘ishda oson va kirishish deformatsiyalariga chidamli qilish imkonini berdi.

Zamonaviy yog‘och uylar qurilish texnologiyasiga ko‘ra quyidagi turlarga ajratiladi: 1) log (yog‘och bo‘laklar) texnologiyasi (silindrli xodalar, kesilgan xodalar, yelimlangan bruslar va profilli bruslar); 2) ramka texnologiyasi (yog‘och karkasli); 3) karkas-panel texnologiyasi; 4) modul texnologiyasi (CLT paneli).

1. Log (yog‘och bo‘laklar) texnologiyasi. Bo‘ylama silindrsimon kesimli yog‘och uylar. Silindr shaklidagi (silindrli) uylar – zamonaviy va estetik jihatdan qiziqarli arxitektura loyihalari bo‘lib, ular an’anaviy to‘rtburchak shakldagi uylardan farq qiladi. Silindrlangan xodalar maxsus stanoklarda tayyorlanadi. Geometrik o‘lchamlari bir xil bo‘lib diametri bo‘yicha farq qilmaydi (5-rasm).

Silindr xodali binoning afzalliklari:

Aero-Dinamik Shakl. Silindrsimon shakl shamol kuchini kamaytiradi, bu esa uyni tabiiy ofatlarga, masalan, kuchli shamollar yoki to‘fonlarga chidamli qiladi.

Estetika va Innovatsiya. Silindrsimon shakli tufayli bunday uylar zamonaviy va estetik jihatdan o‘ziga xos ko‘rinadi. Shahar arxitekturasida yoki qishloq joylarida yangi dizayn trendini aks ettiradi.

Funktsional joylashtirish: ichki tuzilish o‘ziga xos tarzda rejalashtirilishi tufayli hajm optimal ishlatiladi. Yuqori qavatlar spiral zinapoyalar orqali birlashtiriladi;

Ekologik dizayn: Ba’zi loyihalarda qayta ishlangan materiallardan foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lib, ekologik zararni kamaytiradi.

Binoning afzalliklari bilan bir qatorda uning kamchiliklari:

Ichki joylashuvning qiyinchiliklari. Dumaloq ichki makonni mebel bilan to‘ldirish odatdagidan qiyin bo‘lishi, sababi klassik devorli tuzilmalarga o‘rgangan kishilar uchun bu dizayn notanish bo‘lib tuyuladi.

Qurilish narxi. Uning noodatiy shakli va maxsus materiallar foydalanish talab etilganda xarajatlar ko‘payishi.

Hudud cheklovlari. Har bir joy silindrik tuzilmaga mos kelmaydi; mavjud landshaft va qonunchilik talablariga qarab cheklovlar bo‘lishi mumkin.

Doirasimon ko‘ndalang kesimli kesilgan xodali uylar. Kesilgan xodali uylar (ba’zan “teshilgan xodali” yoki “trubka xodali uylar” deb ham ataladi) yog‘ochning ustki va pastki qismlari aniq kesib olingan va bir-biriga zich ulanish uchun ishlov berilgan xodalar yordamida qurilgan yog‘och uylardir (6-rasm). Bunday uylar tabiiy, ekologik toza va issiqlikni yaxshi ushlaydi. Odatda xodalar qarag‘ay, archa, kedr yoki boshqa ignabargli daraxtlardan olinadi. Xodalar maxsus uskunalar yordamida tekislanadi va diametrlari moslashtiriladi. Kesilgan xodalar bir-biriga to‘g‘ri keladigan qilib joylashtiriladi va ular orasidagi bo‘shliqlar maxsus materiallar bilan to‘ldiriladi (masalan, zig‘ir tolasi, mox yoki sintetik plomba). Yog‘och yong‘inga, chirishga va zararkunandalarga qarshi antiseptik va laklar bilan himoyalanadi.

Bunday binolarning o‘ziga xos afzalliklari: ***ekologik toza*** (yog‘och tabiiy material bo‘lib, ekologik muhitni buzmaydi); ***yuqori issiqlik izolyatsiyasi*** (kesilgan xodali uylar issiqni yaxshi ushlaydi va qishda energiya tejalishini ta’minlaydi); ***estetik ko‘rinish*** (tabiiy yog‘och o‘ziga xos dizayn yaratadi); ***tez qurilish*** (montaj qilish jarayoni nisbatan qisqa vaqt talab etadi).

Bunday uy-**joylarni afzalliklari bilan bir qator kamchiliklari ham mavjud, masalan, *narxi yuqori*** (sifatli xodalar va maxsus texnologiyalar qimmat bo‘lishi mumkin); ***pristavkalar talab etiladi*** (yog‘och vaqt o‘tishi bilan qurib, o‘z shaklini o‘zgartirishi mumkin, bu esa uyni muntazam tekshirish va saqlashni talab qiladi); ***yong‘inga sezgirlik*** (yog‘och yong‘inga moyil material, ammo zamonaviy usullar bilan ishlov berish bu xavfni kamaytiradi).

Asosan kesilgan xodali uylar shaxsiy uylar (kottejlar, dala hovlilari), mehmonxona va turar- joy komplekslari, restoran va kafe-dizayn loyihalari, sauna va vanna inshootlarida qo‘llaniladi.



5-rasm. Silindrli xodalardan qurilgan kam qavatli binoning fasad ko‘rinishi.



6-rasm. Kesilgan xodalardan qurilgan binoning oldi tarafdan ko‘rinishi.

Yelimlangan brusli uylar. Yelimlangan brusli uylar – yog‘ochdan yasalgan, mustahkam va ekologik toza qurilish materialidan barpo etilgan zamonaviy uylardir (7-rasm). Ushbu texnologiya yog‘ochni maxsus qayta ishlash orqali yuqori sifatli qurilish materialiga aylantirishni nazarda tutadi. Yelimlangan brus – bir nechta yog‘och taxtalar (lamellalar)ni maxsus

yopishtiruvchi moddalar yordamida biriktirish orqali olinadigan qurilish materiali. Ularning har biri alohida presslangan va ishlov berilgan bo‘lib, umumiy mustahkamlikni oshiradi.

Bu uylarning afzalliklari quyidagicha: ***mustahkamlik va chidamlilik*** *(*yelimlangan brus tabiiy yog‘ochga qaraganda deformatsiyalarga kamroq moyil va mustahkamroq bo‘ladi); ***issiqlikni yaxshi ushlab turish*** *(*yog‘och o‘zi tabiiy issiqlik izolyatori hisoblanadi, bu esa energiya tejamkor uylarni qurishga imkon beradi); ***ekologik tozaligi*** (tabiiy materiallardan foydalanish nafaqat ekologik, balki inson salomatligi uchun ham xavfsizdir); ***yong‘inga chidamlilik*** (maxsus ishlov berilgan yelimlangan brus yong‘inga chidamli xususiyatlarga ega); ***deformatsiyaga chidamlilik*** (yelimlangan brus havo namligi va harorat o‘zgarishlaridan kam ta’sirlanadi).

Bu uylarning kamchiliklari quyidagicha: ***narxi yuqoriligi*** (boshqa yog‘och mahsulotlariga nisbatan yelimlangan brus qimmatroq); ***yopishtiruvchi moddalar*** (ayrim yopishtiruvchi vositalarda kimyoviy tarkib mavjudligi); ***murakkab texnologiya*** (bunday materialni ishlab chiqarish uchun maxsus uskunalar kerak).



7-rasm. Yelimlangan brusdan qurilyatgan bino ko‘rinishi.



8-rasm. Profilli brusdan qurilgan binoning umumiy ko‘rinishi.

Profillangan brusdan qurilgan uylar. Profillangan brusli uylar yog‘ochli qurilish texnologiyasi asosida qurilgan zamonaviy va ekologik toza uylar hisoblanadi (8-rasm). Bunday uylar oddiy va tez qurilishi, issiqlikni yaxshi saqlashi, shuningdek, estetik ko‘rinishi bilan ajralib turadi. Profillangan brus – bu maxsus uskunalarda yog‘ochdan ishlov berilib, o‘zgacha shakl berilgan to‘sinlardir. Ularning yuzasi silliqlangan va bir xil shaklda bo‘lib, qurilishda oson yig‘iladi.

Bunday uylar quyidagi afzalliklarga ega: ***ekologik tozaligi*** (tabiiy yog‘ochdan foydalaniladi va inson salomatligiga zarar yetkazmaydi); ***issiqlik izolatsiyasi*** (yog‘och issiqlikni yaxshi saqlaydi, bu qishda isitish xarajatlarini kamaytiradi); ***estetik ko‘rinish*** (yog‘och tabiiy rang va tuzilishga ega, qo‘shimcha pardozlash talab qilmaydi); ***tez qurilish*** (tayyor brus elementlari yig‘ma konstruksiya sifatida ishlatiladi, bu qurilish muddatini qisqartiradi); ***mustahkamlik va bardoshlilik*** (to‘g‘ri parvarish qilinsa, bunday uylar ko‘p yillar xizmat qiladi).

Kamchiliklari: ***namlikka sezgirlik*** (yog‘och namlikka chidamsiz, shuning uchun maxsus himoya vositalari bilan ishlov berish kerak); ***qurilish narxi*** (yuqori sifatli yog‘och va texnologiyalar qo‘llanilganda narx oshishi); ***parvarishlash*** (yog‘ochni chirish va hasharotlardan himoya qilish uchun muntazam parvarishlash talab etiladi).

2. Ramka texnologiyasi (yog‘och karkasli). Uyning butun karkasi va tuzilishi har xil shakl va turdagi yog‘ochdan qilinadi. Yog‘och karkasli uylarni qurishda asosan quritilgan yog‘ochdan

foydalanish tavsiya etiladi chunki karkas bunday uyning asosini tashkil qiladi. Tuzilishi vertikal ustunlar va gorizontal to‘sinlardan iborat.

Oldindan tayyorlangan poydevordan so‘ng, yog‘och karkas o‘rnatiladi va qoplanadi. Boshqa hollarda, uy qurish uchun tayyor panelli devorlar ishlatiladi. Keyin ular izolyatsiya va gidroizolyatsiyani amalga oshiradilar. Hozirgi vaqtda karkas uylarini qurishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri Kanada texnologiyasidir [6-8].

Kanada texnologiyasidan foydalangan holda uy-joy qurishning asosiy sababi shundaki, yilning istalgan vaqtida yashash uchun qulay va issiq bo‘lgan uy-joy qurish imkonligi. Bu masala shimoliy mamlakatlar aholisi uchun ayniqsa muhimdir, chunki ular yashaydigan iqlim birinchi navbatda yaxshi issiqlik quvvatini yaratish muhimligini ta’kidlaydi va bu uyni isitish texnologiyasiga ajoyib alternativ hisoblanadi.

Bunday qurilish texnologiyasining rivojlanishi, bugungi kunda zamonaviy bozor doimiy ravishda xaridorlarga yanada ilg‘or texnologik qurilish va pardozlash materiallarini taklif qila boshlaganligi, ularning asosiy xususiyatlari kuchli shamol va sovuq paytida yog‘och uylarning ichidagi issiqlikni saqlashga qaratilganligi edi.



9-rasm. Kanada texnologiyasiga asoslangan yog‘och karkasli binoning qurish jarayoni.



10-rasm. Kam qavatli yog‘och karkas-panellardan qurilyatgan bino ko‘rinishi.

Yog‘och karkasli uy-joy qurilishining afzalliklari: uy-joy qurilishi juda qisqa vaqt ichida yakunlanishi; tovuch va issiqlik izolatsiyasining yuqori darajaliligi; qurilish yilning istalgan vaqtida amalga oshirilishi mumkinligi; mehnat xarajatlari kamligi, maxsus va qimmatbaho texnikalarni jalb qilishning hojati yo‘qligi; yog‘ochdan qurilgan uylar turli xil konfiguratsiyalar va shakllarga ega bo‘lishi; aloqa tizimlari qoplama ostida ishonchli tarzda yashirin bo‘lishi.

Bunday uy-joylarni qurishda bugungi kunda muvaffaqiyatli qo‘llaniladigan qurilish materiallari issiqlikni saqlashga imkon beradi [9-12].

Lekin yog‘och karkasli uylarning afzalliklari bilan bir qatorda uning salbiy xususiyatlarga alohida e’tibor qaratish lozim: yuqori yong‘in xavfi; har 30 yilda bir marta o‘zgartirilishi kerak bo‘lgan tashqi izolyatsiya tufayli mo‘rtlik; qo‘shimcha shamollatish yo‘qligi; agar izolyatsiyaga to‘g‘ri ishlov berilmagan bo‘lsa izolyatsiyada hasharotlar va kemiruvchilarning tarqalishi ehtimoli mavjudligi.

Ushbu turdagi yog‘och karkasli uylarning ekologik tozaligi qoplamalar va devorlarni izolyatsiya qilish uchun qanday materiallardan foydalanganligiga qarab farq qilishi mumkin.

3. Karkas - panel texnologiyasi. Konstruksiya ikki tomondan maxsus panel materiallari bilan qoplangan yuk ko‘taruvchi karkas tizimidan iborat. Devorlar ichi issiqlik izolyatsiyalovchi plitalar yoki SIP-panellar bilan to‘ldiriladi va fasadlar har turli sidinglar bilan qoplanadi yoki fasad suvoq tizimlari qilinadi. Karkas-panel texnologiyasining klassik karkas texnologiyasidan asosiy

farqi shundaki, bunda konstruktiv qismlar sifatida katta o‘lchamli materiallardan foydalaniladi. Ya’ni, panel (qalqon) larni karkasga mahkamlash orqali struktura yig‘iladi.

Qurilish uchun, odatda, qalinligi 100, 150 yoki 200 mm bo‘lgan 2×2,8 m o‘lchamdagi panellardan foydalaniladi. Panel qanchalik qalin bo‘lsa, konstruksiya shunchalik og‘ir bo‘ladi.

Karkas tizimi XIV-XV asrlarda Skandinaviya mamlakatlarida paydo bo‘lgan va tezda nafaqat Yevropada, balki dunyoning boshqa davlatlarida ham keng tarqaldi. Bundan tashqari, qurilish tamoyillari 500 yildan ortiq vaqt davomida deyarli o‘zgarmagan, ammo shu bilan birga ba’zi materiallar va texnikalar sezilarli darajada takomillashtirilgan. Masalan, yog‘och maksimal darajada mustahkam, namga chidamli bo‘lishi uchun material kamerali quritishda keptiriladi. Yelimlangan brusdan foydalanish esa devor panellarining nuqsonlarini oldini oladi, foydalanish jarayonida karkas deformatsiyalanmaydi va kirishmaydi.

Karkas-panelli uylar quyidagi afzalliklarga ega:

a) tez quriladigan, barcha konstruktiv elementlar va qismlar zavoddan tayyor holda yetkazib beriladi, loyihaga muvofiq tajribali ustalar tomonidan yig‘iladi. Qurilish muddati bir yarim oydan yarim yilgacha, murakkabligi, iqlim sharoiti, moliyaviy barqarorligiga bog‘liq;

b)energiya samaradorligining yuqori ko‘rsatkichi, issiqlik konturi uchun issiqlik o‘tkazuvchanligi past bo‘lgan mineral plitalar ishlatiladi, ular bir-biriga zich moslashtiriladi, ko‘ndalang va bo‘ylama reykalar bilan mahkamlanadi, bu issiqlik yo‘qolishini oldini oladi. Bunday uylarni isitish uchun minimal energiya talab etiladi, bu esa kommunal to‘lovlar xarajatlarini kamaytiradi;

v)poydevor qurish uchun kamroq harajat, karkas binoning umumiy massasi g‘isht, brus yoki gazobloklardan qurilgan uylarga nisbatan ancha kichik;

g)smeta qiymati pastroq, qurilishda katta hajmdagi tuproq ishlarini bajarish shart emas, hatto og‘ir maxsus texnikalarni jalb qilmasdan ham amalga oshirish mumkin;

d)rejalashtirishning xilma-xilligi, asosiy yuk ko‘tarish qobiliyatini devorlar o‘z zimmasiga oladi, uy ichida ustunlar yoki keng tayanchlar yo‘q, bo‘shliq ochiq, uni o‘z xohishiga ko‘ra bo‘lish mumkin.

Karkas-panelli uylarning kamchiliklari:

- issiqlik izolyatsiyalovchi panellar deyarli havoni o‘tkazmaydi, bu esa kondensat hosil bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Buning oldini olish uchun havoning samarali almashinuv tizimini oldindan e’tiborga olish lozim. Odatda buning uchun maxsus teshiklar qilinadi va ular devorlarning “nafas olishiga” yordam beradi;
- materiallar va texnologiyalarning yuqori sifatiga qaramay, bunday uylar 40-50 yil davomida foydalanishga mo‘ljallangan, ammo to‘g‘ri parvarish qilish va yuk ko‘taruvchi konstruksiyalarni almashtirish bilan ular uzoqroq xizmat qilishi mumkin;
- standart panellardan nostandart konfiguratsiyalarni yaratish qiyin yoki qimmatga tushadigan konstruktiv ijro bo‘yicha cheklovlar mavjud.

- **4. Modul texnologiyasi** (clt paneli). Bunday qurilish turining mohiyati shundan iboratki, dastlab modullar ishlab chiqarish zavodlarida alohida yig‘iladi. Konstruksiyaning tayyorlik darajasi taxminan 80-95 foizni tashkil qiladi. Shundan so‘ng ular qurilish maydonchasiga olib kelinadi va yig‘iladi. Modulli uylar mavsumiy yashash uchun mo‘ljallangan. Ularni qurishda ajoyib issiqlik va tovush izolyatsiyasi ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan ko‘ndalang laminatlangan yog‘och (CLT) plitalaridan va izolyatsiyalangan seksiyalardan foydalaniladi. Har bir panel zavod sharoitida Yevropa brendlarining yuqori sifatli loklari va bo‘yoqlari bilan bo‘yalgan. Bunday qoplama



11-rasm. Modul texnologiyasi asoslangan CLT panellardan qurilyatgan bino ko‘rinishi.

yog‘ochni antiseptik qiladi va chirishdan himoya qiladi, shuningdek, atrof-muhitning noqulay sharoitlariga chidamliligini oshiradi va tayyor qurilishlarning xizmat qilish muddatini sezilarli darajada oshiradi.

Modulli uylar zamonaviy standartlarga muvofiq ishlab chiqariladi, shuning uchun ular 50 yildan ortiq kafolatlangan xizmat muddatiga ega. Qurilishni kichik dala hovli uyidan boshlab, modullar soni bo‘yicha turar joy maydonini asta-sekin oshirib borish mumkin. Natijada bino bir xil materiallar va bloklarning yagona dizayni tufayli to‘liq ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Modulli uylar quyidagi afzalliklarga ega:

- ***mustahkamlik va chidamlilik:*** Sifatli materiallar va montajning innovatsion usuli tufayli inshootlar yuqori mustahkamlikka ega. Ular har qanday iqlim sharoitida ham muvaffaqiyatli ishlatiladi;

- ***qurilishning tushunarli byudjeti:*** Maksimal zavod tayyorligidagi modulli uylar turli komplektatsiyalarda belgilangan qiymatga ega va qurilish boshida kelishilgan smetadan ortiq mablag‘ talab etilmaydi;

- ***tezlashtirilgan qurilish:*** Tez barpo etiladigan texnologiya boshqa qurilish usullaridan ko‘p jihatdan ustun bo‘lib, 2-3 oyda “tayyor holda” modul uylarni qurish imkonini beradi. Bunda yakka tartibdagi uyni loyihalashtirish va qurish uchun o‘rtacha 6 oydan 24 oygacha vaqt talab etiladi;

- ***ajoyib issiqlik izolyatsiyasi:*** Binolarning ichki maydoni tashqi omillardan yaxshi izolyatsiyalangan, bu esa isitish uchun energiya sarfini kamaytirishga imkon beradi;

- ***minimal og‘irligi:*** Odatda bitta modulning og‘irligi 2,5-3 tonnadan oshmaydi;

- modifikatsiyalarning xilma-xilligi.

Modulli uylarning kamchiliklari:

- ***ekspluatatsiya ishlari:*** binoni transportda tashish, ayniqsa, uning maydoni katta bo‘lsa, qimmatga tushishi mumkin;

- binolarning qavat-qavati ham cheklangan - konstruksiyaning mustahkamlik xususiyatlari tufayli uyda 3 qavatdan ko‘p bo‘lmasligi mumkin.

Xulosalar

1. Yog‘och konstruksiyalar tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, yashil arxitektura va iqtisodiy jihatlarni birlashtiruvchi samarali yechimdir. Shu bilan birga, ular zamonaviy qurilish texnologiyalari bilan uyg‘unlashib, insoniyatning barqaror yashash muhitini ta’minlashga xizmat qiladi. Yog‘och materiallardan foydalanishda innovatsion yondashuvlarni kengroq qo‘llash

nafaqat qurilish sifati va qulayligini oshiradi, balki atrof-muhitni muhofaza qilishga ham katta hissa qo‘shadi.

2. Barqaror rivojlanish prinsiplari asosida qurilish materiallarini tanlash jarayonida yog‘ochga bo‘lgan talab kun sayin ortib bormoqda. Bu esa zamonaviy texnologiyalar orqali ishlab chiqarilgan yog‘och konstruksiyalar ekologik toza va energiya samarador inshootlar qurishda muhim rol o‘ynaydi.

3. Yog‘och konstruksiyali binolar zamonaviy qurilishda ekologik, iqtisodiy va estetik jihatlarni muvaffaqiyatli uyg‘unlashtiradi. Bu esa qurilish sohasida barqaror rivojlanish uchun muhim asos yaratadi. Shu bois, yog‘ochning imkoniyatlarini to‘liq o‘rganish va amaliyotda keng tatbiq etish bugungi kun va kelajak uchun dolzarb masala hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Балаев С.Ю. Анализ зарубежного опыта индивидуального малоэтажного домостроения (ИМД) и возможности развития ИМД в России, 2009.URL:www.marketologi.ru/lib/balaev/foreign.

2. Бондаренко Е.Ю., Иваненко Л.В. Зарубежный опыт организации малоэтажного строительства. - 2013 г.

3. Кан Х.С. Интеллектуальное производство: прошлые исследования, нынешние результаты и направления на будущее // Инженерия и производство – зеленые технологии. 2016. № 3 (1). С. 111–128.

4. Лессинг Дж., Стен Л., Экхольм А. Промышленное домостроение // Развитие и концептуальнаяориентация отрасли. Строительство. Инновации. 2015. № 15 (3). С. 378–399.

5. Гулдинг Дж.С. Новые производственные и бизнес-модели в строительстве: приоритеты для будущей программы исследований // Управление проектированием и строительством. 2015. № 11 (3).С. 163–184.

6. Гайсин А.М. Сравнительная оценка удельных теплопотерь через элементы наружных стен жилых зданий, определяемых по различным методикам / [и др.] // Жилищное строительство. 2016. № 5.С. 36–39.

7. Туснина О.А. Оценка теплозащитных свойств покрытий из сэндвич-панелей // Научное обозрение. 2013. № 9. С. 269–274.

8. Корниенко С. Оценка тепловых характеристик ограждающей конструкции жилого здания // Разработка процедур. 2015. № 117 (1). С.191-196.

9. Хрусталев Б.М. Определение сопротивления теплопередаче ограждающих конструкций // Энергетика. Известия высших учебных заведений и энергетических объединений СНГ. 2018. Т. 61, № 1. С. 47–59.

10. Горбачевская Е.Ю. Малоэтажное жилье 2020 – новый инструмент развития рынка арендной недвижимости // Сер. конф. IOP: Материаловедение и инженерия, 2020. С. 47–49.

11. Варфоломеев Ю., Роальдсет Е. Разработка экспериментальной модели деревянного модульногодома для севера России // Устойчивые энергетические решения для Крайнего Севера. Архангельск, 2011. С. 87–89.

12. Буряченко С.Ю. Влияние ограждающих конструкций стен на энергоэффективность деревянного здания (на примере международного проекта КО 1089 «Зеленое арктическое строительство») [Текст] / С.Ю. Буряченко // Арктика: история и современность: материалы 5-й Междунар. конф. Сер.: Наука о Земле и окружающей среде, Санкт-Петербург, Санкт-Петербург, 2020. С. 42–46.

УДК: 691.02

ПОВЫШЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ И ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОИЗВОДСТВА СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ ПУТЕМ ПЕРЕРАБОТКИ

Дадаханов Фаррух Адҳамович
преподаватель, «Наманганский инженерно-строительный институт»,
e-mail: adrenverb@gmail.com,+998941747090

Abstract: The article considers the problem of increasing economic and environmental efficiency in the construction industry through recycling industrial and construction waste. The main recycling technologies and their impact on reducing the cost of production of construction materials and reducing the negative impact on the environment are described. Examples of using recycled materials in construction are given, and recommendations for the implementation of innovative approaches and the development of a regulatory framework are offered. Particular attention is paid to the economic feasibility and environmental benefits of using recycled materials in the context of sustainable development.

Keywords: waste recycling, building materials, environmental efficiency, economic efficiency, sustainable development, recycling technologies, environmental benefits.

Аннотация: В статье рассматривается проблема повышения экономической и экологической эффективности в строительной отрасли за счет переработки промышленных и строительных отходов. Описаны основные технологии переработки и их влияние на снижение затрат на производство строительных материалов и уменьшение негативного воздействия на окружающую среду. Приведены примеры использования переработанных материалов в строительстве, а также предложены рекомендации по внедрению инновационных подходов и разработке нормативной базы. Особое внимание уделено экономической целесообразности и экологическим преимуществам применения переработанных материалов в условиях устойчивого развития.

Ключевые слова: переработка отходов, строительные материалы, экологическая эффективность, экономическая эффективность, устойчивое развитие, технологии переработки, экологические преимущества.

Введение. В последние десятилетия проблема переработки отходов в строительной отрасли приобрела глобальное значение. Строительство и снос (C&D) составляют 30–40% общего объема твердых отходов в мире, что делает эту отрасль одной из наиболее ресурсоемких и загрязняющих окружающую среду. Например, в Узбекистане ежегодно образуется около 4,7 миллионов тонн отходов, включая строительные и сносные, что составляет значительную часть общего объема твердых коммунальных отходов. В рамках новой инициативы, к 2026 году в стране планируется модернизировать систему управления отходами, внедряя сортировку и переработку, а также использование отходов для производства строительных материалов и энергоутилизации. Такие меры позволят существенно сократить экологический след, сократив выбросы парниковых газов на 2,4 миллиона тонн в год. В США только за 2018 год строительные и сносные работы сформировали около 145 миллионов тонн отходов, из которых 75% отправилось на полигоны. В России объем строительных отходов существенно вырос в последние годы,

достигнув 63,3 миллиона тонн в 2023 году. Из них лишь небольшая часть утилизируется, в то время как значительная часть идет на захоронение. Прогнозируется, что к 2030 году доля вторичных ресурсов, используемых в строительстве, достигнет 40%, благодаря реформам и внедрению технологий переработки.

Эти данные подчеркивают острую необходимость повышения эффективности управления строительными отходами в странах. Это создаёт уникальные возможности для развития устойчивых технологий и производства строительных материалов на основе переработанного сырья.

Методология. Управление отходами строительства и сноса (ОСС) является одной из важнейших задач современной строительной отрасли, поскольку этот сектор генерирует до 30% всех твердых отходов в ряде стран. Эффективное управление ОСС не только способствует снижению экологической нагрузки, но и позволяет экономить природные ресурсы за счет переработки отходов в строительные материалы. По данным исследований, переработка бетона и кирпича из отходов может сократить спрос на первичные материалы более чем на 20% и одновременно снизить выбросы углекислого газа на 3-5% ежегодно.

Методы переработки отходов включают механическую сортировку, дробление и переработку материалов в пригодные для использования вторичные ресурсы. Например, бетонные отходы перерабатываются в заполнители, которые затем используются в дорожном строительстве. Развитие технологий, таких как применение ГИС и платформ больших данных, позволяет отслеживать движение отходов, оптимизировать логистику их утилизации и предотвращать нелегальные свалки.

Сравнительный анализ нормативных подходов к управлению ОСС в разных странах выявляет, что передовые системы управления отходами, включающие законодательные стимулы, могут сократить расходы на утилизацию до 26% и увеличить повторное использование материалов на 40%. В частности, в ЕС внедрение политики «нулевых отходов» уже приносит ощутимые результаты, особенно в странах Балтии, где переработка ОСС превышает 95%.

Методология исследования основывается на следующих этапах:

1. Сбор данных: Анализ текущих объемов строительных отходов, с привлечением статистики за 2020-2024 годы.
2. Классификация методов переработки: Оценка эффективности различных технологий переработки отходов, включая экономические и экологические аспекты.
3. Моделирование процессов переработки: Использование методов количественного анализа для прогнозирования экономической и экологической эффективности внедрения переработки в производство строительных материалов.
4. Оценка нормативной базы: Сравнение законодательных механизмов, направленных на управление отходами в строительной отрасли.

Эти шаги позволят оценить потенциал переработки отходов как источника вторичных строительных материалов, выявить барьеры и предложить стратегические решения для повышения устойчивости строительной отрасли.

Результаты. В результате исследования было выявлено, что переработка отходов строительства и сноса (ОСС) имеет значительный потенциал для повышения экономической и экологической эффективности производства строительных материалов.

Основные результаты:

1. Процент переработки отходов: Согласно данным Европейской комиссии, до 83% ОСС может быть переработано, что значительно снижает потребность в первичных материалах и способствует сокращению углеродного следа. Например, это может позволить сократить выбросы CO_2 эквивалентные 33–52 миллионам тонн в год, что соответствует совокупным ежегодным выбросам таких стран, как Эстония, Латвия и Люксембург
2. Экономическая выгода: В Узбекистане и России переработка отходов может способствовать экономии значительных средств за счет снижения затрат на утилизацию и уменьшения зависимости от импорта сырья. Например, в России ежегодный объем ОСС превышает 90 миллионов тонн, и около 70% из них пригодны для переработки. В Узбекистане, по приблизительным оценкам, перерабатывается менее 10% от общего объема ОСС, что подчеркивает огромный потенциал роста.
3. Энергосбережение: Использование вторичных материалов позволяет сократить потребление энергии, необходимой для производства цемента и других строительных материалов. По данным Европейской комиссии, переработка 1 тонны бетона экономит до 60% энергии по сравнению с производством из первичного сырья
4. Практическая реализация:

В ходе экспериментов были протестированы современные технологии, включая методы сортировки отходов, дробления и переработки для создания вторичного цемента, кирпича и композитных материалов. Эти подходы доказали свою эффективность как в снижении выбросов, так и в экономии средств, особенно в регионах с высокими объемами строительной активности.

Прогнозы: До 2030 года в Узбекистане ожидается рост объемов переработки до 50% от общего объема ОСС, что создаст новые рабочие места и снизит экологическую нагрузку. В России, учитывая высокий уровень текущих инвестиций в технологии переработки, к 2030 году прогнозируется увеличение объема переработки до 75%.

Эти результаты подчеркивают важность развития технологий переработки отходов как ключевого направления для устойчивого развития строительной отрасли.

Обсуждение. Результаты исследования демонстрируют, что переработка отходов строительства и сноса (ОСС) значительно способствует экологической устойчивости и экономической эффективности. На основе анализа данных, переработка до 95% строительных отходов стала возможной благодаря строгим правовым мерам и внедрению передовых технологий, как показано на примере Австрии и региона Ломбардия в Италии. Однако достижение этого уровня требует значительных усилий, включая оптимизацию процессов демонтирования, обязательные предварительные аудиты и применение технологий сортировки и обработки отходов.

В Европейском Союзе ОСС составляет около 40% общего объема отходов, из которых около 83% могут быть переработаны и использованы повторно. Это обеспечит снижение выбросов CO_2 на 33–52 млн тонн ежегодно, что эквивалентно ежегодным выбросам стран Балтии. Ключевыми инструментами достижения таких показателей являются внедрение концепции «от колыбели до колыбели» и обязательное использование вторичных материалов в строительстве.

В Узбекистане и России существует потенциал для повышения переработки отходов за счет внедрения цифровых платформ для обмена материалами, стандартов качества переработанных материалов и строгого контроля за утилизацией. Например, анализ отходов и предоставление бесплатных инструментов управления на уровне муниципалитетов (как в Испании) может повысить уровень осведомленности и мотивацию к использованию переработанных материалов.

Таким образом, обсуждение выявляет необходимость комплексного подхода, включающего технические, нормативные и социальные аспекты, для создания замкнутого цикла управления строительными отходами. Важно отметить, что внедрение инновационных стратегий потребует координации между государственными структурами, бизнесом и научными учреждениями.

ЛИТЕРАТУРА

1. European Commission on Construction and Demolition Waste. Источник: Официальный сайт Европейской комиссии, включающий статистические данные и рекомендации по управлению строительными отходами в странах ЕС.

2. COLLECTORS Project on Circular Construction. Подробное описание принципов замкнутого цикла в строительстве и успешные примеры из ЕС, такие как переработка кирпича и гипса.

3. Лукин, С. Е. (2021). Биокомпозитные материалы в строительстве: инновации и устойчивое развитие. Строительные технологии будущего, 6(10), 55-63.

4. Петров, В. А. (2019). Зеленый бетон как элемент устойчивого строительства. Материалы Всероссийской конференции "Энергосбережение в строительстве", Казань.

УДК: 668.94

ТЕХНОЛОГИИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕРЕРАБОТАННЫХ ПЛАСТИКОВЫХ МАТЕРИАЛОВ В СТРОИТЕЛЬСТВЕ

Дадаханов Фаррух Адҳамович
преподаватель, «Наманганский инженерно-строительный институт»,
e-mail: adrenverb@gmail.com,+998941747090

Keywords: uzbek language, digital technologies, speech competence, creative thinking, engineering approach, critical thinking, understanding of scientific methods, understanding of design principles, comprehensive understanding of the problem.

Bugungi globallashuv davrida barcha sohalar jadal sur'atlarda o'sib bormoqda. Barcha sohalarda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish orqali juda katta yutuqlarga erishilmoqda. Ta'lim-tarbiya sohasida ham raqamli texnologiyalar keng joriy qilinib, yurtimizda o'zbek tili va uning nufuzini oshirish borasida samarali ishlar olib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF 5850-son Farmonida mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash, o'zbek tilining mamlakatimiz hududida istiqomat qiluvchi barcha millatlar va elatlar tomonidan o'rganilishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, o'zbek tilining nufuzini va mavqeyini oshirish masalalariga a'lohida e'tibor qaratilgan [1].

Haqiqatdan ham, respublikamizda istiqomat qiluvchi rusiyzabon va boshqa turli millat vakillarining mamlakatimizning teng huquqli fuqarolari sifatida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jabhalarda keng faoliyat olib borishlari uchun davlat tilini bilishlari va erkin qo'llay olishlari kerak bo'ladi. Shu bois bugungi kunda o'zbek tilini o'rganish shaxsiy ehtiyojgina emas, balki jamiyatning muhim ijtimoiy talablaridan biriga aylandi. Bu ta'lim o'zga tillarda olib boriladigan sinflarda o'zbek tilini o'qitish va mazmunini yanada boyitish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston ko'p millatli va elatli xalqdir. Yurtimizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari hamjihatlikda istiqomat qilishadi. Umumta'lim maktablarida ta'lim yetti tilda olib boriladi:

o‘zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg‘iz, turkman. Mamlakatimizda yashovchi fuqarolarning anchagina qismi ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar va rus sinflarda ta’lim oladilar. O‘zga tilli sinflarda o‘zbek tili davlat tili sifatida o‘qitiladi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad esa, turli xil millat vakillari farzandlarining o‘zbek tilini davlat tili sifatida kundalik mehnat va ijtimoiy faoliyat uchun yetarli darajada amaliy egallashlarini ta’minlash, o‘zbek tili vositasida barcha ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda insonlar o‘rtasidagi turli muomala malakalarini shakllantirishdan iborat. [2].

O‘zga tilli sinflarning o‘zbek tili bo‘yicha nutqiy kompetensiyasini kuzatganimizda quyidagi muammolarni kuzatishimiz mumkin:

o‘zbek, qoraqalpoq, qozoq, qirg‘iz, turkman tillari genetik jihatidan bir oilaga mansub. Rus, tojik tillarining esa tuzilishi, genetik jihati, orfoepik va orfografik meyorlari farqlanishi tufayli, ushbu o‘zga tilli o‘quvchilarning o‘zbek tili bo‘yicha nutqi ham turlicha rivojlangan;

o‘zbek tilini yaxshi o‘zlashtira olmagan o‘quvchilar dars jarayonida va boshqa davlat ishlarida erkin muloqotga kirisha olmaydilar;

o‘zbek tili bo‘yicha nutqi yaxshi rivojlanmagan o‘quvchilar dars jarayonida mustaqil fikr bildira olishmaydi, natijada o‘ziga bo‘lgan ishonch yo‘qoladi;

o‘zbek tili bo‘yicha nutqi yaxshi rivojlanmagan o‘zga tilli o‘quvchilar va o‘zbek tilida ravon gapira oladigan, yoza oladigan o‘quvchilar bilan bir sinfda o‘qiganliklari bois, sinfda o‘zlashtirish va ularning bilim darajalari ham turlicha.

Q.Holiqberdiyev tadqiqot ishida rus maktablarining 3-sinfi o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqida uchraydigan fonetik xatolaridan misollar keltiradi.O‘quvchilar xato qilmaslik maqsadida bir tovush o‘rniga ikkinchi tovushni qo‘llab, aksincha xatoga yo‘l qo‘yadilar: yaxshi o‘rnida yaqshi, ular o‘rnida o‘lar.Tadqiqotchi xatoliklarning sababini quyidagicha izohlaydi:

1. Avvalo *q, g‘, o, o‘, h, ng* tovushlarining o‘quvchilarning o‘z ona tilida yo‘qligi bo‘lsa, ikkinchidan, nutq organlarining hali bu tovushlarni hosil etishga o‘rganmaganligi.

2. O‘zbek tilida *i* va *u* tovushlari reduksiyaga moyil tovush ekanligi, rus tilida bu tovushlar urg‘uli bo‘g‘inda reduksiyaga uchramay aniq talaffuz etilishi.

3. O‘zbek tilidagi “*l*” undoshining yumshoq talaffuz etilishi, ayniqsa, tor unli u va o‘rta tor unli o‘ dan keyin uning bu xususiya yana ham kuchliroq ekanligi [3].

Bu muammolarni bartaraf etish esa o‘zbek tili oldida turgan dolzarb muammolardan biridir.Bu muammolarni bartaraf etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ta’lim-tarbiya samaradorligini oshiradi. Ko‘pchilikka ma’lumki, o‘qitishning odatdagi an’anaviy usulida o‘qituvchi faol o‘quvchi esa tinglovchiga aylanadi. Bunday ta’lim esa o‘quvchilarning ma’lumotlarni yodlash va eslab qolishga yo‘nalgan bo‘ladi. Bu esa yillar o‘tib xotiradan o‘chishiga olib kelishi mumkin. Dars jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish esa ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ya’ni o‘quvchilarning o‘zlari mavzuni o‘qiydi, o‘zlashtiradi, mustaqil yangi ma’lumotlar topadi va tahlil qiladi. Shunday ta’lim texnologiyalariga STEAM, smart va boshqa raqamli texnologiyalarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Bugungi kunda STEAM ta’lim dunyodagi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda va amaliyot yondashuvni qo‘llashda beshta sohani yagona o‘quv sxemasiga integratsiyalashga asoslangan. STEAM ta’lim texnologiyasining asosiy pedagogik ahamiyatli jihati shundaki, unda o‘quvchilar integratsiyalashgan ta’lim muhitida bo‘ladilar. Integratsion yondashuv turli xil

faoliyat turlari- o'yin, texnika, nutq, visual, kommunikativ, kognitiv va boshqalarning bog'liqligida namoyon bo'ladi.

STEAM o'quvchilarda quyidagi muhimxususiyatlar va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi:

1. Muammoni keng qamrovli tushunish.
2. Ijodiy fikrlash.
3. Muhandislik yondashuv.
4. Tanqidiy fikrlash.
5. Ilmiy metodlarni tushunish va qo'llash.
6. Dizayn asoslarini tushunish.

Xulosa

Xulosa sifatida shuni aytib o'tish kerakki, o'zga tilli sinflarda o'zbek tilini o'qitishni samarali tashkil etish o'ziga xos yondashuvlar, metodlar, usullardan foydalanish zaruriyatini tug'diradi.O'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar samarali usullar yig'indisidir.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF 5850-son Farmoni

2. Мухитдинова Х. С. Ўзбек тилини иккинчи тил сифатида ўқитишда тинглаб тушуниш кўникмасини шакллантириш//Ўзбекистонда хорижий тиллар. — 2021. — № 3 (38). — С.114-127.

3. Holiqberdiev Q. O'qishlar rus tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tilidan dastlabki ta'lim: Ped. fan. nom. ... dis. — Toshkent: 1971. — 243 b.

UO'T 378: 681.14: 371-3

INTERAKTIV TA'LIM MUHITIDA "CHIZMA GEOMETRIYA VA MUHANDISLIK GRAFIKASI" FANINI O'QITISH MAZMUNI

Shonazarov Adxamjon Odiljonovich
o'qituvchi, Namangan muhandislik-qurilish instituti
E-mail: shonazarovadxam76@gmail.com

Annotatsiya. Interaktiv ta'lim muhitida «Chizma geometriya va muhandislik grafikasi» fanini o'qitish masalalari haqida fikr yuritilgan.

Аннотация. Вопросы преподавания «Чертежной геометрии и инженерной графики» обсуждались в интерактивной образовательной среде.

Annotation. The issues of teaching the subject "Drawing Geometry and Engineering Graphics" in an interactive learning environment were considered.

Kalit so'zlar: o'qitish metodikasi, model, ko'rgazmalilik, interaktiv.

Ключевые слова: Методика обучения, модель, демонстрация, интерактив.

Key words: Teaching methodology, model, demonstration, interactive.

Bugungi kunda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar maktab, akademik litsey va oliy o'quv yurtlarida o'qitish tizimini tubdan o'zgarishiga va ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlanib borishiga olib kelmoqda. Buning natijasida ta'lim tizimining barcha sohalarida o'qitish samaradorligini yuqori natijalarga ko'tarish kunning dolzarb muammolaridan biriga aylandi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalari har bir sohada o'rganish, izlanish va tajriba orttirish imkoniyatlarini bermoqda. Ayniqsa, ta'lim sohasida qo'llanilayotgan texnik vositalar, kompyuter, maxsus kompyuter dasturlari, elektron doska, dars jarayoni uchun maxsus jihozlangan auditoriyalar o'qituvchi va talabalarga qulay shart-sharoitlarni yaratmoqda.

Texnik yo'nalishdagi OTMlarda o'qitilayotgan «Chizma geometriya va muhandislik grafikasi» fanining alohida o'rni bor. Lekin ushbu fanni an'anaviy o'qitish amaliyotida, odatda, talabalarning grafik bilim, ko'nikma va malakalari, ularning fazoviy tasavvurlari amliy topshiriqlar vositasida shakllantiriladi va rivojlantiriladi. An'anaviy o'qitishda kompyutersiz ham samaradorlikka erishish mumkin, ammo buning uchun ko'p mehnat va kuch sarflash kerak. Bugungi kundagi zamonaviy kompyuterlarning imkoniyatlarining ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Kompyuter texnologiyalari vositasida ushbu fandagi hodisa, tajriba va jarayonlarni modellashtirish imkoniyati yaratiladi, boshqariladi, o'rganiladi, tashxis va tahlil qilinadi. Natijada «Chizma geometriya va muhandislik grafikasi» fanining o'qitish metodikasi takomillashib, ta'lim samaradorligi oshadi.

«Chizma geometriya va muhandislik grafikasi» fanini interaktiv 3D virtual dinamik modellar asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish xususida so'z yuritishdan avval «interaktiv», «o'qitish metodikasi», «Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanini o'qitish metodikasi» tushunchalari haqida fikr yuritish talab qilinadi.

«Metodika» so'zi lug'atlarda, «amaliy jihatdan nimanidir bajarish uchun qo'llaniladigan metod va usullar yig'indisi»[1]; «nimadir o'qitish yoki qandaydir ishni bajarishga oid qoidalar tizimi, metodlarning bayoni»[1]; «qandaydir yo'naltirilgan harakatni amalga oshirishning tayyor

«retsepti», algoritmi, bajarilish tartibi»[2] kabi ma'nolarni anglatadi.

M.T.Studenikin esa, «metodika – o'qitish va uning tashkil etish jarayonini takomillashtirish, shuningdek, o'qitishda samarali bo'lgan asosiy omillarni aniqlash»[3; 4-b.] ekanligini e'tirof etadi.

Mualliflar fikrlaridan kelib chiqqan holda, metodikani ma'lum harakatni bajarishda samarali deb topilgan shakl, metod, vosita, usul va zamonaviy ta'lim texnologiyalar majmuidan tarkib topgan deb qarash o'rinlidir.

«O'qitish metodikasi» tushunchasi o'qitish va metodika atamalarining yig'indisidan hosil bo'lgan va anglanganidek, muayyan fanni samarali o'qitilishini ta'minlovchi shakl, metod, vosita, usul hamda texnologiyalar mohiyatini, ulardan foydalanish yo'llarini ifodalaydi. Fikrimizni «o'qitish (yoki ta'lim) metodikasi» tushunchasiga tadqiqotchilar tomonidan berilgan ta'riflarning mazmuni ham tasdiqlaydi. Misol uchun, o'qitish metodikasi – «u tomonidan ko'proq samaralarga erishilishini ta'minlash maqsadida ta'lim jarayonini tadqiq etuvchi pedagogik fanlar tarmog'i bo'lib, u o'z ichiga ta'limning metod, qoida va vositalarini oladi»[4].

«Metodika» va «o'qitish metodikasi» tushunchalari ularning nazariy tavsifi bo'yicha xanuzgacha yagona to'xtamga kelinmagan. Bizning nazarimizda, buning boisi bajariladigan harakat va o'qitiladigan fan tarmoqlarining o'ziga xosligi, maqsadning turlicha ifodalanishi, yo'nalishlarning xilma-xilligi bilan bog'liq. Umumiy holda, «o'qitish metodikasi» negizida «o'rganilayotgan materialni o'zlashtirishga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal qilish bo'yicha o'qituvchining o'qitishga qaratilgan hamda o'quvchilar tomonidan tashkil qilinadigan o'quv-bilish faoliyatining yo'lga qo'yilish usullari, ta'lim vazifalarini hal qilishga yo'naltirilgan o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning o'zaro bog'liq faoliyatini taptibga solish yo'llari; o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkillashtirish yo'llari»[5] aks etadi.

Demak, o'qitish metodikasi turli fanlarning o'rgatilish jarayonining umumiy tavsifini, o'ziga xosligi, muhim xususiyatlari, fanning maqsadi, vazifalaridan kelib chiqqan holda pedagogik faoliyat mazmunini yoritishga xizmat qiladi.

Respublikamizda grafik ta'limni o'quv metodik jihatdan takomillashtirish, o'quvchilar (talabalar) o'quv faoliyati mazmuni, usullari hamda vositalarini ishlab chiqish masalalari bilan bir qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Jumladan, grafik fanlarni (chizmachilik, «Chizma geometriya va muhandislik gafikasi», «Muhandislik va kompyuter grafikasi», qalamtasvir) o'qitish metodikasi bo'yicha «Chizmachilik fani o'quv jarayonida kognitiv faoliyatni faollashtirish»[6], «Oliy o'quv yurtlarida grafika o'qituvchilarini tayyorlashning ilmiy-metodik asoslari»[7], «O'quvchilarning grafik tayyorgarligiga integrativ yondoshishning ilmiy-metodik asoslari»[8], «Chizma geometriya kursini o'qitish mahsuldorligi oshirishning ilmiy-metodik asoslari»[9], «Sharqona me'moriy an'analar asosida talabalarda fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish (badiiy yo'nalishdagi mutaxassislar misolida)»[10], «Fazoviy almashtirishlar jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish omillari»[11] kabi ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Tadqiqotchi D.A.Achilova[12] «Chizma geometriya va muhandislik grafikasi» fanini o'qitish jarayonidagi salbiy va ijobiy omillarning ta'sirini dispersion tahlil qilish modeli, hamda o'quv jarayonining sifatini boshqarish uchun talabalarning bilimlari darajasi va tuzilishini uzluksiz nazorat qilish imkonini beruvchi imitatsion modelini ishlab chiqqan va amaliyotga tadbiq etgan.

N.M.Qo'ziyev[13] ning ilmiy tadqiqot ishi qishloq xo'jaligi muhandisligi yo'nalishi talabalarining ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida talabalarda texnik tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirishning eruditsion omili va talabalar bilan individual ishlashga imkon beradigan mustaqil harakatlanish ko'nikmalarini «inson-texnika», «inson-belgi», «inson-tabiat» asosida integrallashgan tizimni tarkiblashtirishga o'rgatishning intellektual asosi hamda kognitiv rivojlanishning muhim shartlarini belgilangan.

A.B.Tadjibayev[14] umumiy o'rta ta'lim maktablari sharoitida 8-9-sinflarda o'qitiladigan aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda yagona grafikaviy tartibni ta'minlashning pedagogik talablari aniqlanib, aniq va tabiiy fanlar aloqadorligi asosida yagona grafikaviy ta'lim tartibini ta'minlashga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqqan.

Respublikamizda grafik ta'limni tahlil etilganda shu narsa ma'lum bo'ldiki, o'rta maktab chizmachilik fanlarini o'qitilishida asosan an'anaviy darslar olib borilayotganligi, mavzuga oid detalni (buyumni) chizmasini chizishni o'rgatishda oddiy modellardan foydalanilayotganligi aniqlandi. Bunday modellarni yog'och, karton, plastmassa va boshqa materiallardan tayyorlanadi. Ayrim o'qituvchilar detal modelini emas, balki uning surati (plakati) bilan mavzuni o'quvchilarga tushuntirib bermoqda. Oliygohlarda esa professor-o'qituvchi talabalarga geometrik jism va shakllarning modellarining chizmasini chizishni o'rgatish uchun o'zi bilan auditoriyaga olib kirishi kerak. Bunday modellarning yetishmasligi, mavjud modellarning ma'nan va jismonan eskirganligi, ayrim mavzularni tushuntirishda bu modellarning imkoniyati cheklanganligi tufayli talabalar dars jarayonida ortogonal proeksiyalash mohiyatini to'laqonli tushunib olishga qiynalishmoqdalar. Bunga sabab professor-o'qituvchi tomonidan ko'rsatilayotgan geometrik jismni proeksiya tekisliklariga yo'naltirilgan proeksiyalash nurlarini fazoda ko'rsatishni imkoni yo'qligidir. Professor-o'qituvchi bu proeksiyalash nurlarini faqat fazoviy tassavvur qilish kerakligini talabalarga tushuntirishi lozim bo'ladi.

Geometrik obyekt (nuqta, tekislik, to'g'ri chiziq, egri chiziq, sirtlar va hakozolar) ni modelini proeksiya tekisliklariga proeksiyalanishini tushuntirishda proeksiya tekisliklariga yo'naltirilgan proeksiyalovchi nurlarni ko'rinmasligi ortogonal proyeksiyalash metodi mazmun mohiyatini tushunib olishda qiyinchiliklar tug'diradi. Amaliy mashg'ulotlarida grafik masalani bajarish tartibi mukammal tushuntiriladi. Biroq, talaba chizma (epyur) orqali berilgan masalani bajara olmasligiga fazoviy tassavvur qilish ko'nikmalari yetarli bo'lmaganligi sabab bo'lmoqda. Mustaqil ishlarni bajarishda ham bunday muammolar yaqqol ko'rinadi. Talabalar ayrim murakkab bo'lgan chizmalarni chizishda ularning uch o'lchovli modelini fazoviy tassavur qilishga qiynalishadi. Bosma darslik, o'quv qollanma va adabiyotlarda grafik masalani berilishi va yechilishi faqat ikki o'chovli tasvir ko'rinishda bo'lganligi sababli fazoviy tasavvur qilish qobilyati past bo'lgan talabalar grafik masalani bajarishni o'zlashtirishda orqada qolmoqdalar. Natijada talaba «Chizma geometriya va muhandislik gafikasi» fani qiyin degan xulosaga kelmoqda.

Mualliflar F.T.Ziganshina va L.N.Munirovalarning fikricha, «Chizma geometriya va muhandislik grafikasi» fanlarining o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar quyidagi sabablarga ko'ra yuzaga keladi: «fizika, kimyo, matematika va boshqa fanlar bo'yicha talaba allaqachon ma'lum bazaga ega, lekin chizma geometriyani o'rganishda bunday baza yo'q, chunki u o'rta maktabda o'qitiladigan fanlar bilan chambarchas bog'liq emas. Garchi, unda maktab stereometriyasi

kursining ma'lum qoidalari ishlatilgan bo'lsada, aniq jismlarni o'rganadigan stereometriyadan farqli o'laroq, chizma geometriyada birinchi navbatda mavhum nuqtalar, to'g'ri chiziqlar, tekisliklar ko'rib chiqiladi, bu esa katta e'tiborni, kontsentratsiya va fazoviy fikrlashni talab qiladi. Kecha maktab o'quvchisi bo'lgan talabada bu fazilatlar juda kam rivojlangan»[15; 113-b] ligi yaqqol nomoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda "Chizma geometriya va muhandislik grafikasi" fanini o'qitishda fazoviy tasavvurni rivojlantirish muhim omil hisoblanadi. Fazoviy tasavvurni rivojlantirishda turli xil ko'rgazmali vositalar (plakat, sxema, jadval, animatsiyalashtirilgan chizmalar va hakozolar) dan foydalanib kelinmoqda. Fanni o'qitishda didaktikaning ko'rgazmaliylik tamoyilidan samarali foydalanish ijobiy samara beradi.

Oliy ta'lim muassasalaridagi «Chizma geometriya va muhandislik grafikasi» fani umumkasbiy fanlar sifatida alohida ahamiyatga ega. Respublikamizda oliy ta'lim muassasalari kredit modul tizimiga o'tgandan so'ng ushbu fanning ham auditoriya soatlari qisqarib, mustaqil ta'limga ko'proq soat ajratildi. Natijada bir juftlik ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda kursning katta hajmdagi mavzularini tushuntirishga to'g'ri kelmoqda. Har bir mashg'ulotda talabalar o'zlashtirilayotgan bilimlarni tushunib olishlari, ko'nikma hosil qilishi va uni amalda qo'llash malakalarini egallashi lozim. Mashg'ulotlarda ushbu natijalarga erishilmas ekan, ta'lim sifatini yuqori bosqichlarga olib chiqishning imkoniyati bo'lmaydi. Buning uchun dars mashg'ulotlarni yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qitishda ko'rgazmali didaktik vositalardan va zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanish talabalarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi hamda bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlaydi.

O'qitishning yangi innovatsion texnologiyalari ta'lim sifatini oshirishga yordam bermoqda. O'qituvchi yangi pedagogik texnologiyalardan o'qitilayotgan fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda foydalanishi kerak. «Chizma geometriya va muhandislik grafikasi» fanini o'qitishda ham elektron doska, kompyuter, internet va boshqa texnologiyalardan foydalangan holda mashg'ulotlar olib borilmoqda. Zamonaviy jamiyatda axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan pedagogik nazariya va amaliyotga jiddiy o'zgartirishlar kiritish, malaka darajasini oshirishga qaratilgan yangi ta'lim modellarini izlashni kuchaytirish zarurati tug'ilmoqda.

Hozirgi zamon oliy ta'lim muassasalarida «Chizma geometriya va muhandislik grafikasi» fanini o'qitishda eng qulay uslub, vosita va shakllarni ishlab chiqish hamda talabalarni fanga oid modellar, ko'rgazmali plakatlar va kompyuter texnologiyalaridan foydalanib bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish dolzarb masala bo'lmoqda. «Chizma geometriya va muhandislik grafikasi» fanini o'qitishning zamonaviy usullarini qo'llash orqali talabalarni egallayotgan bilimlarni o'zlari mustaqil izlab topishga, ularni tahlil qilishga va mustaqil xulosalar chiqarishga o'rgatib borish mazkur fanning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda o'qituvchi talabalarni ijodiy fikrlash qobilyatlarini shakllantirish va fazoviy tasavvurlarini rivojlantirishda turli xil o'qitish vositalaridan foydalanib kelinmoqda.

Ko'pincha an'anaviy usullardardan foydalanib (doska va bor bilan) ta'lim berishda talabalar o'zlashtirish kerak bo'ladigan o'quv materialni to'liq tushuntirishga vaqt etmay qoladi. O'qituvchi bitta chizmani doskada chizib ko'rsatishi uchun tayyor elektron chizmaga qaraganda

ko'proq vaqt sarflaydi. Demak ushbu elektron didaktik vositalarni yaratish va uni ta'lim sohasida qo'llash kechiktirib bo'lmaydigan masala hisoblanadi.

«Chizma geometriya va muhandislik grafikasi» fanini o'qitishda ham talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda muammoli, innovatsion, moduli, hamkorlik, rivojlantiruvchi, interaktiv, loyiha, masofaviy, kompyuterli, dasturiy, tabaqalashtirilgan, individual va mustaqil ta'lim turlari, o'yin texnologiyalaridan foydalanib kelinmoqda. Bugungi kunda ushbu ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llash talabalarda ilmiy izlanish, ijodiy loyihalarni amalga oshirish, o'zaro fikr almashish kabi ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda eng samarali yo'l bo'lib qolmoqda. Tadqiqotning obyekti sifatida «Chizma geometriya va muhandislik grafikasi» fanini interaktiv 3D virtual dinamik modellar asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish jarayoni tanlangan. Shundan kelib chiqqan holda «interaktiv ta'lim» tushunchasini ham nazariy tavsiflash maqsadga muvofiqdir.

Pedagogikada «interaktiv» so'zi bilan «ta'lim» so'zining birikmasidan hosil qilingan – ««interaktiv ta'lim» (ingl. «interact», rus. «interaktiv»; «inter» – o'zaro, «act» – harakat qilmoq) – talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim»[16] ekanligi aytib o'tilgan.

Interaktiv o'qitish tushunchasi mohiyatiga pedagogika yo'nalishidagi metodik qo'llanmada quyidagicha ta'rif berilgan: «ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilari - o'qituvchi, o'quvchi va o'quvchilar guruhi o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in bahs-munozaralar, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda o'quvchilarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, «o'qituvchi – o'quvchi – o'quvchilar guruhi» ning o'zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo'llab quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo'lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi»[17; 140-41-b.].

A.G.Tixobayevning fikricha, «o'quv jarayonida kompyuter texnologiyalarining eng istiqbolli xususiyati interaktivlikdir. «Interaktivlik» so'zi kompyuter texnologiyasidan olingan. Umuman olganda bugungi kunda ta'lim jarayonida «interaktiv texnologiyalar» atamasi ancha keng tushunchadir:


jamoaviy rolli o'yinlar;

kompyuter simulyatsiyalari va o'yinlar;

o'qitishning texnik vositalari (multimedia uskunalari, interaktiv doska va boshqalar)»[18; 81-b.] ni misol qilish mumkin.

Interaktiv ta'limning «o'quvchi – axborot kommunikatsion texnologiyalar» shaklida tashkil etilishi, ularning o'quv jarayonidagi o'rni, ahamiyati va axborot texnologiyalari yordamida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida qaralgan. Shuning uchun, suhbat (dialog) shaklda tashkil etilgan interaktiv metodlar bilan birgalikda, ayniqsa, texnik fanlarni o'qitishda interaktiv kompyuter texnologiyalari asosida olib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

A.G.Tixobayev interaktiv ta'lim texnologiyalarini muloqot ishtirokchilariga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratib ko'rsatadi (1.1-rasmga qarang)[18, 82-b.]:



1.1- rasm. Interaktiv ta'lim texnologiyalarining tasnifi

Eng keng ommalashgan texnologiyalardan biri interaktiv ta'lim texnologiyalari hisoblanadi. Bugungi kunga qadar pedagoglar didaktik o'yinlar, kichik guruhlar bilan ishlash, munozara va aqliy hujum va shu kabi interaktiv ta'limning inson-inson texnologiyalarini qo'llash bo'yicha boy tajribalar to'plashgan. Interaktiv ta'limning inson-inson texnologiyasi deyilganda shaxslar (o'qituvchi, o'quvchi va o'quvchilar guruhi) o'rtasidagi o'zaro dialogni (og'zaki o'zaro ta'sirni) nazarda tutiladi.

Shu sababli, yuqoridagilarni hisobga olgan holda, interaktiv ta'lim texnologiyalari deganda o'qituvchi va talaba o'rtasida maxsus dasturiy mahsulotlardan foydalangan holda o'qitishning texnik vositalari (kompyuter vositalari) orqali ikki tomonlama aloqa tushunilishi kerak, deb hisoblaymiz. Shu munosabat bilan quyidagi zarur komponentlarni ajratib ko'rsatish kerak:

individual muloqot «o'qituvchi-talaba», bunda o'qituvchi virtual bo'lishi ham mumkin;

fanni o'qitish metodikasining o'ziga xosligini va talabaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini amalga oshirish uchun maxsus dasturiy mahsulotlarning mavjudligi;

o'qituvchining o'rnini bosmaydigan, balki talabaga bilimlarni mustaqil ravishda to'ldirish yoki mustahkamlashga yordam beradigan interaktiv texnologiyalar[18, 82-b.].

Interaktiv muhitda «Chizma geometriya va muhandislik grafikasi» fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish o'qitishning samaradorligini ta'minlaydigan interaktiv shakl, metod, vosita va texnologiyalarini tanlash, zamonaviy elektron adabiyotlarni yaratish maqsadi ko'zlanadi.

Ushbu maqsadga ko'ra, «Chizma geometriya va muhandislik grafikasi» fani mashg'ulotlarini qiziqarli va jonli tarzda o'qitishni ta'minlovchi vazifalar: o'qitishning shakl, metod, vosita va texnologiyalarini tanlash hamda saralash; metodik ishlanmalar va metodik ta'minotni boyitish; metodik ta'minotdan o'quv amaliyotida izchil, samarali foydalanilish hamda amaliyotga tatbiq qilingan metodik ta'minot yordamida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish kabilar belgilab olindi.

Ilmiy izlanishlar davomida tanlangan muammoni nazariy tahlil qilish, tajriba-sinov ishlarini o'tkazish, professor-o'qituvchilar bilan olib borilgan suhbatlar mavjud sharoitda aynan interaktiv ta'lim texnologiyalari «Chizma geometriya va muhandislik grafikasi» fanini o'qitish samaradorligini ta'minlay olishiga ishonch hosil qilindi. Shu bois «Chizma geometriya va

muhandislik grafikasi» fanini o'qitish sifati hamda samaradorligini ta'minlaydigan omillardan biri sifatida interaktiv ta'lim muhiti tanlandi.

ADABIYOTLAR

1. Методика // https://kartaslov.ru/значение-слова/методика.
2. Методика // https://ru.wikipedia.org/wiki/Методика.
3. Студеникин М.Т. Методика преподавания истории в школе / Учеб. для студ. высш. учеб. заведений. –М., 2008. – С. 4.
4. Методика преподавания как педагогическая наука // https://studme.org/41881/ sotsiologiya/ metodika_ prepodavaniya_ sotsiologii_kak_nauchnaya_distsiplina.
5. Теоретические основы методики преподавания // https://studfile. net/ preview/2895227/ page:3.
6. Умронхўжаев А. «Активизация позновательной деятельности в процессе обучения черчению». Дисс….пед.фан.ном. – Тошкент, 1978.
7. Рузиев Э.И. Научно-методические основы подготовки учителей графики в высших учебных заведениях. Автореф.док.пед.наук. – Т., 2005. –44 с.
8. Ҳурбоев Н. «Ўқувчиларнинг график тайёргарлигига интегратив ёндошишнинг илмий-методик асослари» Дисс….пед.фан.ном. – Тошкент, 2000.
9. Абдурахманов Ш. «Чизма геометрия» курсини ўқитиш маҳсулдорлиги оширишнинг илмий-методик асослари. – Наманган, 2006. –172 б.
10. Сайдалиев С.С. Шарқона меъморий анъаналар асосида талабаларда фазовий тасаввурларини ривожлантириш (бадиий йўналишдаги мутахассислар мисолида). Дисс.... пед.фан. ном. – Т., 2010. –132 б.
11. Yadgarov N.D. Fazoviy almashtirishlar jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish omillari. Ped.fan. nom.....diss. –Toshkent, 2009. – 157 b.
12. Ачилова Д.А. Олий ўқув юртида ўқув жараёнини моделлаштириш ("Чизма геометрия ва муҳандислик графикаси" фани мисолида) // п.ф.ф.д.(PhD) дис.автореферати. –Т.:2019.- 60-б.
13. Қўзиев Н.М. Касбий фаолиятга тайёрлаш жараёнида талабаларни техник тафаккурини ривожлантириш (Техника йўналишлари мисолида) // п.ф.ф.д.(PhD) дис.автореферати. –Наманган: 2020.- 50-б.
14. Таджибаев А.Б. Умумий ўрта таълим мактабларида график таълим самарадорлигини оширишнинг педагогик технологиялари (аниқ ва табиий фанлар интеграцияси мисолида) // п.ф.ф.д.(PhD) дис.автореферати. –Наманган: 2020.- 46-б.
15. Зиганшина Ф.Т. Мунирова Л.Н. ИННОВАЦИИ В ПРЕПОДАВАНИИ ДИСЦИПЛИН «НАЧЕРТАТЕЛЬНАЯ ГЕОМЕТРИЯ» И «ИНЖЕНЕРНАЯ ГРАФИКА» Для реализации требований основных образовательных программВестник УГНТУ. Наука, образование, экономика. Серия экономика. № 4 (34), 2020 113-стрhttps://cyberleninka.ru/article/n/innovatsii-v-prepodavanii-distsiplin-nachertatelnaya-geometriya-i-inzhenernaya-grafika/viewer]
16. Z.F.Sharopova. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI. «NAVRO'Z» nashriyoti. Toshkent – 2019 й .150-159 бет.
17. У.И.Иноятов. Н.А.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Иногомова. Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб / Методик кулланма. - Тошкент: Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, 201 а. _ 140-141-б
18. Тихобаев А.Г. Интерактивные компьютерные технологии обучения // Вестник ТГПУ. 2012. №8 (123). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/interaktivnye-kompyuternye-tehnologii-obucheniya (дата обращения: 18.02.2023).

UO'T. 377.015.31:72.012:004.94

PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI O'QUVCHILARINING LOYIHALASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Abdullayev A'zamjon Komolxanovich
NamMQI o'qituvchisi
Gmail: azamjonabdullayevnamqi@gmail.com

Annotatsiya: maqolada professional ta'limdagi Arxitektura yo'nalishlarida "Arxitekturaviy loyihalash" fanini o'qitish jarayonida bugungi kun o'quvchilaridan yuqori dizayn, virtual modellashtirish, grafikaning eng so'nggi yutuq (virtual muzey, virtual sayohat, animasion grafika, video grafika)larni qo'llash, real hayotdagi kabi vaziyatlar, perspektivadagi g'oyalarni modellashtirish uchun ilmiy grafikaning joriy etish masalasi haqida ilmiy ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация: В статье предстовлены новейшие достижения перспективного дизайна, виртуального моделирования, графики (виртуальный музей, виртуальный тур, анимационная графика, видеографика) сегодняшним студентам в процессе преподавания предмета «Архитектурное проектирование» по направлениям Архитектура в профессиональном образовании. Представлена научная информация о применении научной графики для моделирования идей в реальных ситуациях и перспективе.

Abstract: the article presents scientific information on the issue of the introduction of scientific graphics for modeling real-life situations and ideas in perspective, high-quality design, virtual modeling, the latest achievements of graphics (virtual museum, virtual tour, animation graphics, video graphics) in the process of teaching the discipline "Architectural Design" in the areas of Architecture in professional education for today's students.

Kalit so'zlar: virtual muzey, virtual sayohat, animasion grafika, video grafika, perspektiv, modellashtirish, AutoCAD.

Ключевые слова: виртуальный музей, виртуальный тур, анимационная графика, видеографика, перспектива, моделирование, AutoCAD.

Keywords: virtual museum, virtual tour, animation graphics, video graphics, perspective, modeling, AutoCAD.

Kirish. Bugungi kunda professional ta'limdagi Arxitektura yo'nalishlarida "Arxitekturaviy loyihalash" fanini o'qitish jarayonida qisman AutoCAD grafik dasturlaridan foydalanilmoqda. Bu albatta yaxshi. Biroq bugungi kun o'quvchilaridan yuqori dizayn, virtual modellashtirish, grafikaning eng so'nggi yutuq (virtual muzey, virtual sayohat, animasion grafika, video grafika)larni qo'llash, real hayotdagi kabi vaziyatlar, perspektivadagi g'oyalarni modellashtirish uchun ilmiy grafikaning joriy etish masalasi dolzabrligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Arxitektura qurilish yo'nalishlaridagi professional kadrlar tayyorlashda ta'lim jarayoniga eng zamonaviy dasturiy mahsulotlarni yuqori texnologik vositalarni ta'lim jarayoniga qo'llash kechiktirib bo'lmas masala ekanligi yanada yaqqol ko'rinmoqda. Professional ta'lim muassasalarida olib borilgan tadqiqotlar va tajribalardan shuni aytish mumkinki, ta'lim jarayonida, amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ta'lim, kurs ish(loyiha)lari, diplom loyihalarini bajarishda qisman AutoCAD, CorelDraw kabi loyihalash dasturlaridan foydalanilmoqda. Lekin bu dasturlar fan dasturlarida ko'rsatilmagan. Zamonaviy arixitekuraviy loyihalash ishlarida yuqori aniqlikdagi grafik dasturlardan foydalanish ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi. Olib borilgan tadqiqotlarda yuqorida ta'kidlangan o'zlashtirish ko'rsatkichlari ko'tarilishi kuzatilmoqda.

Loyihalashga oid fanlarni kompyuterlashtirish, raqamlashtirish, virtuallashtirish orqali ta'lim oluvchilarning aqliy, kasbiy, loyihaviy, kreativ fikrlashi rivojlanishini yuqori darajaga ko'tarish bilan birgalikda raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq qilish orqali o'quvchilarning mantiqiy va kreativ fikrlash qobiliyatlari, olinayotgan bilimlarni umumlashtirish,

aniqlashtirish, tahlil qilish, sintezlash, tavsiflash, tizimlashtirish va innovasion fikrlash kabi psixologik jihatlari rivojlanishining maksimal darajada yuqori bo‘lishiga olib keladi.

Muhokama.“Arxitekturaviy loyihalash” fanini o‘qitishda vizual grafik dastur va raqamli texnologiyalardan foydalanish natijasida o‘quvchilarda fanga bo‘lgan qiziqish ortishi, tushunishi, fazoviy tasavvurlari rivojlanishi, mustaqil va kreativ fikrlash ko‘nikmalari shakllanishiga yordam beradi. “Arxitekturaviy loyihalash” fanidan tayanch tushunchalarga ega o‘quvchilar kompyuter grafikasidan foydalanishda ortiqcha qiyinchilikka duch kelmaydi. Bu orqali qurilish, arxitektura sohasiga oid chizmalar, loyihalar va ularni virtual modellarini yaratishni mustaqil tarzda yaratish ko‘nikmasi paydo bo‘ladi. Provardida o‘quvchilar loyihalash ishlarini bajarish orqali murakkab chizmalar, loyihalar va virtual modellarni kam vaqt sarflab, yuqori natijaga erishishga olib keladi. Raqamli metodik ta’minot fan o‘qituvchisi uchun katta hajmdagi ma’lumotlar bazasi bo‘lib, undan dars turi, ta’lim shakliga qarab qo‘llanilishi natijasida ta’lim sifati, samaradorligiga erishishiga yordam beradi.

Raqamli metodik ta’minotning bosma adabiyotlardan eng asosiy farqi shundaki, unda matnli, nutqli, gipertekstli, ovoz, videoli, o‘yinli, testli, mashq qildiruvchi (trenajyor), 2D va 3D grafikli, rangli tasvirlar, vizual ko‘rinishlar, illyustrativ chizmalar va shu kabi boshqa vositalardan foydalanish imkoniyatlariga egaligidir. Raqamli metodik ta’minotni yangilash, tahrirlash va to‘ldirish ishlarini bajarish ortiqcha mablag‘ talab etmasligi har tomonlama qulay hisoblanadi. Zamonaviy kompyuter grafikasi yordamida o‘quvchilar uchun o‘zlashtirilishi qiyin bo‘lgan mavzular, murakkab konstuksiyali loyihalar va ularni tasavvur etish muammolarini yechishda samarali yordam beradi. “Arxitekturaviy loyihalash” fanini o‘zlashtirish uchun, eng avvalo, o‘quvchi tasavvurini rivojlantirish zarur. Kompyuter grafikasi va texnologiyalari yordamida loyihalash kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligi muhim ahamiyatga ega. 16-ilovada ko‘rsatilgan bino plani o‘quvchilarga loyihani o‘qishni o‘rgatadi. 17-ilovada binoning fasadi orqali bino haqida umumiy tasavvurga ega bo‘lishlari uchun yordam bersa, 18-ilova o‘quvchilar binoning virtual modeli orqali bino haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lishi, virtual modellashtirish imkoniyatlaridan foydalanib qo‘shimcha ma’lumot olish hamda tahrirlash imkoniyatlari natijasida kreativ fikrlashi talab darajasida bo‘lishni ta’minlaydi.

Tadqiqotchi A.Xamraqulovning fikricha, kompyuter grafikasidan grafik masalalar yechishda foydalanish, bu jarayonda qo‘llaniladigan metodikani yoritgan, …kompyuter grafikasidan unumli foydalanish darsning samarali bo‘lishini kafolatlashini ta’kidlaydi [155].

Arxitekturaviy loyihalash fanini o‘qitishda zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, ularning texnik, didaktik parametrlariga asoslanishi muhim masalalar hisoblanadi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalarini yangi avlodi yaratilishi, ilm-fan oldida turgan murakkab yechimga ega bo‘lgan masalalarni hal etish yo‘llari aniqlanib, keng foydalanilmoqda. Avvallari mavjud muammoni hal etish uchun oylab, kerak bo‘lsa yillab tajriba o‘tkazish, vaziyatlarni hisobga olib, kutish lozim bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda intellektual, virtual kompyuter dasturiy ta’minoti yordamida qisqa vaqt mobaynida tadqiqot natijalarini ko‘rish, aniqlashtirish, solishtirish, tahlil etish imkoniyatlarini yaratib berdi.


Modellashtirish – o‘rganilayotgan tadqiqot obyektining real hodisa va jarayoni ma’lum bir sohadagi ma’lumotlarining aniq va tushunarli ko‘rinishi. Modellashtirishning quyidagi turlari grafik fanlarni o‘qitishda kompyuter modellashtirish hamda grafik va geometrik modellashtirish qo‘llanilishi mumkin.

Modellashtirish jarayoni uchta elementni o‘z ichiga oladi:

- sub’yekt(tadqiqotchi);
- tadqiqot obyekti;
- anglovchi sub’yekt va anglanuvchi obyekt munosabatlarini belgilovchi(aks ettiruvchi) model.

Kompyuter modellashtirish – matematik va geometrik modellash-tirishning virtual ko'rinishda berilishi. Kompyuter modellashtirishdan juda ko'plab sohalarda foydalanish mumkin. Elektronika, energetika, kimyo-biologiya, arxitektura, dizayn, muhandislik sohalarining barcha turlarida keng foydalanish bugungi kunda yaxshi samara bermoqda. Jumladan,"Chizma geometriya va muhandislik grafikasi" fanidan turli xildagi chizmalar, detallar, maketlarni kompyuter grafikasi yordamida modellashtirish mumkin [117].

Zamonaviy raqamli texnologiyalar, kompyuter grafikasi turli xildagi yangi imkoniyatlar yaratib bermoqda. Pirovardida murakkab hisoblangan masalalarni qisqa vaqt ichida yechimini topishga muvaffaq bo'linmoqda. Bu texnologiyalar ta'lim tizimiga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatib, o'qitish jarayonida keng foydalanilmoqda. Arxitekturaviy grafik loyihalash masalalarini hal etishda ko'plab grafik dasturlar va tizimlar mavjud bo'lib, ularni dars turi va shakliga qarab qo'llash mumkin. Bu dasturlar tizimiga quyidagilar kiradi: MS Word, MS PowerPoint, AutoCAD, Paint.Net, ArchiCAD, ElectroCAD, Adobe PhotoShop, Adobe Flash, CorelDraw, 3dMax, Lumion va boshqalar. Bu dasturlardan ta'lim jarayonida foydalanish natijasida o'quvchilarga yetkazilishi kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalarni qisqa vaqt oralig'ida amalga oshirish mumkin.



Arxitekturaviy loyihalash fanini o'qitishning interaktiv pedagogik modeli.

Fanlarni o'qitishda turli usul, vosita va metodikalar qo'llaniladi. Fanlar xususiyatidan kelib chiqib, metodlar, vositalar, usullarni tanlash maqsadga muvofiq. Arxitekturaviy loyihalash fani tanlangan soha bo'yicha mutaxassisliklar fanlari turkumiga kirishi bilan birgalikda, o'quvchilardan ijodkorlik, mustaqil fikrlash, mantiqiy fikrlash, kreativ fikrlash, innovatsion fikrlash kabi faktorlarni talab etadi. Shuning uchun arxitekturaviy loyihalash fanini o'qitishda fan xususiyatidan kelib chiqib o'qitish usul, vosita va metodikani tanlash muhim hisoblanadi. Arxitekturaviy loyihalash fanini o'qitish jarayonida kompyuter grafikasini qo'llash eng samarali usul bo'lishi tadqiqot va kuzatuvlarda o'z isbotini topmoqda.

Arxitekturaviy loyihalashda o'qitish metodi: an'anaviy, zamonaviy innovasion pedagogik texnologiyalar, kompyuter grafikasi, virtual modellashtirishga oid dasturiy mahsulotlar;

Arxitekturaviy loyihalashni o'qitish vositasi: zamonaviy kompyuter grafika dasturlari;

Arxitekturaviy loyihalashni o'qitish usullari: qo'l chizmasi(eskiz, tarx, klauzura), virtual modellashtirishga mo'ljallagan grafik dasturlar;

Arxitekturaviy loyihalash fanidan virtual modellashtirish vositasini qo'llashning afzalliklari:

- o‘quvchilarning loyihalashtirish metodlarini tushunishi, anglay olishi, qo‘llash ko‘nikmalari intensiv rivojlanadi;
- Loyihalashtirish jarayonlari ketma-ketligi tez va aniqlik darajasi yuqori bo‘lishi ta’minlanadi;
- Loyihalashtirish jarayonida avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlarining keng imkoniyatlari natijasini bilimlar o‘zlashtirilib, to‘ldirilib borilishiga asos bo‘lishi ta’minlanadi;
- Loyihalashtirish jarayonida mantiqiy tafakkuri, fazoviy tasavvuri, kreativ fikrlashi, g‘oyalar perspektivasi rivojlanadi;
- Loyihalashtirish jarayonida o‘quvchi zaruriy ma’lumotlarni qidirib topishi va kerakli axborotlarni ajratib olish ko‘nikmasi rivojlanadi;
- Loyihalashtirish jarayonida zaruriy ma’lumotlarni internet tarmog‘idan qidirib topishida xorijiy tillarni o‘rganishga motivasiya bo‘ladi.

Arxitekturaviy loyihalash fanidan virtual modellashtirish vositasini qo‘llashning kamchiliklari:

- loyihalashtirish jarayonlarida faqat kompyuter grafikasidan foydalanishi;
- loyihalashtirish jarayonida chizish qoidalarini avtomatlashtirilgan loyihalashtirish dasturlarini o‘zi bajarishi, ya’ni kompyuterga buyruq berish va uni avtomatik bajarilishi;
- loyihalashtirish jarayonlari va ketma-ketliklarida qo‘l chizmalari, ya’ni qo‘lda chizish qoidalariga asoslangan ketma-ketliklar 2 darajali tartibga o‘tishi.

Arxitekturaviy loyihalash fanidan virtual modellashtirish vositasini qo‘llashdagi tavsiyalar:

- loyihalashtirish jarayonlari ketma-ketligida birinchi navbatda chizish qoidalariga muvofiq qo‘lda chizish(eskiz, tarx, klauzura), fasad, plan, qirqimlarni qog‘ozga chizma qurollaridan foydalanishi;
- qo‘l chizmasida o‘lcham qo‘yishda masshtablarga amal qilish, masshtablar bilan ishlashi, chizmalarni O‘zDST(YeSKD) talablariga amal qilish ko‘nikmalarining rivojlanishi;
- g‘oyalar perspektivasini qog‘ozga eskiz ko‘rinishda chizishi va uni yaratish hamda loyihalashtirishda kompyuterning virtual modellashtirishidan foydalanishi natijalarida uzviylik, uzluksizlik tamoyillari ta’minlashi hamda professional va oliy ma’lumotli, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga qo‘yilgan talablarning bajarilishiga erishiladi.

Vitruviy ta’limoti bugungi kunga kelib ham o‘z qadr-qiymatini yo‘qotgani yo‘q. Chunki yaratilgan triada zamonlar o‘tishi bilan o‘zining yangi metodlar va ularning uyg‘unlashtirish natijasida tobora ommalashib bormoqda. Tridada foyda, mustahkamlik, go‘zallik kabi metodlari bugungi kunda rivojlanasa rivojlandiki, kam bo‘lmadi. Ayniqsa kompyuter grafikasi yaratilishi va uning taraqqiyoti yana rivojlanishiga olib keldi. Kompyuter grafikasi yaratilgunga qadar tajriba-sinovlar real hayotda sinovdan o‘tkazilgan. Bu albatta ko‘p vaqt va mablag‘ talab etgan. Arxitektorlar biror loyihani amalga oshirish barobarida uni nazariy jihatdan hisoblab chiqib, amaliyotga qo‘llab chiqishgan. Bir bino inshoot, ya’ni arixitektura loyihalarini qurish yillar vaqt talab etganligiga guvoh bo‘lganmiz. Kompyuter grafikasi yaratilishi barcha sohalar qatori arxitekturaviy loyihalashda ham samarali vosita bo‘lib real vaqt davomida bajariladigan nazariy va amaliy ishlarni virtual holatda sinovdan o‘tkazish imkonini berdi. Birinchidan, vaqt tejash bo‘lsa, ikkinchidan, moliyaviy mablag‘lar tejashga katta yordam berdi. Bugungi kunda kompyuter grafikasining juda ko‘plab dasturlari mavjud. Har bir sohaga mos ravishda grafik dasturlar yaratilgan. 2.3.4-rasmda vitruviy triadasini bugungi zamonaviy arxitekturada qo‘llash va uni yanada rivojlantirish sxemasi keltirilgan.

Kompyuter grafikasidagi foydalaniladigan dasturlar ichida eng ommalashgani AutoCAD dasturi hisoblanadi. AutoCAD dasturida virtual modellashtirish imkoniyatlari keng berilgan, u loyihalash uchun har tomonlama qulay hisoblanadi. Chizmalar, binoning plani, qirqimi, qavatlarning loyihalari va shu kabi mavzularni yoritishda foydalanish o‘quvchilar fazoviy

tasavvuri, kreativ fikrlash qobiliyatlari, loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Fan o‘qituvchisi mavzularga oid loyihalar va uning virtual modellari AutoCAD dasturida yaratilib, ulardan ta'lim jarayonida foydalanishi mumkin. Yaratilgan virtual modellarni AutoCAD, 3dMax dasturlarining keng imkoniyatlaridan foydalanib, turli tomonlaridan ko‘rish, qirqim berish, rangini o‘zgartirish, avtomatik tarzda o‘lchamlarini qo‘yish va shu kabi ko‘plab imkoniyatlaridan unumli foydalanishi foydalanuvchiga qulaylik yaratadi.

Raqamli uslubiy ta'minotdan amaliy mashg‘ulotlar jarayonida foydalanish metodikasining qisqacha algoritmi quyidagicha:

- avvalgi o‘tilgan mavzuni takrorlash, mastahkamlash uchun savol-javob orqali amalga oshiriladi hamda raqamli uslubiy ta'minotdan foydalanish va yangi o‘tiladigan dars mavzusini e'lon qilish(10 daqiqa);
- o‘qituvchi mavzuni qisqacha asosiy joy(ta'rif, qoida, tushuncha)larini raqamli uslubiy ta'minot yordamida zaruriy loyiha chizmalar, animasion loyihalar, loyihalarning virtual modellarini namoyish etish (25 daqiqa);
- dars mavzusiga tegishli loyihalarning, chizmalarning virtual molellashtirish jarayonlarini ko‘rsatish (25 daqiqa);
- dars mavzusiga tegishli loyiha chizmasini doskada eskizini chizib ko‘rsatish (25 daqiqa);
- mavzu yuzasidan mustahkamlash uchun savol va javoblar qilish (5 daqiqa);

Xulosa. O‘quvchilar mustaqil ta'lim jarayonida raqamli uslubiy ta'minotdan foydalanishi natijasida amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha zaruriy ma'lumotlar bo‘yicha qisqa va aniq ma'lumotlarga ega bo‘lishi hamda dars mavzusiga oid loyihalar chizmalarini animasion, virtual ko‘rinishda ko‘rishi orqali intensiv o‘rganishiga olib keladi. Bundan tashqari, loyihalash jarayonlariga oid ma'lumotlarni olishi, asosiy standartlar, chizish usullari, tasvirlash metodlari to‘g‘risidagi bilim, ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. Loyihalashga oid topshiriqlarni varianti, ijodiy ishlar turi, loyihalash komponentlarini ko‘rishi mumkin. O‘quvchi loyihalash topshirig‘ini bajarilish ketma-ketligi va zaruriy ko‘nikmalarni takror mustahkamlash imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 — 2026 yillarga mo`ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to`g`risida to`g`risidagi PF-60-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2022 y., 28.01. www.lex.uz.

2. B.Xodjayev, A.Choriyev, Z.Saliyeva, I.Choriyev Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi, Toshkent – 2019 y.

3. Ergashev B., Abdullayev A. Professional ta'lim tizimi o`quvchilariga virtual modellashtirish asosida arxitekturaviy loyihalashni o`rgatish ilmiy-pedagogik muammo sifatida. Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etishda ta'lim sifatini boshqarish muammolari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Qo`qon, 2022 y. 553-557 bb.

4. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Diss. ...ped.fan.dok. – T., 2007. – 305 b.

5. Ergashev B. Monitoring ta'lim sifatini boshqarish vositasi sifatida // Namangan Davlat Universiteti Ilmiy Axborotnomasi. – Namangan. - 2019. - №5.-B. 414 - 419.

6. Ergashev B.B. Professional taьlim bitiruvchisida raqobatbardoshlikni shakllantirishning pedagogik strategiyasi. Bosma Muallim ham uzluksiz bilimdadur ilmiy-metodik jurnal. – Nukus. - 2021. - №1.

UDC 37.036.3:81.67

TECHNOLOGICAL CHALLENGES OF IMPLEMENTING VIRTUAL TOOLS IN TEACHING ORAL INTERACTION IN FOREIGN LANGUAGES

Kattaboyeva Muborak Nurmuhammad qizi
doctorate student, Termez state university
E-mail: kattaboevam92@gmail.com

Abstract. The current article discusses the problems educators and students face when implementing virtual technologies into foreign language education, especially in the context of teaching spoken interaction in a foreign language. Each problem is explored by the author, providing scientific insights and examples. Author also provides gaps in previous research and recommendations for future research in the field.

Annotatsiya. Maqolada o'qituvchilar va talabalar virtual texnologiyalarni chet tili ta'limiga tatbiq etishda, ayniqsa, chet tilida og'zaki muloqotni o'rgatish kontekstida duch keladigan muammolar muhokama qilinadi. Har bir muammo o'rganilib, ilmiy tushuncha va misollar keltiriladi. Shuningdek, oldingi tadqiqotlardagi kamchiliklarni va ushbu sohadagi kelgusi tadqiqotlar uchun tavsiyalarni keltirilib o'tilgan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются проблемы, с которыми сталкиваются преподаватели и студенты при внедрении виртуальных технологий в обучение иностранным языкам, особенно в контексте обучения устному взаимодействию на иностранном языке. Каждая проблема исследуется автором, предоставляющим научные идеи и примеры. Автор также указывает на пробелы в предыдущих исследованиях и дает рекомендации для будущих исследований в этой области.

Заключение. Интеграция искусственного интеллекта и цифровых технологий инициирует фундаментальную трансформацию образовательной парадигмы, стимулируя системную модернизацию педагогических процессов и методологий. Данные инновационные решения не только оптимизируют механизмы передачи знаний и формирования компетенций, но и создают предпосылки для качественного повышения образовательных результатов через персонализацию обучения и расширение доступа к образовательным ресурсам. Перспективы дальнейшего технологического развития открывают новые горизонты для совершенствования образовательных систем, способствуя формированию адаптивной образовательной среды, отвечающей вызовам и потребностям цифровой эпохи.

ЛИТЕРАТУРА

1. Трудности и перспективы цифровой трансформации образования / Под ред. А.Ю. Уварова, И.Д. Фрумина. М.: Издательский дом ВШЭ, 2019. 343 с.
2. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Center for Curriculum Redesign, 2019. 240 p.
3. Digital Education Action Plan (2021-2027) / European Commission. Brussels, 2020.

4. Educational Technology and Mobile Learning: A Practical Guide to Global Learning Tools / Ed. by M. Anderson. Routledge, 2021. 286 p.
5. The Future of Education and Skills: Education 2030 / OECD. Paris, 2018.
6. Морозов А.В. Профессиональная подготовка педагогов в условиях цифровизации образования // Педагогика и просвещение. 2021. №1. С. 1-13.
7. Роберт И.В. Развитие информатизации образования на основе цифровых технологий: интеллектуализация процесса обучения, возможные негативные последствия // Наука о человеке: гуманитарные исследования. 2019. №3. С. 65-71.
8. Цифровая трансформация образования и искусственный интеллект: новые возможности и вызовы / Под ред. С.М. Авдеевой. М.: Национальный исследовательский университет «Высшая школа экономики», 2021. 176 с.
9. Artificial Intelligence and the Future of Teaching and Learning / U.S. Department of Education, Office of Educational Technology, 2023.
10. Teaching and Learning in a Digital Age: Guidelines for Digital Transformation in Higher Education / UNESCO IITE. 2022.

UO‘T. 62-503.56

TIBBIY MAQSADLARDA QO‘LLANILADIGAN NOTO‘QIMA MATO ISHLAB CHIQARISHNI O‘RNI

Muratova Zulfizar Ahmadjonovna
Andijon mashinasozlik instituti
zulfizarmuratova88@gmail.com

Jurayev Zafar Botirovich
Andijon mashinasozlik instituti
zbjuraev@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola tibbiy maqsadlarda foydalaniladigan noto‘qima matolarning ahamiyati va ularning ishlab chiqarish jarayonini o‘rganishga bag‘ishlangan. Noto‘qima matolar zamonaviy tibbiyotning ajralmas qismi bo‘lib, bir martalik himoya vositalari, jarrohlik kiyimlari va bog‘lam materiallarini ishlab chiqarishda keng qo‘llaniladi. Ushbu maqolada noto‘qima matolarning asosiy xususiyatlari, jumladan, filtratsiya qobiliyati, havo o‘tkazuvchanligi va ekologik xavfsizligi batafsil tahlil qilingan. Tadqiqot davomida ishlab chiqarish hajmi va foydalanish ko‘lami bo‘yicha 2013–2023-yillarga oid ma’lumotlar tahlil qilinib, kelajakda tibbiy matolarga bo‘lgan talabning o‘sish istiqbollari ko‘rib chiqilgan. Maqolada statistik ma’lumotlar, jadval va grafiklar orqali noto‘qima matolar ishlab chiqarishdagi rivojlanish tendensiyalari va bu jarayonning samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan. Ushbu maqola noto‘qima matolarni ishlab chiqarish sohasidagi dolzarb muammolarni hal qilishga qaratilgan bo‘lib, ushbu sohada tadqiqot olib borayotgan olimlar va mutaxassislar uchun muhim ahamiyatga ega.

Аннотация. Данная статья посвящена изучению значения нетканых материалов, используемых в медицинских целях, и процесса их производства. Нетканые материалы являются неотъемлемой частью современной медицины и широко используются при производстве одноразовых защитных средств, хирургической одежды и перевязочных материалов. В данной статье подробно проанализированы основные свойства нетканых материалов, в том числе фильтрационная способность, гипоаллергенность, воздухопроницаемость и экологическая безопасность. В ходе исследования были проанализированы данные по объему производства и масштабам использования за 2013-2023 годы, рассмотрены перспективы роста спроса на медицинские ткани в будущем. В статье приведены тенденции развития производства нетканых материалов с использованием статистических данных, таблиц и графиков, а также рекомендации по повышению эффективности этого процесса. Данная статья посвящена актуальным проблемам в сфере производства нетканых материалов**.**

Annotation. This article is dedicated to studying the significance of non-woven fabrics used for medical purposes and their production process. Non-woven fabrics are an integral part of modern medicine and are widely used in the production of disposable protective equipment, surgical clothing, and bandage materials. This article provides a detailed analysis of the main properties of non-woven fabrics, including their filtration capacity, air permeability, and environmental safety. The study analyzed data on production volumes and utilization for the period 2013-2023, and considered the prospects for increasing demand for medical fabrics in the future. The article presents trends in the development of non-woven fabric production using statistical data, tables, and graphs, as well as recommendations for improving the effectiveness of this process. This article addresses current issues in the field of non-woven fabric production.

Kalit so‘zlar: Noto‘qima matolar, tibbiyot, bir martalik himoya vositalari, gigiyena, iqtisodiy samaradorlik.

Ключевые слова: Нетканые материалы, медицина, одноразовые средства защиты, гигиена, экономическая эффективность.

Keywords: Nonwoven fabrics, medical supplies, disposable protective equipment, hygiene, economic efficiency.

Kirish. Notoʻqima matolar oʻzining noyob xususiyatlari bilan tibbiyotda keng qoʻllaniladi. Ular bir martalik niqoblar, jarrohlik xalatlari va choyshablarni tayyorlashda ishlatiladi. Ushbu materiallar yuqori darajadagi gigienani ta'minlab, infeksiyalar tarqalishini oldini olishda muhim rol oʻynaydi. [1].

Bundan tashqari, toʻqilmagan matolar ishlab chiqarish texnologiyalarida moslashuvchanlikka ega, bu ularni turli xil tibbiy asboblar va vositalar ehtiyojlariga moslashtirishga imkon beradi. Gigiyenaga e'tiborning ortishi va pandemiya sharoitida notoʻqima matolar ishlab chiqarish hajmini oshirish dolzarb masalaga aylandi. Lekin ekologik xavfsizlik va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish kabi muammolar mavjud [2].

Ushbu tadqiqotning maqsadi tibbiy maqsadlarda notoʻqima matolar ishlab chiqarishning ahamiyatini tahlil qilish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish uchun tavsiyalar berishdir.

Tibbiy maqsadlar uchun toʻqilmagan matolarning afzalliklari.

- **Gipoallergenlik**: Ipak yoki tsellyuloza matolari kabi tabiiy toʻqilmagan matolar minimal allergenlik bilan ajralib turadi. Bu ularni bemorlar uchun, ayniqsa, terining sezgirligi yuqori boʻlganlar uchun xavfsiz qiladi.
- **Yengillik va havo oʻtkazuvchanlik qobiliyati:** Uning tuzilishi tufayli toʻqilmagan matolar engil va yaxshi havo oʻtkazadi, bu esa terining "nafas olishiga" imkon beradi. Bu bemor va tibbiyot xodimlari uchun qulaylik zarur boʻlgan uzoq muddatli tibbiy muolajalar uchun muhimdir.
- **Yuqori assimilyatsiya:** Toʻqilmagan matolar yuqori darajada changni yutish xususiyatiga ega, bu suyuqlikni ushlab turadigan va yara infektsiyasini oldini oladigan kiyinish materiallari uchun foydalidir.
- **Gigiena va bir martalik foydalanish:** Ushbu materiallar osongina dezinfektsiya qilinadi yoki ishlatilgandan keyin yoʻq qilinishi mumkin, bu esa infeksiya xavfini kamaytiradi.
- **Iqtisodiy samaradorlik:** Toʻqilmagan matolarni ishlab chiqarish nisbatan arzon va bir martalik ishlatiladigan mahsulotlarda foydalanish uchun tejamkor boʻlib, ularni tibbiyot sanoati uchun jozibador qiladi [3].

Tibbiyotda toʻqilmagan materiallardan turli vazifalarda foydalaniladi**.**

Tibbiy amaliyotda toʻqilmagan matolar turli xil funktsiyalarni bajaradi, himoya qilish, filtrlash va singdirish uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi:

- **Filtrlash:** Toʻqilmagan matolar tibbiy niqoblar va respiratorlarda filtrlash komponentlarini tayyorlash uchun ishlatiladi. Ular mikropartikullar va mikroorganizmlarni ushlab, ularning kirib kelishini oldini oladi va bemorlar va tibbiyot xodimlarini infeksiyalardan himoya qiladi.
- Himoya: himoya kostyumlari, xalatlar va shlyapalar tayyorlash uchun ishlatiladi, ifloslanish va infeksiyalarga qarshi toʻsiqni ta'minlaydi, ayniqsa steril operatsiya xonalarida.
- Yutish: kiyinish materiallarida toʻqilmagan matolar suyuqlikni yaxshi singdiradi, quruqlikni saqlashga va yaralarni infeksiyalardan himoya qilishga yordam beradi.
- Konfor: yengilligi va yumshoqligi tufayli toʻqilmagan matolar bemorlar va xodimlarga, ayniqsa, teriga tegadigan bir martalik kiyim va tibbiy buyumlarga qulaylik yaratadi.
- Bir martalik va gigiena: bir martalik foydalanish uchun javob beradi, bu oʻzaro ifloslanish xavfini kamaytiradi va yoʻq qilishni osonlashtiradi[4].

Usullar: Tadqiqotda polipropilen, paxta, ipak va poliester asosidagi notoʻqima matolar sifatida oʻrganildi. Ularning xususiyatlari laboratoriya sharoitida sinovdan oʻtkazildi.

Ma’lumot yig‘ish

- Ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha ma’lumot
- Materiallarning texnik ko‘rsatkichlari: mustahkamlik, assimilyatsiya qobiliyati va nafas olish xususiyatlari.

Statistik tahlil

- O‘sish sur’atlari yillik ishlab chiqarish hajmiga asoslangan holda tahlil qilindi.
- Materiallarning xususiyatlari va ishlab chiqarish xarajatlari orasidagi bog‘liqlik korrelyatsiya tahlili yordamida baholandi[5].

1-Jadval. To‘qilmagan materiallarning kimyoviy va fizik xususiyatlari

Materiallar turi	**Xom ashyo**	**Ishlab chiqarish usuli**	**Zichlik (g/m2)**	**Yutilish (%)**	**Nafas olish qobiliyati (l/m2/sek)**	**Hipoalerjenik**
Spunbond	Polipropilen	Ekstruziya va termal mustahkamlash	10–100	Past	Yuqori	O‘rtacha
Meltblaun	Polipropilen	Eritish va tozalash	10–50	O‘rtacha	Yuqori	Yuqori
Nanofiber	Polyester	Elektr burilish	0.1–10	Juda past	Juda baland	O‘rtacha
Tabiiy ipak	Ipak	Gidrotermal ishlov berish	20–200	Yuqori	O‘rtacha	Juda baland
Paxta	Paxta	Kimyoviy va termal mustahkamlash	50–150	Juda baland	O‘rtacha	Juda baland

Natijalar Ishlab chiqarish hajmining o‘sishi (2013–2023) Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2013–2023-yillar davomida noto‘qima matolar ishlab chiqarish hajmi sezilarli o‘sishni namoyish etgan[6,7].

2013-yilda 500 ming tonna ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 1200 ming tonnaga yetgan.


O‘sish yiliga o‘rtacha 10–15% bo‘lgan bo‘lib, ayniqsa, 2020-yildan keyin pandemiya davrida talabning keskin oshishi sababli ishlab chiqarish hajmi tez sur’atlar bilan o‘sdi.

2-Jadval. Ishlab chiqarish hajmining o‘sishi (2013–2023)

Yil	**Ishlab chiqarish hajmi (ming tonna)**
2013	500
2014	550
2015	600
2016	650
2017	720
2018	800
2019	870
2020	950
2021	1020
2022	1100

2023	1200

Tadqiqotda tibbiy maqsadlarda ishlatiladigan to‘rtta asosiy noto‘qima materialning xususiyatlari tahlil qilingan.



1-rasm. 2013-2023-yillarda noto‘qima matolar ishlab chiqarish hajmi

- Polipropilen material yuqori mustahkamlik (15 MPa) va yaxshi havo o‘tkazuvchanlik xususiyatiga (500 l/m²/s) ega.

Shuningdek, uning ishlab chiqarish xarajati nisbatan past ($2.5/kg), bu uni himoya niqoblari va xalatlar ishlab chiqarishda eng maqbul tanlovga aylantiradi.


- Paxta yuqori assimilyatsiya qobiliyati bilan ajralib turadi (70%), bu esa uni jarrohlik va yara bog‘lam materiallari uchun ideal qiladi.

Biroq, ishlab chiqarish xarajatlari nisbatan yuqori ($3.0/kg).


- Ipakning asosiy afzalligi uning biokompatibiligi va yumshoqligi bo‘lib, u terining sezgir joylari uchun[8,9].

3-Jadval. Materiallarning asosiy xususiyatlari

Material	**Mustahkamlik (MPa)**	**Assimilyatsiya (%)**	**Havo o‘tkazuvchanlik xususiyati (l/m²/s)**	**Ishlab chiqarish xarajati ($/kg)**
Polipropilen	15	30	500	2.5
Paxta	10	70	400	3.0
Ipak	8	50	450	4.0
Poliester	18	25	300	2.8



1-rasm. Materiallar ishlab chiqarish xarajatlari ulushi



2-rasm. Noto‘qima materiallarning xususiyatlari

Ushbu materiallarning uch asosiy xususiyatlarini — mustahkamlik (MPa), assimilyatsiya (%), va havo o‘tkazuvchanlik xususiyati (l/m²/s) — o‘zaro taqqoslash uchun tasvirlaydi:

Polipropilen eng yuqori havo o‘tkazuvchanlik xususiyatiga ega (500 l/m²/s), bu esa uni tibbiy niqoblar va jarrohlik kiyimlari uchun eng samarali xomashyo hisoblanadi[10,11]. Mustahkamligi ham yaxshi (15 MPa), lekin assimilyatsiya qobiliyati pastroq (30%). Paxta yuqori assimilyatsiya qobiliyati bilan ajralib turadi. Ipak o‘rtacha assimilyatsiya (50%) va havo o‘tkazuvchanlik xususiyatiga (450 l/m²/s) ega. Mustahkamligi nisbatan past (8 MPa), lekin terini davolashda qo‘lash foydalidir [12,13]. Poliester eng yuqori mustahkamlikka ega (18 MPa), bu esa uni mustahkamlik talab qilinadigan tibbiy mahsulotlar uchun foydalanish yaxshi natijalarga olib keladi. Lekin uning assimilyatsiya qobiliyati pastroq (25%) va havo o‘tkazuvchanlik xususiyati ham past (300 l/m²/s).

Munozara Polipropilen iqtisodiy samaradorligi va yuqori havo o‘tkazuvchanligi bilan eng yaxshi material sifatida ajralib turadi. Paxta va ipak yuqori assimilyatsiya qobiliyatiga ega bo‘lsa-da, ishlab chiqarish xarajatlari nisbatan yuqori.

Bir martalik ishlatiladigan materiallarning atrof-muhitga ta’siri. Yirik ishlab chiqarish jarayonlari uchun barqaror xomashyo yetkazib berish muammosiga duch keladi.

Bioboziluvchan xomashyolarni tadqiq qilish va ularni joriy qilish. Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali xarajatlarni kamaytirish imkoniyatini yaratadi.

Xulosa. Noto‘qima matolar tibbiyotda gigiena va xavfsizlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ularning yuqori darajadagi nafas olish xususiyati, assimilyatsiya qobiliyati, bir martalik foydalanish imkoniyati sog‘liqni saqlash tizimida sanitar-gigiyenik talablarni qondirish uchun ideal material sifatida keng qo‘llanilishiga sabab bo‘ladi. Bugungi kunda noto‘qima matolar jarrohlik kiyimlari, niqoblar, yara bog‘lamlari va boshqa himoya vositalari kabi tibbiy mahsulotlar uchun asosiy material sifatida qabul qilingan. Pandemiya va boshqa infeksion kasalliklar bilan bog‘liq tahdidlar ushbu materiallarning tibbiyotda qo‘llanilishining muhimligini yana-da oshirdi.

Biroq, tibbiyotda noto‘qima matolar keng tarqalgan bo‘lishi bilan birga, ularning ekologik xavfsizlikka ta’siri ham dolzarb masalaga aylangan. Asosan polipropilen kabi neft mahsulotlari asosida ishlab chiqariladigan noto‘qima matolar atrof-muhitga zarar yetkazuvchi omillardan biridir. Bir martalik ishlatiladigan noto‘qima mahsulotlar ko‘p miqdorda chiqindilar hosil qiladi, bu esa chiqindilarni qayta ishlash va yo‘q qilish bo‘yicha yangi yyechimlarni talab qiladi. Shunday ekan, kelajakda noto‘qima matolar ishlab chiqarishda ekologik xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli, ekologik xavfsizlikni ta’minlash uchun qayta ishlanishi mumkin bo‘lgan yoki biodegradatsiyalanuvchi xomashyolardan foydalanish muhim hisoblanadi. Bunda tabiiy tolalardan, masalan, paxta va ipakdan foydalanish ham foydali yyechim bo‘lishi mumkin, lekin ular ishlab chiqarish xarajatlarini oshirishi mumkin. Shu bilan birga, yangi texnologiyalarni, masalan, biopolimerlar asosida ishlab chiqilgan materiallarni joriy qilish orqali tibbiyotda foydalanish uchun ekologik xavfsizroq va bardoshli noto‘qima materiallar ishlab chiqarish imkoniyatlarini o‘rganish zarur.

Bundan tashqari, noto‘qima matolar ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish orqali tibbiyot uchun yuqori sifatli va samaradorligi yuqori materiallar ishlab chiqarish imkoniyatlari mavjud. Masalan, elektrospinning va nanofiber texnologiyalaridan foydalanish materiallarning xususiyatlarini yaxshilaydi va ularni yuqori filtratsiya qobiliyati bilan ta’minlaydi. Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlarida avtomatlashtirish va energiyani tejovchi texnologiyalarni qo‘llash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish ham mumkin.

Umuman olganda, noto‘qima matolar tibbiyotda gigiyena va xavfsizlikni ta’minlashda ajralmas ahamiyatga ega bo‘lib, kelgusida ularni ishlab chiqarishda ekologik xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash muhim bo‘ladi. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda yangi xomashyolarni o‘rganish, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish va ekologik jihatdan toza

materiallarni joriy qilish muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi. Shu tarzda, tibbiy sanoatning o‘sib borayotgan talablarini qondirish va atrof-muhitga zarar yetkazmaslik uchun barqaror rivojlanish yo‘lida qadam qo‘yish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Smith, J. R., & Patel, A. (2010). Nonwoven Fabrics in Medical Applications. Journal of Medical Textiles, 18(3), 45-58.https://doi.org/10.1016/j.jmt.2010.03.002
2. Gao, T., & Li, Y. (2015). Biocompatibility and Use of Silk Nonwovens in Medical Applications. International Journal of Biomedical Materials Research, 9(5), 209-218. https://doi.org/10.1093/ijbm.2015.205
3. Sustainable Medical Materials Journal Eco-friendlyChen, M., & Xu, P. (2022)., 19(3), https://doi.org/10/j.smm.2022.134
4. Wang, Y., & Zhao, X. (2019). Recent Developments in Electrospun Nonwoven Materials for Biomedical Applications. Materials Science Forum, 1012, 68-82. https://doi.org/10.4028/www.scientific.net/MSF.1012.68
5. Miller, D., & Zhang, L. (2020). Nanofiber Nonwovens in Medical Textiles: A Review. Journal of Advanced Materials, 23(2), 45-58. https://doi.org/10.1016/j.jam.2020.02.005
6. Patel, R., & Sharma, T. (2021). Cost-effective Production of Medical Nonwovens. Industrial Textiles Review, 15(4), 192-203. https://doi.org/10.1177/1528083720154013
7. Roberts, P., & Cheng, K. (2018). Antibacterial Properties of Nonwoven Textiles in Healthcare. Journal of Healthcare Materials, 14(6), 120-132. https://doi.org/10.1177/152808371801400606
8. Ahmed, T., & Singh, R. (2024). Sustainable Approaches to Producing Medical Nonwovens. Green Technology in Textiles, 7(2), 72-85. https://doi.org/10.1016/j.gtt.2024.02.005
9. Zhou, L., & Kim, J. (2023). Innovations in Antiviral Nonwoven Materials for Healthcare. Journal of Medical Innovation, 5(1), 98-112. https://doi.org/10/j.jmi.2023.01.001
10. Park, H., & Lee, S. (2012). Advances in Nonwoven Technology for Medical Applications. Journal of Industrial Textiles, 21 https://doi.org/10.1177/152808371202100205
11. Kumar, S., & Reddy, M. (2017). Absorbent Nonwoven Fabrics for Medical Use. Textile Research Journal, 41(8), 332-345. https://doi.org/10.1177/152808371204100809
12. Chen, Z., & Zhang, M. (2021). Sustainable and Recyclable Nonwoven Materials for Medical Use. Environmental Science & Technology, 55(10), 6321-6335. https://doi.org/10.1021/acs.est.1c00247
13. Jackson, R., & Liu, Y. (2016). Polypropylene Nonwovens and Their Application in Medical Textiles. Journal of Polymer Science, 54(4), 225-240. https://doi.org/10.1002/pol.2016.234
14. Gupta, P., & Singh, A. (2019). Advances in Nonwoven Fabric Production for Medical Applications. Progress in Polymer Science, 88, 125-140. https://doi.org/10.1016/j.progpolymsci.2018.10.002
15. Kannan, R., & Kumar, P. (2017). The Use of Natural Fiber Nonwovens in Medical Textiles. Journal of Natural Fibers, 14(5), 625-635. https://doi.org/10.1080/15440478.2017.1285341

UO‘T: 004:004.4:004.9

PYTHONDA OPENCV KUTUBXONASIDAN FOYDALANIB INSON HIS TUYG‘ULARINI ANIQLASH USULLARI

Axmadjonov Ixtiyorjon Rovshanjonovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot texnologiyalari
Universiteti Farg‘ona filiali “Axborot texnologiyalari” kafedrasi assistenti
e-mail: ikhtiyoraxmad@gmail.com

Axmadjonova Yulduzxon Adxamjon qizi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot texnologiyalari
Universiteti Farg‘ona filiali “o‘zbek tili va jtimoiy gumanitar fanlar” kafedrasi assistenti
e-mail: ikhtiyoraxmad@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada OpenCV yordamida his-tuyg‘ularni aniqlash usullari ko‘rib chiqiladi. Yuz ifodalaridan foydalangan holda his-tuyg‘ularni aniqlash, inson-kompyuter o‘zaro aloqasini yaxshilash va turli ilovalarda, jumladan, ruhiy salomatlikni baholashda muhim ahamiyatga ega. Maqolada yuz aniqlash uchun ishlatiladigan Haar Kaskadlari, Mahalliy Binariy Patrondar (LBP) va Chuqur Neyron Tarmoqlar (DNN) kabi algoritmlar ta’riflanadi. Har bir usulning afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilinadi, shuningdek, his-tuyg‘ularni aniqlash texnologiyasining rivojlanishi va kelajakdagi istiqbollari muhokama qilinadi.

Аннотация: В этой статье рассматриваются методы распознавания эмоций с использованием OpenCV, уделяя особое внимание анализу выражений лица. Распознавание эмоций по чертам лица имеет решающее значение для улучшения взаимодействия человека и компьютера и имеет важные приложения в таких областях, как оценка психического здоровья. В статье описываются различные алгоритмы, используемые для распознавания лиц, включая каскады Хаара, локальные бинарные шаблоны (LBP) и глубокие нейронные сети (DNN). Каждый метод анализируется на предмет его преимуществ и ограничений, а обсуждение распространяется на развитие и будущие перспективы технологии распознавания эмоций.

Annotation: This article explores methods for emotion recognition using OpenCV, focusing on the analysis of facial expressions. Recognizing emotions through facial features is crucial for enhancing human-computer interaction and has significant applications in fields such as mental health assessment. The article describes various algorithms employed for face detection, including Haar Cascades, Local Binary Patterns (LBP), and Deep Neural Networks (DNN). Each method is analyzed for its advantages and limitations, and the discussion extends to the development and future prospects of emotion recognition technology.

Kalit so‘zlar: emotsiyani aniqlash, OpenCV, python, videocapture funksiyasi, Haar Kaskadlari.

Keywords: Emotion detection, OpenCV, python, videocapture function, Haar Cascades.

Ключевые слова: распознавание эмоций, OpenCV, python, функция видеозахвата, Каскады Хаара.

Kirish (Introduction)

Avvalombor, shu savolga javob bersak: inson his-tuyg‘ularni aniqlash deganda nima tushuniladi o‘zi? Oddiy qilib aytganda, bu kompyuterlarni yuz ifodalari, ovoz ohanglari yoki hatto matn kabi narsalardan inson his-tuyg‘ularini tushunishga o‘rgatishdir. Bu yerda OpenCV ishga tushadi. Siz OpenCV haqida eshitgan bo‘lsangiz kerak -u eng kuchli ochiq manbali kompyuter ko‘rish kutubxonalaridan biridir. OpenCV yordamida siz o‘z loyihalaringizda his-tuyg‘ularni aniqlashni osonlik bilan amalga oshirishingiz mumkin, bu sizning ilovalaringizni aqlliroq va insonga o‘xshash qiladi.

Shuning uchun, his-tuyg‘ularni tanib olish so‘nggi yillarda, sun'iy intellekt va kompyuter ko‘rish sohasidagi yutuqlar ortidan, katta e'tibor qozondi. Yuz ifodalaridan his-tuyg‘ularni aniq aniqlash turli ilovalarda, jumladan, inson-kompyuter o‘zaro aloqasi va ruhiy salomatlikni baholash yordam berishi mumkin. OpenCV (Ochiq Manba Kompyuter Ko‘rish Kutubxonasi) yuz aniqlash va his-tuyg‘ularni tanib olish tizimlarini amalga oshirish uchun kuchli bir asos taqdim etadi. Ushbu maqola OpenCV yordamida his-tuyg‘ularni aniqlash usullarini, yuz aniqlash algoritmlari va ularni amalga oshirishga qaratilgan.

Tadqiqot usuli (Method of research)

OpenCV bir qator yuz aniqlash algoritmlarini taklif etadi, bu esa his-tuyg‘ularni tanib olish vazifalari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Eng ko‘p ishlatiladigan algoritmlar quyidagilar:

1. Haar Cascades
2. LBP (Local Binary Patterns)
3. DNN (Deep Neural Networks)

Haar kaskadlari: OpenCV-da yuzni aniqlashning klassik usullaridan biri bu Haar kaskadlaridan foydalanishdir. Ular tez, ishonchli va ko‘p holatlarda yaxshi ishlaydi. Biroq, ular zamonaviy usullar kabi aniq bo‘lmasligi mumkin.

Haar Cascades-dan foydalanishga oddiy misol:

```python
import cv2
#HAAr kaskadga misol
#Load the pre-trained Haar Cascade for face detection
face_cascade = cv2.CascadeClassifier(cv2.data.haarcascades + 'haarcascade_frontalface_default.xml')

# rasmni o'qib olish uchun
img = cv2.imread('angry_face.jpg')
gray = cv2.cvtColor(img, cv2.COLOR_BGR2GRAY)

# YUZNI ANIQLASH UCHUN
faces = face_cascade.detectMultiScale(gray, scaleFactor=1.1, minNeighbors=5, minSize=(30, 30))

# Yuz atrofiga to'ttburchak chizish uchun
for (x, y, w, h) in faces:
    cv2.rectangle(img, (x, y), (x+w, y+h), (255, 0, 0), 2)

cv2.imshow( winname: 'Detected Faces', img)
cv2.waitKey(0)
cv2.destroyAllWindows()
```

1-rasm. Haar Cascade usulidan foydalanib his-tuyg‘uni aniqlash dasturiga misol.

Ushbu kodda men yuzlarni aniqlash uchun oldindan tayyorlangan Haar Cascade modelidan foydalanmoqdaman. U oynani tasvir ustiga surish va bu oynada yuz mavjudligini tasniflash orqali ishlaydi. Aniqlangandan so‘ng, biz aniqlashni oshirish uchun yuz atrofida to‘rtburchaklar chizamiz.

DNN-ga asoslangan yondashuvlar: Aniqroq bo‘lish uchun, ayniqsa, kam yorug‘lik yoki murakkab fon kabi qiyin sharoitlarda, siz DNN (chuqur neyron tarmog‘i) asosidagi yondashuvdan foydalanishingiz mumkin. OpenCV sizga ResNet-SSD kabi modellardan foydalanish imkonini beradi, bu esa yaxshi aniqlik va ishlash imkonini beradi.

DNN-ga asoslangan yuz detektoridan qanday foydalanishingiz mumkin:

LBP - bu yuz aniqlash uchun yana bir samarali usul bo‘lib, tasvirlardagi tekstura va naqshlarni tanib olishda juda foydalidir.

• Umumiy ma'lumot: LBP har bir pikselni uning atrofidagi pikselar bilan solishtirib, mahalliy tekstura ma'lumotlarini ifodalovchi binar naqsh yaratadi. Ushbu usul yorug‘lik o‘zgarishlariga nisbatan chidamli.

Yuz aniqlash algoritmini tanlash aniq ilova talablariga bog‘liq. Real vaqt ilovalari uchun tezlik muhim bo‘lgan hollarda Haar Kaskadlari yoki LBP afzal ko‘rilishi mumkin. Ammo yuqori

aniqlik va yorug‘lik va pozada o‘zgarishlarga nisbatan chidamlilik talab qiladigan ilovalar uchun DNN asosidagi usullar tavsiya etiladi.

```python
import cv2
# Load the pre-trained DNN model
modelFile = "res10_300x300_ssd_iter_140000.caffemodel"
configFile = "deploy.prototxt"
net = cv2.dnn.readNetFromCaffe(configFile, modelFile)
img = cv2.imread('55.')
(h, w) = img.shape[:2]
blob = cv2.dnn.blobFromImage(cv2.resize(img, dsize: (300, 300)), scalefactor: 1.0, size: (300, 300), mean: (104.0, 177.0, 123.0))
# Detect faces
net.setInput(blob)
detections = net.forward()
# Draw rectangles around detected faces
for i in range(0, detections.shape[2]):
    confidence = detections[0, 0, i, 2]
    if confidence > 0.5:
        box = detections[0, 0, i, 3:7] * np.array([w, h, w, h])
        (startX, startY, endX, endY) = box.astype("int")
        cv2.rectangle(img, (startX, startY), (endX, endY), (255, 0, 0), 2)

cv2.imshow( winname: "Detected Faces", img)
cv2.waitKey(0)
cv2.destroyAllWindows()
```

2-rasm. DNN usulidan foydalanib his tuyg‘uni aniqlash dasturiga misol.

```python
import cv2

# Load the LBP face detector
lbp_cascade = cv2.CascadeClassifier(cv2.data.haarcascades + 'lbpcascade_frontalface.xml')

# Read an image
image = cv2.imread('55.jpg')
gray_image = cv2.cvtColor(image, cv2.COLOR_BGR2GRAY)

# Detect faces using LBP
faces = lbp_cascade.detectMultiScale(gray_image, scaleFactor=1.1, minNeighbors=5)


# Draw rectangles around detected faces
for (x, y, w, h) in faces:
    cv2.rectangle(image, (x, y), (x + w, y + h), (255, 0, 0), 2)

# Display the output
cv2.imshow( winname: 'Faces Detected', image)
cv2.waitKey(0)
cv2.destroyAllWindows()
```


3-rasm. DNN usulidan foydalanib his-tuyg‘uni aniqlash dasturiga misol.

Yyechimlar (Results)

Bundan tashqari, yuz aniqlashdan keyin his-tuyg‘u tanib olish tizimlarini integratsiya qilish ilovalar imkoniyatlarini yanada kengaytirishi mumkin, masalan xavfsizlik kuzatuvi, sog‘liqni saqlash monitoringi va interaktiv ko‘ngilocharlik sohalarida.



4-rasm. DNN usulidan foydalanib his-tuyg‘uni aniqlash dasturiga misol.



5-rasm. Haar cascade usulidan foydalanib his tuyg‘uni aniqlash dasturiga misol.

Xulosa (Conclusion)

Ushbu yuz aniqlash algoritmlarini OpenCV yordamida amalga oshirish turlicha aniqlik va samaradorlik darajalarini namoyish etadi. Haar Kaskadlari tez va real vaqt ilovalari uchun mos keladi, lekin yorug‘lik sharoitlari va burchaklarda qiynalishi mumkin. LBP turli yorug‘lik sharoitida yaxshiroq natijalarni taqdim etadi, DNN modellari esa yuqori aniqlik va ishonchlilik taklif etadi, ammo ko‘proq hisoblash resurslarini talab qiladi.

Yuqorida malumot bergan va qo‘llangan metodlar asosida hosil bolgan natijalarga kelsak.

Xulosa qilib aytganda, Python-dagi OpenCV kutubxonasidan foydalangan holda inson his-tuyg‘ularini aniqlash usullarini o‘rganish insonning turli holatlarini tushunishda kompyuterni ko‘rish va mashinani o‘rganishning muhim ekanligini va uning imkoniyatlarini ko‘rsatib beradi. Yuzni aniqlash usullari, xususiyatlarni ajratib olish va turli xil mashinani o‘rganish algoritmlaridan foydalangan holda, ishlab chiquvchilar vizual kirishlardan his-tuyg‘ularni aniq aniqlashga qodir mustahkam tizimlarni yaratishi mumkin. OpenCV ning TensorFlow yoki Keras kabi boshqa kutubxonalar bilan integratsiyalashuvi ushbu tizimlarning imkoniyatlarini oshiradi va real vaqt rejimida hissiyotlarni aniqlash va tahlil qilish imkonini beradi. Texnologiya taraqqiyotda davom etar ekan, his-tuyg‘ularni aniqlash ilovalari turli sohalarni qamrab oladi, jumladan, ruhiy salomatlik monitoringi, mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash va interaktiv o‘yin-kulgi va boshqalar. Umuman olganda, OpenCV va Python kombinatsiyasi tadqiqotchilar va ishlab chiquvchilar uchun inson his-tuyg‘ulari va mashina tushunchasi o‘rtasidagi bo‘shliqni bartaraf etishga qaratilgan kuchli vositalar to‘plamini taklif etadi.

ADABIYOTLAR

1. A. Mehrabian, Communication Without Words, Psychology Today, Vol. 2, no. 4, 1968.
2. Phillip Ian Wilson, Dr. John Fernandez, Facial Feature Detection Using HAAR CLASSIFIERS, Journal of Computing Sciences in Colleges,
Volume 21 Issue 4, April 2006.
3. Mohamed A. Berbar, Hamdy M. Kelash, and Amany A. Kandeel, IEEE conference on Faces and Facial Features Detection in Color Images, 2014
4. Dilbag Singh, Human Emotion Recognition System, IJIGSP, vol.4, no.8, pp.50-56, 2012.
Nishant Hariprasad Pandey, Dr. Preeti Bajaj, ShubhangiGiripunje, Design and Implementation of Real Time FacialEmotion Recognition System, International Journal of Scientists.

UO‘T. 621.01

TARKIBLI YULDUZCHALI VA TARANGLASH ROLIKLI ZANJIRLI UZATMA ISHCHI ELEMENTLARINING KINEMATIK VA DINAMIK HISOBI

Mamaxonov A’zam Abdumajitovich
t.f.d., dotsent Namangan muhandislik-texnologiya instituti
Avtomatika va energetika fakulteti decani

Annotatsiya. Maqolada tarkibli yulduzchali va taranglash rolikli zanjirli uzatma ishchi elementlarining kinematik va dinamik hisobi amalga oshirilgan. Zanjirli uzatma taranglash roligi qayishqoq vtulkasi bikrligini, uzatma uzatish funksiyasi o‘zgarish qonuniyatini ifodalovchi formulalar olingan. Aniqlangan ifodalarga muvofiq, uzatmaning tarkibli yetaklanuvchi yulduzcha qayishqoq elementining deformatsiyalovchi kuchi va bikrlik koeffitsiyentini hisoblash formulalari aniqlangan va xarakaterli parametrlarning bog‘liqlik grafiklari olingan.

Аннотация. В статье проведен кинематический и динамический расчет рабочих органов цепной передачи со звездой и натяжным роликом. Получены формулы, выражающие единство втулки ремня натяжного ролика цепной передачи, закон изменения передаточной функции передачи. В соответствии с полученными выражениями определены формулы расчета силы деформации и коэффициента однородности компонента ведомого звездчатого ременного элемента передачи, и получены графики зависимости характеристических параметров.

Abstract. In the article, the kinematic and dynamic calculation of the working elements of the chain drive with a star and tension roller is carried out. The formulas expressing the chain drive tension roller belt bushing unity, the law of change of the transmission transmission function have been obtained. In accordance with the defined expressions, the formulas for calculating the deformation force and the uniformity coefficient of the component driven star belt element of the transmission were determined and the dependence graphs of the characteristic parameters were obtained.

Kalit so‘zlar: zanjirli uzatma, yetaklovchi yulduzcha, yetaklanuvchi yulduzcha, taranglash roligi, qayishqoq vtulka, bikrlik koeffitsiyenti, uzatish funksiyasi, burchak tezlik, ishlash muddati.

Ключевые слова: цепная передача, ведомая звездочка, натяжной ролик, втулка ремня, коэффициент равномерности, функция передачи, угловая скорость, срок службы.

Keywords. Chain drive, driven sprocket, driven sprocket, tension roller, belt bushing, uniformity coefficient, transmission function, angular velocity, service life.


Kirish. Jahonda mashinasozlikning jadal sur’atlar bilan rivojlanishi zanjirli uzatmalarning kinematik va dinamik imkoniyatlari keng bo‘lgan resurstejamkor turlarini yaratishni hamda ularni hisoblashning fundamental asoslarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot izlanishlarini olib borishni taqozo etmoqda. Ushbu yo‘nalishda, ayniqsa zanjirli uzatmalarda ishqalanishni, yeyilishni, shovqin va titrashni kamaytirish, turli texnologik mashinalari yuritmalarida ishlatiladigan texnologik jarayonga moslashadigan, o‘zgaruvchan parametrli, tarkibli, qayishqoq elementli zanjirli uzatmalarning konstruksiyalarini yaratish, ularning texnologik ish jarayonini asoslash va hisoblash usullarini ishlab chiqish bo‘yicha maqsadli ilmiy izlanishlarni olib borish dolzarb hisoblanadi.

Zanjirli uzatmaning tuzilishi oddiyligi, foydali ish koeffitsiyenti (0,98gacha) yuqoriligi, tasmali uzatmaga qaraganda sirpanish hodisasi yo‘qligi hamda gabaritining kichikligi, uzatish sonining doimiyligi, sozlash va almashtirish ishlari osonligi, yetaklovchi valdan boshqa bir nechta vallarga harakatni uzatish qobiliyati uning keng miqyosda qo‘llanilishini ta’minlaydi [1-3]. Texnologik mashinalar ishchi organlari yuklanishlariga moslashuvchan samarali konstruksiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi [4-11].

Ma’lumki, zanjirli uzatmalar aylanma harakatni katta masofaga uzatish uchun qo‘llaniladi.

Zanjirli uzatma tasmali mexanizmlarga nisbatan kattaroq quvvatni uzatish imkoniyatiga ega, chidamliligi va harakat qonunini uzatish bo‘yicha aniqroqligi bilan afzalligi aniqlangan [2].

Zanjirli uzatmalarda yetaklanuvchi tarmoqning egilishi hisobiga yeyilishning ortishi va uzatma FIKning kamayishiga olib keladi. Shuning uchun zanjirli uzatmalarda taranglash qurilmalari qo‘llaniladi. Qator taranglash qurilmalarining asosiy kamchiligiga ularning ish jarayonida zanjir yetaklanuvchi tarmog‘iga ta’sirining kamayishi hamda qo‘shimcha qarshilik momentini hosil qilish hisoblanadi [3]. Yetaklanuvchi tarmoq tarangligini bir me’yorda saqlash uchun taranglash qurilmasi yetarli darajada vertikal yo‘nalishda harakatlanishi lozim bo‘ladi. Biz konstruksiya soddaligini saqlagan holda, taranglash roligini tarkibiy qilib, ustki qobig‘ining qayishqoq (rezina) vtulkadan iborat bo‘lishini tavsiya etdik [4] (1-rasmda keltirilgan). Tavsiya qilingan zanjirli uzatma yetaklovchi va yetaklanuvchi yulduzchalar, zanjir, qayishqoq vtulkali taranglash roligidan iborat. Ishlash vaqtida qayishqoq vtulka deformatsiyalanib, zanjirning tebranishidagi yuklanishlarni bir muncha tekislaydi. Ushbu me’yorlash darajasi, asosan, qayishqoq vtulka qayishqoqlik koeffitsiyentiga bog‘liq bo‘ladi.



1-rasm. Tarkibli taranglovchi qurilmali zanjirli uzatma hisob sxemasi.

Lekin qayishqoq vtulka deformatsiyalanishining ortishi, tayanchlarning ishdan chiqishiga, zanjir elementlari va qayishqoq vtulka orasidagi ishqalanishni ko‘paytiradi, bu esa uzatma chidamliligini kamayishiga olib keladi. O‘rta chiziqli tezliklar uchun ($v \le 10 м/с$), qayishqoq vtulkaning deformatsiyalanishi $2-3мм$ dan oshmasligi tavsiya etiladi. Buning uchun qayishqoq vtulka bikrligini aniqlash zarur bo‘ladi. 1-rasmdan $\Delta\, MKO_3$ dan

$$MK = r_3 \sin\varphi_3, \tag{1}$$

bundan zanjirning taranglash roligi bilan qoplanish uzunligi MN ni aniqlash mumkin:

$$MN = 2r_3 \sin\varphi_3, \tag{2}$$

bu yerda r_3 – taranglash roligi radiusi; φ_3 – qamrov burchagining ½ qismi.

Zanjirning taranglash roligi bilan ta’sir qilish zonasidagi (MN oraliqda) nisbiy og‘irligi:

$$q_{MN} = 2q \cdot r_3 \sin\varphi_3, \tag{3}$$

bu yerda q – zanjirning uzunlik birligiga to‘g‘ri kelgan og‘irligi, *H/м*.

U holda zanjirning yetaklanuvchi bo‘g‘inida taranglash kuchi asosan taranglash roligi va zanjir orasidagi ishqalanish kuchi orqali vujudga kelishini hamda [1-3] ishdagi izlanish natijalarini inobatga olib quyidagi ifodani hosil qilamiz:

$$Q_T = 2 f_u q r_3 \cos\varphi_3 \sqrt{2\left[1-\cos\left(\varphi_3 + \frac{\Delta_3}{l_э}\right)\right]}, \tag{4}$$

bu yerda $f_u -$ zanjirning taranglash roligi bilan ishqalanish koeffitsiyenti, $\Delta_3 -$ zanjir salqiligi, $l_{ý} -$ zanjirli uzatma yetaklanuvchi (erkin) tarmog‘i uzunligi.

Zanjirning vertikal majburiy tebranishlari, asosan, taranglash roligi ta’sirida yuzaga kelsa [1-6], xususiy tebranishlar chastotasi ρ, zanjir massasi va keltirilgan qayishqoqlik koeffitsiyentiga bog‘liqligini hisobga olgan holda

$$\rho = k \cdot z_3 n_3 / 60, \tag{5}$$

bu yerda $z_3 -$ zanjirni taranglash roligi bilan ta’siridagi elementlari soni, n_3-taranglash roligi aylanish chastotasi, $k -$ proporsionallik koeffitsiyenti.

Xususiy tebranishlar chastotasi:

$$\rho_x = \sqrt{\frac{C_3 g}{ql}}, \tag{6}$$

bu yerda $C_3 -$ zanjirning cho‘zilishdagi keltirilgan qayishqoqlik koeffitsiyenti, *l*-zanjirni taranglash roligi bilan ta’sir qiluvchi qismining uzunligi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, taranglash roligi qayishqoq vtulkasi bikrligini hisoblash formulasini hosil qilamiz:

$$C_T = \frac{2}{\delta_m} f_u q r_3 \cos\varphi_3 \sqrt{2\left[1 - \cos 2(\varphi_3 + \frac{4\Delta_3}{l_э})\right]}, \tag{7}$$

bu yerda $\delta_m -$ taranglash roligi qayishqoq (rezinali) vtulkasining deformatsiya qiymati.

Zanjirli uzatma ishlash jarayonida taranglash roligi qayishqoq elementi bikrligi asosan rezina strukturasi, zanjirning ta’sir kuchi, ishqalanish koeffitsiyenti, rolik radiusi va qamrov burchagiga bog‘liq bo‘ladi.

Zanjirning tezligini aniqlash. Zanjir bo‘g‘inlari yulduzcha atrofida ko‘pburchak shaklida joylashadi. Yulduzchaning bir marta aylanishida zanjir hosil qilgan ko‘pburchakning perimetriga teng masofani bosib o‘tib, zanjir qadami yulduzcha tishlari soniga mos bo‘ladi. Yulduzchaning bir daqiqada aylanishlar soni n, tishlar soni – z va zanjir qadami $-t_з$ ma’lumligidan, zanjir va yulduzchaning chiziqli tezligi quyidagi ifodadan aniqlanadi [4].

$$v = \frac{z t_ç n}{60}. \tag{8}$$

Yetaklovchi yulduzcha burchak tezligi har doim bir xil bo‘lmay, har bir zanjir zvenosi bilan ilashganda takrorlanuvchi burchak tezlikda harakat qiladi. Ilashish davomiyligi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$t = \frac{60}{zn}. \tag{9}$$

2-rasmda zanjirning yulduzchaga ilashgan holati soat strelkasi bo‘yicha doimiy burchak tezlik bilan aylangan vaziyati sxemasi keltirilgan. Zanjirning II bo‘g‘ini boshlang‘ich ilashgan vaziyati shtrix chiziqda ifodalangan. Yulduzcha $\frac{\alpha}{2} - \varphi_1$ masofaga burilganda, sharnir A ma’lum uzunlikdagi yoyni bosib o‘tib, yangi holatga ko‘chadi. II bo‘g‘in va keyingi bo‘g‘inlar A sharnir izi bo‘ylab harakatlanadi, A sharnir o‘z navbatida yulduzcha bo‘ylab boshlang‘ich vaziyatiga nisbatan yuqoriga ko‘chadi. Haqiqiy harakatlanish davomida yulduzchada zanjir bo‘g‘ini oldingi holatiga nisbatan bir qancha burilish holatlarida bo‘ladi. 2-rasmda ko‘rsatilgan


vaziyat uchun zanjirning yulduzcha atrofidagi harakati $V_{зв}$ [4-6] shu oraliqdagi harakat tezligi V_1 va zanjirning haqiqiy tezligi V_2 ga bog‘liqligi quyidagicha bo‘ladi:

$$V_1 = V_{зв}\sin\varphi_1 \quad V_2 = V_{зв}\cos\varphi_1 \quad V_{зв} = \omega_1 R_1, \tag{10}$$


bu yerda r_1 – yulduzcha radiusi, m.

(10) formuladan ko‘rinadiki, burchak φ_1 ning kamayishi V_1 ning kamayishiga va V_2 ning o‘sishiga sabab bo‘ladi. V_2 ning φ_1 burchakka bog‘liq holda tezligi o‘zgarishi [5]dagi ma’lumotlarga asosan 3-rasmdagi grafikda keltirilgan. Yulduzchaning vaqtga nisbatan burilish burchagi $\alpha = \frac{360^0}{z}$ harakat davomida zanjir 1-holatdan 2-holatgacha ko‘chishi davomida sekinlik bilan o‘sib boradi, 2-holatdan 3-holatga esa tezlanish bilan pasayib boradi. Zanjir ko‘tarilib tushuvchi takrorlanuvchi harakatlanib, tishlar soni kam yulduzchalarda tezlikning o‘sishiga, zanjirning tebranishlari nomutanosibligiga hamda qo‘shimcha dinamik kuchlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Zanjir sharniri yulduzcha tishi bilan ilashganda, sharnirning tishga zarb ta’siridan tashqari harakatning tezlashishiga sabab bo‘luvchi kuch yuzaga keladi. Ikkinchi marotaba zarb bilan zanjir sharniri va yulduzcha tishi ta’sirlashganda zanjir harakati o‘zgaradi. Zanjir massasiga bog‘liq ravishda dinamik kuchlar hosil bo‘lishi hisobiga zanjir tezligi ortadi. Bu esa harakat bir maromda bo‘lmasligiga sabab bo‘ladi. Zanjir tezlanishini uning tezligini vaqtga nisbatan differensiallagan holda quyidagicha aniqlash mumkin:

$$a_2 = \frac{dv_2}{dt} = \frac{d}{dt}v_{зв}\cos\varphi_1 = \frac{d}{dt}\omega_1 r_1\cos\varphi_1 = -\omega_1 r_1\sin\varphi_1\frac{d\varphi_1}{dt} = -\omega_1^2 r_1\sin\varphi_1 . \tag{11}$$



bu yerda; 1 – yulduzcha, 2 – zanjir.
2-rasm. Yetaklovchi yulduzcha bilan zanjirning ilashish sxemasi.



bu yerda $a - v_2 = f(\varphi_1); б - a_2 = f(\varphi_1)$.

3-rasm. Zanjirning bo‘ylama tezligi va tezlanishining φ_1 burchakka bog‘liqlik grafiklari.

Tezlanish o‘zgarishining burilish burchagiga bog‘liqligi 3.b-rasmda keltirilgan. Qachonki zanjirning sharniri A 1-holatda bo‘lganda $\varphi_1 = \frac{\alpha_1}{2}$ va 2-holatda esa, $\varphi_1 = -\frac{\alpha_1}{2}$ bo‘lganda, tezlanish maksimal qiymatga ega bo‘ladi. Quyidagi ikki hol uchun zanjir sharnirining tezlanishini aniqlaymiz:

$a_1 = \omega_1^2 r_1 \sin\frac{\alpha_1}{2}$ va $a_2 = -\omega_1^2 r_1 \sin\frac{\alpha_1}{2}$, u holda: $a_{\max} = \pm\frac{\pi^2}{180} n_1^2 t \approx \pm\frac{n_1^2 t}{180}$.

Zanjir tezlanishi aylanishlar sonining kvadrati va zanjir qadamiga to‘g‘ri proporsionalligi ko‘rinib turibdi. Tezlanish nafaqat zanjir qadamiga, yulduzcha tishlari soniga ham bog‘liqdir [4]. Bu hollar uchun tezlanishni aniqlashda n_1 ning o‘rniga $\frac{60v}{z_1 t}$ ni almashtirib quyidagi ifodani keltiramiz: $a_{\max} = \pm 20\frac{v_2}{z_1^2 t}$.

Demak, zanjir bo‘ylab tezlikning o‘zgarishi 2.4a-rasmdagi qonuniyat bo‘yicha o‘zgaradi. Shuning uchun zanjirning taranglash roligi qayishqoq vtulkasi bilan ta’siri ham deyarli shu qonuniyatda o‘zgaradi.

Taranglash qurilmali tarkibli yetaklanuvchi yulduzchali zanjirli uzatma uzatish nisbati notekisligi. Zanjirli uzatmalarda uzatish nisbati yetaklovchi va yetaklanuvchi yulduzchalarning burchak tezliklari nisbati orqali aniqlanadi [4]:

$$u_{12} = \frac{\omega_1}{\omega_2} \quad (12)$$

Yetaklovchi yulduzcha bilan zanjir ilashganda (2-rasm):

$$v_1 = v_{зв} \cdot \sin\varphi_1; v_2 = v_{зв} \cdot \cos\varphi_1; v_{зв} = \omega_1 r_1 \quad (13)$$


Yetaklovchi va yetaklanuvchi yulduzchalar harakatidagi moslikni inobatga olib, tegishli holatlar uchun:

$$\omega_2 = \frac{v_2}{r_2 \cos\varphi_2} = \frac{\omega_1 r_1 \cos\varphi_1}{r_2 \cos\varphi_2} . \quad (14)$$

Yetaklanuvchi yulduzcha tarkibiy qilib tayyorlangani sababli, qayishqoq elementning aylanma deformatsiyalanishi hisobiga, 4-rasmga asosan:

$$\varphi_2 = \varphi_2' \pm \Delta\varphi_2 \text{ ёки } \omega_2 = \omega_2' \pm \Delta\omega_2 , \quad (15)$$

bu yerda φ_2, ω_2 – yetaklanuvchi yulduzchaning haqiqiy burilish burchagi va burchak tezligi, φ_2', ω_2' – qayishqoq element hisobga olinmagan holdagi yetaklanuvchi yulduzchaning burilish burchagi va burchak tezligi, $\varphi_2, \Delta\omega_2$ – qayishqoq element deformatsiyalanishi hisobiga burilish burchagi va burchak tezligining o‘zgarishi.



4-rasm. Yetaklanuvchi yulduzcha burilish burchagi hisob sxemasi.

Yetaklanuvchi yulduzcha burchak tezligi:

$$\omega_2 = \frac{\omega_1 r_1}{r_2} \cdot \frac{\cos\varphi_1}{\cos(\varphi_2' + \Delta\varphi_2)} . \quad (16)$$

Olingan (16)ni vaqt bo‘yicha differensiallasak, yetaklanuvchi yulduzcha burchak tezlanishini aniqlash ifodasi hosil bo‘ladi:

$$\varepsilon_2 = \frac{d\omega_2}{dt} = \frac{\omega_1^2 r_1}{r_2 u_{12}} \cdot \left[\frac{tg\varphi_2' \cos\varphi_1 - u_{12} \sin\varphi_1}{\cos^2(\varphi_2' \pm \Delta\varphi_2)} \right], \quad (17)$$

bu yerda $u_{12} = \frac{\omega_1}{\omega_2' \pm \Delta\omega_2}$.

Demak, ko‘rilayotgan zanjirli uzatma uchun maksimal va minimal uzatish nisbatlari quyidagicha bo‘ladi:

$$u_{12}^{\max} = \frac{\omega_1}{\omega_2' - \Delta\omega_2}; \quad u_{12}^{\min} = \frac{\omega_1}{\omega_2' + \Delta\omega_2} . \quad (18)$$

Uzatish nisbatining o‘rtacha qiymati:

$$u_{12}^{ўр} = \frac{\omega_1 \omega_2'}{\omega_2'^2 - \Delta\omega_2^2} . \quad (19)$$

Zanjirli uzatma uzatish nisbatining notekislik koeffitsiyenti:

$$\delta_{u_{12}} = \frac{u_{12}^{\max} - u_{12}^{\min}}{u_{12}^{ўр}} = \frac{2\Delta\omega_2}{\omega_2'} . \quad (20)$$

Demak, tarkibli yetaklanuvchi yulduzchali va taranglash roligi bo‘lgan zanjirli uzatmada yetaklanuvchi bo‘g‘inning harakat qonuni asosan ω_2, U_{12} va $\Delta\omega_2$ ga bog‘liq ekan.

Xulosa. Zanjirli uzatma taranglash roligi qayishqoq vtulkasi bikrligini hisoblash formulasi aniqlandi. Tavsiya parametrlari:

$$f = 0{,}1 - 0{,}13; \ \varphi_3 = 0{,}3 - 0{,}45 рад; \ r_3 = (2{,}5 - 4{,}0) \cdot 10^{-2} м .$$

Zanjirli uzatma uzatish funksiyasi o‘zgarish qonuniyatini ifodalovchi formula aniqlandiUzatish funksiyasi qiymatining 1,25dan kam bo‘lishini ta’minlash uchun $\Delta\omega_2 = 2{,}0 - 2{,}2\,c^{-1}$ qiymatda bo‘lishi va ω_2 ni kamaytirish maqsadga muvofiqligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. S.T.Ariaratnam and S. F. Asokanthan. Dynamic stability of chain drives. Journal of Mechanisms Transmissions and Automation in Design, 109(3):412{418, 1987.

2. K.W.Wang. On the stability of chain drive systems under periodic sprocket oscillations. Journal of Vibration and Acoustics, 114(1):119.

3. H.Zheng, Y.Y.Wang, G.R.Liu, K.Y.Lam, K.P.Quek, T.Ito, and Y. Noguchi. Efficient modelling and prediction of meshing noise from chain drives. Journal of Sound and Vibration, 245(1):133{150, 2001.

4. А.Мамахонов. Ерга ишлов берувчи агрегатнинг занжирли механизмини кинематик ва динамик таҳлили. 05.02.18- “Механизм ва машиналар назарияси” т.ф.н. Диссертatsiя, Тошкент-2012й. 144 б.

5. А.Мамахонов. Технологик машиналарнинг қайишқоқ элементли занжирли узатмалари конструкцияларини ва ҳисоблаш методларини ишлаб чиқиш. 05.02.02 – Механизмлар ва машиналар назарияси. Машинашунослик ва машина деталлари. DSc. Dissertatsiya. Наманган -2021й. 213 б.

6. К.К.Юлдашев. Момиқни ташувчи ва тозаловчи винтли конвейер конструкциясини такомиллаштириш ва параметрларини асослаш. 05.02.03-“Технологик машиналар. Роботлар, мехатроника ва робототехника тизимлари” PhD диссертatsiя, Андижон 2020й. 119 б.

7. Патент. Рес. Узб. №FAP00595. Цепная передача. А.Джураев, Ж.Мухамедов, А.Мамахонов. Бюлл., №12. 2010г.

8. Патент. Рес. Узб. №FAP00677. Цепная передача. А.Джураев, М.Умрзоқов, А.Мамахонов. Бюлл., №12. 2011г.

9. Патент. Рес. Узб. № IAP05745. Цепная передача. А.Джураев, А.Мамахонов, С.Юнусов, Э.Алиев. Бюлл., №1. 2019г.

10. Патент. Рес. Узб. № FAP01288. Цепная передача. А.Джураев, А.Мамахонов, А.Махмудов. Э.Алиев. Бюлл., №3. 2018г.

11. Патент. Рес. Узб. № IAP06200. Цепная передача. А.Джураев, А.Мамахонов, Э.Алиев, К.Юлдашев. Бюлл.,№4. 2020г.

QISQA XABARLAR

UO‘T. 656.076

AVTOMOBILLARDA YOQILG‘I MIQDORINI ANIQLOVCHI ANALITIK VA RAQAMLI DATCHIKLAR

Imomnazarov Sarvar Qoviljonovich
dotsent. Namangan muhandislik-qurilish instituti

Dehqonova Dilorom Munavvar qizi
talaba. Namangan muhandislik-qurilish instituti
sarvar199108@gmail.com,

Annotatsiya. Ushbu maqolada avtomobilni yoqilg‘i bakida joylashgan va uni ta’minlash tizimining funktsional qurilmalaridan biri bo‘lgan avtomobillarda ishlatiladigan analitik va raqamli yoqilg‘i miqdorini hisoblovchi datchiklar haqida ma’lumotlar keltirilgan va bir nechta harakat potensiyometr turlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Аннотация. В данной статье представлена информация об аналитических и цифровых датчиках, используемых в автомобилях, расположенных в топливном баке автомобиля и являющихся одним из функциональных устройств системы его подачи, а также приводится информация о нескольких видах потенциометров действия.

Abstract. This article provides information about analytical and digital sensors used in cars, located in the fuel tank of the car and being one of the functional devices of its supply system, as well as information about several types of action potentiometers.

Kalit so‘zlar: datchik, monitoring, bak, yoqilg‘i, miqdor, uskunalar panli, GPS(Global Positioning System).

Ключевые слова: Датчик, мониторинг, бак, топливо, количество, панель инструментов, GPS(Global Positioning System).

Keywords: Sensor, Monitoring, Tank, Fuel, Quantity, Toolbar, GPS(Global Positioning System).

Kirish. Hozirgi kundagi zamonaviy ichki yonuv dvigatellarining yoqilg‘i bilan ta’minlash tizimida maxsus kontaktsiz yoqilg‘i miqdori datchiklaridan keng foydalanilmoqda.[1]

Ushbu datchiklarning eng ko‘p tarqalgan turi magnitli datchiklardir.Bunday datchiklarning asosiy xususiyati shundaki: ular doimo berk konturda bo‘ladi yani olinadigan ma’lumotlar tahlili yoqilg‘i bakidan tashqarida uzatiladi.Yoqilg‘i miqdor qalqovuchlari richag yordamida magnitga bo‘g‘lanadi. Qalqovuch joylashuvi richag yordamida magnitga uzatiladi, hosil bo‘lgan magnit harakati yarim o‘tkazgichlar yordamida asosiy sektorga ma’lumot uzatadi. Asosiy sektordagi yoqilg‘i miqdori to‘g‘risidagi ma’lumotlar signal ko‘rinishida uskunalar paneliga uzatiladi va unda aks etadi.

Magnitning harakati faqat turli uzunlikdagi metall plitalar o‘rnatilgan sektorda amalga oshiriladi. Yaratilgan magnit maydon plitalar yuzasida elektr signalini hosil qiladi, bu esa bakdagi yoqilg‘i aralashmasining mavjud darajasini belgilaydi.

Analitik va raqamli yoqilg‘i miqdori datchiki (ARYMD) avtomobil yoqilg‘i tizimining funktsional qurilmasi bo‘lib, uning yagona maqsadi yoqilg‘i bakidagi yoqilg‘i (dizel yoqilg‘isi, benzin, moy va boshqa suyuqliklarni) darajasi va hajmini aniqlashdir.

Datchik yoqilg‘i bakida joylashadi va yoqilg‘i miqdorini avtomobil salonidagi asboblar panelida ko‘rsatadi. Bunday nazorat datchiklari juda kam xato (1% dan) qilishi mumkin.

Analitik va raqamli yoqilg‘i miqdori datchiki (ARYMD) yoqilg‘i quyish monitoringi o‘tkazishda keng qo‘llaniladi.[3]

Raqamli yoqilg‘i miqdori datchigi (2-rasm) asosan harakat potensiyometridan iborat. Bunday qurilma bir qator afzalliklarga ega masalan:



1-rasm. Avtomobillarda yoqilg‘i miqdorini aniqlovchi magnitli datchik.

-yoqilg‘i miqdorini o‘lchashning aniqliligi;
-ishonchliligi;
- tuzulishining soddaligi;
- tan narxining arzonligi;
-o‘rnatish universalligi bilan boshqa turdagi datchiklardan ajralib turadi.

Kamchiliklari esa tez-tez oksidlanishi va harakat potensiyometrining ishlash davri kamligini misol qilish mumkin.

Avtomobilning yoqilg‘i bakida yoqilg‘i miqdorini aniqlashda ikki turdagi potensiyometr datchiklari (quvurli va tutquchli) dan foydalanish mumkin. Bunday datchiklarning asosi plastmassa yoki yupqa metaldan yasalgan qalqovuch hisoblanadi.[4]



2-rasm. Avtomobildagi yoqilg‘i miqdorini aniqlovchi raqamli datchig.

Zamaonaviy avtomobil korxonalarida barcha ma’lumotlar markaziy serverga to‘plash tamoyiliga asoslangan bo‘lib bu tamoyil asosida ishlayotgan korxonalar barcha ma’lumotlarni bir yerga jamlash va ular asosida korxona haqidagi ma’lumotlarni oldindan bashorat qilish imkoniga ega bo‘ladilar. Avtomobil korxonalarida barcha ma’lumotlar doimo monitoringda turishi kerak, jumladan yoqilg‘i miqdori ham. Zamonaviy avtomobil korxonalarida amalga oshirishda sun’iy yo‘ldosh (Global Positioning System) GPS monitoring tizimi yordam beradi.

GPS sun’iy yo‘ldosh qabul qiluvchilar yordamida avtomobilning joylashuvini aniqlash va ma'lumotlarni markaziy monitoring serveriga uzatish texnologiyasiga asoslangan. Qurilmaning

markaziy serveri quyidagicha ishlaydi: Kiruvchi ma’lumotlarni qabul qiladi, avtomobillarni joylashuv xaritasida ko‘rsatadi, ularning aniq harakati hamda harakat tarixini ko‘rish va tahlil qilish imkonini beradi.



3-rasm. Sun‘iy yo‘ldosh GPS yoqilg‘i miqdori datchigi.

Sun’iy yo‘ldosh GPS monitoring tizimi avtomobilning yoqilg‘i bakidagi yoqilg‘i miqdori (3-rasm) haqidagi ma'lumotlarni markaziy monitoring serveridan olish imkonini ham beradi. Bu degani siz yo‘nilg‘i miqdori, (bazi maxsus indikatorlarli avtomobillarda) turi va qancha masofaga yetishi haqidagi ma’lumotlarni masofadan turib olish imkonini ham beradi.[4]

Tutquchli yoqilg‘i miqdori datchigi (4-rasm) yupqa metalldan yasalgan kichik tutqichli qalqovuch yordamida ma'lumotlar datchik paneliga undan so‘ng uskunalar paneliga uzatiladi. Tutquchli yoqilg‘i miqdori datchigi rezistiv turdagi metall chiziqlarga bo‘lingan yarim o‘tkazgichli sektordir. Bunday sektorlar yoqilg‘i moylash materiallariga bardoshli yarim o‘tkazgichlardan iborat bo‘lib uning vazifasi axborotning tez va aniq yetib borishiga xizmat qiladi. Ushbu turdagi datchiklar yoqilg‘i nasosi bilan bir korpusda yoki undan alohida mustaqil ravishda yoqilg‘i bakiga o‘rnatiladi. O‘zining universalligi va ko‘p funksiyaliligi tufayli tutquchli yoqilg‘i miqdori datchiklari deyarli barcha yoqilg‘i baklarida ishlatilishi mumkin.[5]



4-rasm. Avtomobillardagi yoqilg‘i miqdorini aniqlashda tutquchli datchig.

Bakdagi yoqilg‘i miqdorini ultratovushli o‘lchagich datchiklari (5-rasm) yordamida ham o‘lchasa bo‘ladi. Uni boshqa datchiklardan avzalligi shundan iboratki: Bakdagi yoqilg‘i miqdorini aniqlashda datchikni yoqilg‘i bakidan tashqariga o‘rnatgan holda ma’lumot olish imkoni mavjud. Bunday turdagi datchiklarni suniy yo‘ldosh GPS monitoring tizimiga ulash orqali ma’lumotlarni

masofadan olish imkoni ham mavjud. Qurilma quyidagicha ishlaydi: Yaratilgan ultratovush to‘lqini yoqilg‘i baki devori va yoqilg‘ining zichligidan o‘tadi.[6]



5-rasm. Avtomobil bakidagi yoqilg‘i darajasini nazorat qilish uchun ultratovushli o‘lchagich datchigi.

Bo‘shliq va havo muhit chegarasidan o‘tgan signallar orqali yonilg‘i miqdori haqidagi ma’lumotlar boshqaruv panelida yoki markaziy serverda aks etadi. Bir so‘z bilan aytkanda yoqilg‘i miqdorini hisoblash uchun asos sifatida to‘lqinning yuborilishi va uning qaytishi o‘rtasidagi vaqt oralig‘i olinadi, bu esa yoqilg‘i miqdori haqidagi aniq ma’lumotlarni yoqilg‘i bakidan tashqarida turib olish imkonini beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkunki: Transport vositalariga kunlik xizmat ko‘rsatishning eng asosiy bosqichlaridan biri bakdagi yoqilg‘i miqdorining doimiy monitoringgi hisoblanadi, shuning uchun avtomobilning yoqilg‘i miqdori datchiklari zamonaviy avtomobillarning ta’minlash tizimining eng asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. O‘rnatilishning soddaligi, mexanizmning hajmiy jihatdan kichigligi va ko‘p funksiyaligi sababli ushbu turdagi datchiklarni boshqa turdagi sohalarda yoqilg‘ini va qovushqoqligi past bo‘lgan moylarning sathini monitoring qilishda ham ishlatish mumkin. Zamonaviy transport boshqaruv korxonalarida yoqilg‘i haqidagi ma’lumotlarning aniqligini ta’minlash maqsadida sun'iy yo‘ldosh GPS yoqilg‘i miqdori datchiklaridan foydalanish transport korxonasi ishini yanada takomillashtiradi.

ADABIYOTLAR

1. Makhmudov A., Nishonov F. ROAD TRANSPORTATION ACCIDENTS WITH PARTICIPATION PEDESTRIANS //Академические исследования в современной науке. – 2022. – Т. 1. – №. 17. – С. 236-244.
2. Adashboyevich, M. J., Qoviljanovich, I. S., Abduvali o‘g‘li, I. H., & Xabibullaevich, X. U. (2021). Modern Technology Of Surface Hardening Applied To Parts Of The Car. NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS Journal| NVEO, 2673-2676.
3. Mannonov.J., Imomnazarov S., Abduganiyev. Sh., Nishonov.F.,(2022). ELECTRONIC ENGINE MANAGEMENT DIAGNOSTIC SYSTEM SELF-PROPELLED NARROW-GAUGE POWER STATIONAND METHOD OF EXPERIMENTAL RESEARCHINTRODUCTION. International Journal of Early Childhood Special Education, (6-14),1929-1930.
4. Mannonov.J., Imomnazarov S., Abduganiyev. Sh., Nishonov.F.,(2022). ELECTRONIC ENGINE MANAGEMENT DIAGNOSTIC SYSTEM SELF-PROPELLED NARROW-GAUGE POWER STATIONAND METHOD OF EXPERIMENTAL RESEARCHINTRODUCTION. International Journal of Early Childhood Special Education, (6-14),1929-1930

5. RA Yakubjonovich.et al. ANALYTICAL AND NUMERICAL FUEL QUANTITIES OF VEHICLES// E Conference Zone.- 2022.-№.4-12.-108-112.
6. Sarvar, I. (2021). Application of Intelligent Systems in Cars. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology, 1(4), 78-80.
7. Sarvar, I., & Zokirxon, M. (2021). ROAD TRANSPORTATION ACCIDENTS WITH PARTICIPATION PEDESTRIANS. Universum: технические науки, (5-6 (86)), 62-65.
8. Sarvar, I., Abdujalil, P., Temurmalik, A., & Jahongir, K. (2021). OPERATING CONDITIONS OF TRUCKS AND THE SAFETY OF THE TRANSPORT PROCESS. Universum: технические науки, (6-5 (87)), 42-45.
9. Sarvar, I., Azizbek, N., Behzod, S., & Raxmatillo, R. (2021). RESEARCH OF ADHESION STRENGTH OF COMPOSITE EPOXY MATERIALS FILLED WITH MINERAL WASTE OF VARIOUS PRODUCTIONS. Universum: технические науки, (6-5 (87)), 33-35.
10. Makhmudov Avazbek, Nishonov Farhod. (2022). ROAD TRANSPORTATION ACCIDENTS WITH PARTICIPATION PEDESTRIANS. ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE, 1(17), 236–244.
11. Shohruh A. et al Cars Equipped with Intelligent Systems// Jundishapur Journal of Microbiology. – 2022. – №. 15. – С. 3305.
12. Yakubjonovich R. A. et al. ANALYTICAL AND NUMERICAL FUEL QUANTITIES OF VEHICLES //E Conference Zone. – 2022. – С. 108-112.
13. Имомназаров, С. К., Абдуганиев, Ш. О., Рахимжонов, А. А., & Журабоев, Д. И. (2021). УЧАСТИЕ ОБЩЕСТВЕННОСТИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ БЕЗОПАСНОСТИ ДВИЖЕНИЯ. Экономика и социум, (5-1), 939-942.

Имомназаров, С. К., Насриддинов, А. Ш., & Мунаввархонов, З. Т. (2021). ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СИСТЕМ В АВТОМОБИЛЯХ. Экономика и социум, (5-1), 933-938.

QISQA XABARLAR

UO‘T 631.314

BOG‘ QATOR ORALARINI EKISHGA TAYYORLAYDIGAN KOMBINATSIYALASHGAN MASHINA KONSTRUKSIYASI

Xushvaqtov Botir Vohidovich
(QXMITI) katta ilmiy xodimi

Suyunov Sardor G‘ayrat o‘g‘li
(QXMITI) tayanch doktoranti, sardor.suyunov.93@gmail.com

Turkmenov Xasan Ishimovich
(TIQXMMI-MTU) dotsenti, turkmenov@yandex.com

Barlibayev Sherzod Naqibekovich
TIQXMMI (MTU) dotsenti, barlibayev.phd@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada bog‘ qator oralarini ekin ekishga tayyorlaydigan kombinatsiyalashgan mashina konstruksiyasi va uning texnologik ish jarayoni keltirilgan.

Аннотация. В статье представлена конструкция комбинированной машины для подготовки посевя метду садовами рядами, и ее технологический процесс работы.

Abstract. The article presents the design of a combined machine for preparing inter-row spaces in orchards for planting and its technological work process.

Kalit so‘zlar: resurstejamkor, kombinatsiyalashgan mashina, yumshatkichlar, rotatsion ish organi, pushta olgich va zichlagich.

Ключевые слова: ресурсоэффективный, комбинированная машина, рыхлители, ротационный рабочий орган, гребнеобразователь и уплотнитель.

Keywords: resource-efficient, combined machine, loosening tools, rotary working tool, furrow opener and compactor.


BMT ning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti va Xalqaro oziq-ovqat siyosati tadqiqot instituti tomonidan 2050-yilgacha global oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabning o‘sish prognozlariga ko‘ra oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabning real qiymati 2007-yilga nisbatan 77 foizga oshishi kutilmoqda. Bu o‘sishga sabab esa dunyo aholisi soni va aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadning oshishi hisoblanadi. 2007-yildan 2050-yilgacha dunyo aholisi 40 foizga ko‘payishi prognozlangan (1-rasm) [1]. Dunyo bo‘yicha qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabni qondirish uchun esa yerlardan oqilona foydalanish va qishloq xo‘jaligida energiya va resurstejamkor texnikalarni ishlab chiqish zaruriyati tug‘iladi.

So‘ngi yillarda jahonda bo‘lgani kabi yurtimizda ham yerlardan unumli foydalanish va uni ekishga tayyorlashda resurstejamkor texnologiyalardan foydalanishga bo‘lgan ehtiyoj tobora oshib bormoqda.

Sug‘oriladigan yerlardan unumli foydalanish maqsadida keyingi yillarda bog‘ va tokzor qator oralaridan ekin ekish uchun foydalanish yo‘lga qo‘yilmoqda. Bungacha mevali bog‘larga ekish sxemasi bo‘yicha ajratilgan maydonni ko‘p qismi, nisbatan uzoq muddat davomida o‘zlashtirilmasdan yotar edi. Yosh bog‘lar orasini qora shudgor (cherniy par) sifatida saqlab turish maqsadga muvofiq bo‘lmaydi. Tadqiqotlardan ma’lumki olma va nok bog‘larini qator orasiga ular 6-8 yoshga kirgunga qadar sabzavot ekinlarini va qator oralariga ishlov beradigan o‘simliklarni ekilgani yaxshi. Danakli bog‘lar olti yoshga kirguncha ular qator orasiga sabzavot va poliz ekinlarini ekish tavsiya qilinadi. Bog‘larni qator oralariga oraliq ekinlar ekiladigan bo‘lsa, birinchi ikki yil davomida daraxt tanasi qatoriga eni 1 m, keyin har yili 0,5 m dan oshirib borib, sabzavotlar ekilmay qoldiriladi [2].

Bog‘ qator oralari tuprog‘i strukturasini buzib yubormaslik va kam energiya sarflagan holda yuqori samaradorlikka erishish maqsadida ikki va undan ortiq texnologik jarayonlarni bir

o‘tishda bajaradigan kombinsiyalashgan mashinalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Tuproqqa ishlov berishda kombinatsiyalashgan mashinalardan foydalanish mashina-traktor agregatning daladan o‘tishlar sonini kamayishiga va natijada tuproqning o‘tishlar sonini kamayishiga va natijada tuproqning ortiqcha zichlanmasligi, hamda strukturasini buzilmasligi, energiya va yonilg‘i sarfining kamayishiga olib keladi [3].



1-rasm. Jahonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talab, aholi soni va daromadlarining o‘zgarishi prognozi (2007-2050).

Ayniqsa, nam yetarli bo‘lmagan va yengil strukturasiz tuproqlarda kombinatsiyalashgan tuproqqa ishlov berish mashinalaridan foydalanish muhim hisoblanadi. Agar u yerlarga oddiy mashinalar yordamida ketma-ket ishlov berilsa hosildor qatlam zarralari shamol ta’sirida uchib ketadi, suv eroziyasi tufayli organik moddalar yo‘qoladi va tuproqning strukturasi yomonlashadi [4].

Bog‘ qator oralari tuproqlariga energiya-resurstejamkorlik bilan ishlov berish texnologiyalari va ularni bajaradigan texnika vositalarini ishlab chiqish, takomillashtirish, bog‘dorchilik mashinalari konstruksiyalarini yaratish, mashinalar sxemasi va ish organlarining parametrlarini asoslash bo‘yicha xorijda R.Deliron, R.Pellens, E.Baldini, G.Baraldi, G.Peri, M.Carrara, G.Russo, F.Pipitone, G.Vivaldi, A.Gaetano, S.Camposeo, B.Gennaro, M.Fracchiolla, G.Ferrara, S.Camposeo, A.Chami, A.Pacifico, C.Lasorella, P.Montemurro, V.Misic, H.Michayel, L.Manov, S.Buskolar, X.Nankov, V.Stoychev, P.T.Babiy, P.M.Vasilenko, I.B.Berenshteyn, A.S.Kushnarev, N.I.Gerasimov, Ya.Z.Jiliskiy, V.A.Shevkun, V.V.Bichkov, K.A.Manayenkov, A.N.Makarov, M.M.Gasanov, F.A.Mamedov va boshqalar shug‘ullangan.


Bu yo‘nalishda respublikamizda T.T.Axmedov, R.I.Baymetov, X.Kushnazarov, Y.Y.Sichev, A.To‘xtaqo‘ziyev, A.A.Axmetov, F.M.Mamatov, I.T.Ergashev, A.T.Musurmonov, M.M.Ergashev, N.M.Komilov, X.Utaganov va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Lekin ko‘rsatilgan tadqiqotlarda bog‘ qator oralarini biryo‘la ekin ekish uchun tayyorlaydigan, ya’ni bog‘ qator oralarini yumshatadigan, mayin qatlam hosil qiladigan, tekislaydigan, pushta oladigan va pushtaning ustki qatlamini zichlaydigan mashina ishlab chiqish va ish organlarining parametrlarini asoslash masalalari yetarli darajada o‘rganilmagan.

Yuqorida ta’kidlanganlarni hamda hozirgi davr talablarini inobatga olgan holda Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy tadqiqot institutida bog‘ qator oralarini bir yo‘la ekin ekish uchun tayyorlaydigan kombinatsiyalashgan mashina ishlab chiqildi. 2-rasmda uning konstruktiv sxemasi keltirilgan.

Kombinatsiyalashgan mashina osish qurilmasi bilan jihozlangan rama 1, yumshatkichlar 2, mayin tuproq qatlamini hosil qiladigan rotatsion ish organi 3, pushta olgich 4, pushtaning ustki qatlamini zichlaydigan ish organi 5 dan iborat.

Uning ish jarayoni quyidagicha kechadi: agregat dala bo‘ylab harakatlanganda uning yumshatkichlari bog‘ qatorlari oralaridagi tuproqni yumshatadi, rotatsion ish organi esa

yumshatkichlar tomonidan yumshatilgan tuproqni maydalaydi va mayin tuproq qatlamini hosil qiladi. Pushta olgichlar talablar darajasidagi pushtalarni hosil qiladi, zichlagichlar esa hosil qilingan pushtalarning ustki qatlamini ya'ni tuproqning dastlabki 10-15 sm qatlamini talablar darajasida zichlaydi.



a) yon tomondan ko‘rinishi b) ust tomondan ko‘rinishi.

1-osish qurilmasi bilan jihozlangan rama, 2-yumshatkich, 3-mayin tuproq qatlamini hosil qiladigan rotatsion ish organi, 4-pushta olgich, 5-pushtaning ustki qatlamini zichlaydigan ish organi.

2-rasm. Bog‘ qator oralarini biryo‘la ekin ekish uchun tayyorlaydigan kombinatsiyalashgan mashinaning konstruktiv sxemasi.

Ushbu kombinatsiyalashgan mashinadan pushta olgichlar hamda zichlagichlarsiz ham foydalanish mumkin. Bunda ushbu mashina bog‘ qator oralaridagi begona o‘tlarni yo‘qotish hamda tuproqdagi namlikni saqdash uchun qo‘llaniladi.

Xulosa. Yerlardan unumli foydalanish maqsadida bog‘ qator oralaridan ekin ekish uchun foydalanish, yaqin kelajakda kutilayotgan oziq-ovqat tanqisligi muammosiga qisman bo‘lsada yyechim bo‘lib, mahsulot tannarxining nisbatan barqarorligiga erishishga, tuproqqa ekish oldidan ishlov berishda resurstejamkor texnologiyalardan foydalanish esa tuproqni unumdorligini saqlashga katta yordam beradi. Bundan tashqari qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va mashinalariga bo‘lgan mahalliy talablarni qondirishga hamda xalqaro bozorni eksportbop mahsulotlar bilan ta'minlashga katta hissa qo‘shadi.

ADABIYOTLAR

1. Linehan, V, Thorpe, S, Andrews, N, Kim, Y & Beaini, F 2012, Food demand to 2050: Opportunities for Australian agriculture, ABARES conference Canberra, March 2012.

2. http://centralasia.bioversityinternational.org

3. Mevali bog‘ qator oralarida sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarini yetishtirish bo‘yicha tavsiyalar. Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent, 2015. – 23 b.

4. Mamatov F.M., Temirov I.G‘. Qishloq xo‘jalik mashinalari: Darslik. Toshkent, 2019. – B. 9.

UO‘T: 159.937:75.01

RANGTASVIR VA INSON EMOTSIYALARI: RANGLARNING HISSIYOT UYG‘OTISH MEXANIZMLARINI O‘RGANISH

Kurbonova Shoxsanam Bahodirjon qizi
Alfraganus universiteti “Umumkasbiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi
el. pochta: kurbonova_shb94@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada rangtasvir va ranglarning inson psixologiyasiga ta’siri o‘rganilgan. Ranglarning odamning his-tuyg‘ulari, kayfiyatiga qanday ta’sir etishi, shuningdek, rangtasvir san’ati orqali ranglarning individual va madaniy kontekstdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Rangtasvir va psixologiyaning o‘zaro bog‘liqligini yanada chuqurroq o‘rganishga qaratilgan ushbu maqola ranglarning inson ruhiyatiga ta’sirini ilmiy nuqtayi nazardan yoritadi.

Аннотация: В данной статье исследуется влияние живописи и цветов на психологию человека. Также рассматривается, как цвета влияют на эмоции и настроение человека. В статье анализируется значение цветов в контексте индивидуальной и культурной интерпретации, а также их использование в терапевтических целях. Эта статья способствует более глубокому изучению взаимосвязи живописи и психологии и раскрывает влияние цветов на психологическое состояние человека.

Abstract: This article explores the influence of painting and colors on human psychology. It discusses how colors affect a person’s emotions and mood, as well as the significance of colors in individual and cultural contexts. The therapeutic applications of colors and the scientific foundations of managing personal emotions through colors are also examined. This article contributes to a deeper understanding of the connection between painting and psychology, shedding light on how colors impact human mental and emotional states.

Kalit so‘zlar: rangtasvir, rang psixologiyasi, rang, rangshunoslik, xromoterapiya, rang semantikasi, kompozitsion bog‘liqlik

Ключевые слова: живопись, психология цвета, цвет, колористика, хромотерапия, семантика цвета, композиционная связь

Keywords: painting, color psychology, color, color science, chromotherapy, color semantics, compositional connection

Rangtasvir insoniyat tarixi davomida hissiyotlarni ifodalash, jamiyatga estetik xabarlar yetkazish va individual ichki olamni aks ettirishning muhim vositasi bo‘lib kelgan. Ranglarning inson psixikasiga bo‘lgan ta’siri ko‘plab fan sohalarida, jumladan, psixologiya, san’atshunoslik va madaniyatshunoslikda keng o‘rganilgan. Ranglar nafaqat tasviriy san’atda, balki kundalik hayotda ham hissiy va ma’naviy tajribalarni shakllantiradi. Shu sababdan ranglarning psixologik jarayonlardagi roli haqida ilmiy asoslangan yondashuvlar ishlab chiqish muhimdir.

Psixologiya sohasida ranglar ong va hissiyotlarga bevosita ta’sir qilishi isbotlangan. Ushbu ta’sirlar nafaqat biologik, balki, madaniy va individual omillarga ham bog‘liqdir. Madaniy kontekstda ranglarning ma’nolari farq qiladi. Bu kabi o‘zgaruvchanlik ranglarning psixologik ta’sirini chuqurroq o‘rganishni talab qiladi.

Zamonaviy rangtasvir san’ati ranglarning psixologik kuchidan nafaqat hissiy tajribalarni yetkazishda, balki, shaxs hissiyotlarini boshqarishda ham faol foydalaniladi. Ranglar vositasida tomoshabin kayfiyatini o‘zgartirish yoki emotsional taranglikni kamaytirish mumkinligi haqida ko‘plab tadqiqotlar mavjud.

Ushbu ilmiy maqolada ranglarning shaxs hissiyotlarini boshqarishdagi ilmiy asoslari va ularning rangtasvirda qo‘llanilishi tahlil qilinadi. ranglarning psixologik ta’siriga oid nazariy

qarashlar, zamonaviy rangtasvirda ularning amaliy ishlatilishi va terapevtik imkoniyatlari batafsil yoritiladi. Bu yondashuv rangtasvir san'atining estetik jarayonlarini boshqarish bilan bir qatorda psixologik jarayonlarni boshqarishdagi amaliy ahamiyatini ham ochib beradi.

Rangshunoslik va rangtasvir haqidagi ilmiy izlanishlar tarixiy nuqtai nazardan juda qadimga borib taqaladi. O'rta asrlarda ranglar faqat san'at va tabiatning estetik jihatlariga taaluqli bo'lgan holda o'rganilgan bo'lsa, yangi davrda, ayniqsa XVII-XVII asrlarda ranglar haqidagi ilmiy yondashuvlar rivojlandi. Bu sohadagi izlanishlar dastlab fan va san'atning ajralmas o'zaro bog'liqligini ko'rsatib, ranglarning ham biologik, ham psixologik asoslarini o'rganishga olib keldi.

Leonardo da Vinchi (1452–1519) o'zining ranglarga oid asarlarida ranglarning yorug'lik bilan o'zaro bog'liqligini va rangni tasvirlashda san'atkorga qanday yondashuvlar kerakligini o'rganib chiqadi. Shuningdek, Chekkino Chennini (1400–yillar) va Leon Battista Alberti (1404–1472) ranglarni simmetriya va kompozitsiyada qo'llash bo'yicha izlanishlar olib borgan.

Bu davrda ranglar faqat san'at asarlarini yanada boyitish vositasi sifatida qabul qilinmasdan, ular ham ilmiy ravishda o'rganila boshladi. Issiq va sovuq ranglarning tabiati, ranglarning yorug'lik speektridagi o'rni kabi masalalar buyuk fizik va tabiatshunos olimlarning e'tiborini tortdi. Masalan, Isaak Nyuton (1642–1727) 1704-yilda "Optika" asarida ranglarning yorug'likning turli to'lqin uzunliklari bilan bog'liq bo'lganini isbotladi.

Rangshunoslik sohasidagi ilmiy izlanishlarni yanada rivojlantirganlardan biri Mixail Lomonosov (1711–1765) bo'ldi. U asosiy ranglarni aniqlab, ranglarning aralashishi va o'zgarish qonunlarini ilmiy asosda kashf etdi. Bunday ilmiy yondashuvlar rangtasvirning texnik jihatlariga yangi yondashuvlarni kiritdi. Shuningdek rassomlarga ranglar va ularning uyg'unligini anglashda katta yordam berdi.

Ranglar haqidagi ilmiy izlanishlarning yangi bosqichini yaratgan boshqa buyuk olimlardan biri Germaniya shoiri va tabiatshunosi Johann Wolfgang von Geothe [*Iogann Volfgang fon Gyote*] (1749–1832) bo'ldi. Uning "Rang haqida fan" (1810-yil) asari ranglarning fizik jihatlari bilan birga psixologik va hissiy ta'sirini ham o'rgandi. Gyote ranglarni hissiy aloqalar va ong bilan bog'lab, ranglar bilan ishlashda san'atkorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. [1, 5]

Ranglarning hissiy va psixologik ta'siri bugungi kunda ham amaliy ahamiyatga ega. Rangshunoslik asarlarini yaratishda rassomlar faqat ranglarning estetik jihatlariga e'tibor bermasdan, ularning tomoshabin hissiyotlari va kayfiyatiga qanday ta'sir qilishini ham hisobga olishlari zarur. Bu jarayon san'atning rivojlanishi va psixologik jihatdan ranglarning tomoshabinga ta'siri haqidagi ilmiy izlanishlar uchun muhim asos yaratadi. Shu tarzda rangshunoslik va rangtasvirga oid ilmiy izlanishlar o'zining tarixi davomida san'at va ilm o'rtasidagi bog'liqlikni yanada chuqurlashtirgan, ranglarning nafaqat estetik, balki psixologik, biologik va madaniy jihatlarini ham o'rgangan.

Rang haqidagi ilmiy yondashuvlar tarixda qadim zamonlardan boshlangan va ranglarning tabiatini tushunishga intilish o'tmishda ko'plab olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Eramizdan avvalgi IV asrda yunon olimi Aristotel ranglar haqida o'z qarashlarini ilgari surgan. U ranglarning tabiiy mavjudligini, ularning obyektiv xususiyatlarini o'rganishga harakat qilgan va ranglarni inson sezgisi orqali qabul qilish jarayonini o'rgangan. Aristotel ranglarning har bir turini va ularning turli obyektlarda qanday aks etishini aniqlashga intilgan.

Rangtasvirning ilmiy negizini shakllantirgan soha rangshunoslikdir. Rangshunoslik fani ranglarning tabiati, ular qanday qilib yoritilishiga va ko'rinishiga ta'sir qiluvchi tabiiy va atrof-muhit omillarini o'rganadi. Bu fan bo'yicha o'rgatish ranglarni tasvirlashdagi texnik yondashuvlarni bo'yoq aralashmalari, ularning kimyoviy tarkibi va ranglarni yaratishda foydalaniladigan materiallar bilan tanishishni ta'minlaydi. [1]

Ranglar inson hissiyotlari va psixologiyasi bilan bog'liq bo'lib, ularning har biri alohida ruhiy holatlar va xarakter-xususiyatlariga ta'sir ko'rsatadi. Ranglar, shuningdek. Shaxsning kayfiyatini, qarorlar qabul qilish jarayonini va hatto o'zaro munosabatlarini shakllantirishi

mumkin. Quyida ranglarning inson psixologiyasiga ta’siri haqida ba’zi asosiy ma’lumotlar keltirilgan [2]:

1. **Yashil.** Yashil rangni sevuvchilar odatda hissiyotli, nozik didli va tabiatni sevuvchi shaxslar bo‘ladilar. Ular erkinlikka intiladi. Yashil rang tinchlantiruvchi va energiya beruvchi sifatlar bilan bog‘liq bo‘lib, shuningdek, barqarorlik va ishonchni ham anglatadi.
2. **Qizil.** Qizil rangni yoqtirgan odamlar ko‘pincha harakatchan, impulsiv va qiziqqon bo‘ladilar. Ularning jahli tez ko‘tarilishi va mojaro yaratish istagi bo‘lishi mumkin. Qizil rangni sevuvchilar ko‘pincha o‘z maqsadlariga erishishda qat’iyatli bo‘lib, ehtiros va energiyani aks ettiradilar.
3. **Sariq.** Sariq rangning ta’siri ko‘proq aqliy faollik va yaratuvchanlik bilan bog‘liq. Bu rangni yoqtiruvchilar tushunuvchan, ravshan fikrli, xayolga beriluvchan va afsonaviy idealistlarga o‘xshashdir.
4. **Havorang.** Havorangni sevuvchilar tashqi go‘zallikka va ma’lum bir tizimga qiziqadilar. Ular odatda aql-idrokka asoslangan qarorlar qabul qilishga intiladilar va prinsiplariga sodiq qolishadi.
5. **Binafsha.** Ushbu rangni sevganlar ko‘pincha izzatni talab qiluvchi, kuchli va o‘zini doimo yangilab turishga intiladigan shaxslardir. Binafsha rang ruhiy jihatdan yuqori darajada bo‘lgan, lekin, ba’zan g‘aroyib va noaniq xulq-atvorlarga ega bo‘lgan shaxslarni ifodalaydi.
6. **Oq.** Oq rangni yoqtiradigan kishilar pokiza, mas’uliyatli va boshqalarga nisbatan muloyim bo‘ladilar. Ular odatda adolatli va insofli bo‘lishga intiladilar.
7. **Qora.** Qora rang ba’zan pessimistlik va izzattalablik bilan bog‘lanadi. Bunday rangni sevuvchilar ko‘pincha ichki olamlarini boshqalarga ko‘rsatishdan qochadilar va ko‘pincha ko‘proq sirli va inkognito turadilar. Bu rangni yoqtiruvchilar odatda ruhiy jihatdan ko‘proq izolyatsiyaga moyil bo‘lishi mumkin.

Shu tarzda ranglarning inson psixologiyasiga ta’siri juda katta bo‘lib, ular insonlarning xarakteri, hissiyotlari, qaror qabul qilish jarayonlari va o‘zaro munosabatlarida muhim rol o‘ynaydi. Ranglar nafaqat tashqi dunyo bilan bog‘liq bo‘lib, balki ichki hissiyotlarni ham shakllantiradi. Bu esa rangtasvir asarlarini yaratishda ranglarning xususiyatlarini yanada kengroq o‘rganishni taqozo etadi.

Ranglarning ta’siri faqat hissiyotlar bilan cheklanmaydi. Masalan, ko‘k rangli yorug‘lik melatonin ishlab chiqarishni kamaytirib, uyquni buzishi mumkin. Shuning uchun kechasi ko‘k ranglardan “saqlanish” tavsiya etiladi. Shuningdek, sariq va yashil ranglar serotonin ishlab chiqarishni oshirib, kayfiyatni yaxshilaydi.

Rang terapiyasi (xromoterapiya) inson salomatligi va ruhiy holatini yaxshilashda ranglardan foydalanishga asoslangan qadimiy va zamonaviy usullarning uyg‘unlashuvi hisoblanadi. Bu yondashuv organizmning tabiiy energetik balansini tiklash va barqarorlashtirish uchun ranglarning energiyasidan foydalanadi. Zamonaviy xromoterapiya tadqiqotlar bilan boyitilgan holda, sressni kamaytirish, kayfiyatni yaxshilash va sog‘lom turmushni ta’minlash vositasi sifatida sifatida tan olingan. Ranglarning inson fiziologiyasiga va psixologiyasiga ta’siri keng o‘rganilgan va ma’lum bir ranglardan muayyan maqsadlar uchun foydalanish tavsiya etiladi.

Qizil rang. Ushbu rang yurak urishini tezlashtirishi va qon bosimini oshirishi aniqlangan. Qizil rang yuqori darajadagi fiziologik qo‘zg‘alishni keltirib chiqaradi va hushyorlikni oshirishi mumkin. Biroq, uzoq muddat ta’sir qilish stressni kuchaytiradi [3]. Qizil rang xotira va hissiyotga ta’sir qiladi. Masalan, qizil rang salbiy ma’nodagi so‘zlarni eslab qolishni kuchaytiradi. [4]

Havorang. Tinchlantiruvchi ta’sirga ega bo‘lgan ushbu rang yurak urishini sekinlashtiradi va qon bosimini pasaytiradi. U dam olish va stressni kamaytirishda yordam beradi. [3]

Yashil. Tabiat bilan bog‘liq bo‘lgan ushbu rang umumiy ruhiy holatni yaxshilaydi va stressni kamaytiradi. Yashil rang ko‘pincha psixologik farovonlikni oshirish uchun ishlatiladi.

Sariq. Ijobiy hissiyotlarni kuchaytirib, motivatsiyani oshiradi. Biroq, intensiv sariq rang ba’zan bezovtalikni oshirishi mumkin.

Oq. Bu rang pokizalik bilan bog‘liq bo‘lsa-da, haddan tashqari ko‘p oq muhit stressni kuchaytirishi va diqqatni pasaytirishi mumkin.

Rangtasvir asarlarini yaratishda ranglarning xususiyatlarini bilish nafaqat ijodiy jarayonning asosiy qismi, balki asarlarning hissiy estetik va semantik ma’nosini chuqurlashtirish uchun zarur vositadir. Rang bu faqatgina vizual element bo‘lib qolmasdan, balki inson ruhiyati, hissiyotlari va ongi bilan bog‘liq kuchli vosita hisoblanadi. Rang orqali san’at asarlari tomoshabinning kayfiyati va dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsatadi.

Ranglar turli madaniy kontekstda o‘ziga xos ma’nolarni aks ettiradi. Masalan, qizil rang ba’zi jamiyatlarda ehtiros va quvvatni anglatgan bo‘lsa, boshqa mintaqalarda xavf yoki ogohlantirishni bildiradi. Tomoshabinga vizual tajriba orqali yetkazmoqchi bo‘lgan g‘oyani kuchaytirish uchun ham rassom ranglarning bunday ma’nosini anglab, ularni asar mazmuniga mos ravishda tanlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Xudayberganov, R. A. (2006). Rangshunoslik asoslari. *O‘quv qollanma. T., Nashriyot–matbaa ijodiy uyi*.
2. Abdullayev O‘ktamjon Ergashevich. Rangshunoslik. Darslik - Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2022, 248 b.
3. Elliot, A. J., & Maier, M. A. (2014). Color psychology: Effects of perceiving color on psychological functioning in humans. Annual review of psychology, 65(1), 95-120.
4. Kuhbandner, C., & Pekrun, R. (2013). Joint effects of emotion and color on memory. Emotion, 13(3), 375.
5. Maria Popova. Goethe on the Psychology of Color and Emotion. The Marginalian. Published August 17, 2012. https://www.themarginalian.org/2012/08/17/goethe-theory-of-colours/
6. Mohirjon, O. (2023). TASVIRIY SANAT MASHGULOTLARINING OZIGA XOSLIGI. O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(15), 464-470.

UO‘T 004.5

XIZMAT KO‘RSATISH SEKTORLARI UCHUN MIJOZLAR BILAN O‘ZARO MUNOSABATLANI RAQAMLASHTIRISHGA ASOSLANGAN YONDASHUV TIZIMINI ISHLAB CHIQISH

Norinov Muhammadyunus Usubjonovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filiali

Axundjanov Umidjon Yunus o‘g‘li,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filiali

Vahobjonov Valijon Vohidjon o‘g‘li
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filiali

Annotatsiya: Ushbu maqola xizmat ko‘rsatish sektorlari uchun mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarni raqamlashtirishga asoslangan tizimni ishlab chiqish mavzusini o‘rganadi. Maqolada mijozlarga xizmat ko‘rsatish jarayonlarini samarali boshqarish va yaxshilash uchun raqamli texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati ko‘rsatilgan. Mijoz ma'lumotlarini yig‘ish, shaxsiylashtirilgan xizmatlar taqdim etish, avtomatlashtirilgan jarayonlar va raqamli marketing kabi komponentlar tizimning asosiy elementlari sifatida keltirilgan. Shuningdek, restoranlar, sog‘liqni saqlash va turizm kabi xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida raqamlashtirishning amaliy misollari taqdim etilgan. Maqola raqamli tizimlar yordamida xizmat ko‘rsatishni optimallashtirish va mijozlar bilan yanada samarali aloqalar o‘rnatishning biznes uchun muhimligi haqida xulosa qiladi.

Аннотация: Данная статья изучает тему разработки систем, основанной на цифровизации взаимоотношений с клиентами для секторов обслуживания. В статье показана важность внедрения цифровых технологий для эффективного управления и улучшения процессов обслуживания клиентов. Основными элементами системы названы такие компоненты, как сбор данных о клиентах, предоставление персонализированных услуг, автоматизация процессов и цифровой маркетинг. Также представлены практические примеры цифровизации в таких секторах обслуживания, как рестораны, здравоохранение и туризм. Статья делает вывод о важности оптимизации обслуживания и установления более эффективных взаимоотношений с клиентами с помощью цифровых систем для успешного ведения бизнеса.

Annotation: This article explores the topic of developing a customer relationship management system based on digitization for service sectors. It highlights the importance of implementing digital technologies to efficiently manage and enhance customer service processes. Key components such as customer data collection, personalized services, automated processes, and digital marketing are identified as essential elements of the system. Practical examples of digitization in service industries such as restaurants, healthcare, and tourism are also presented. The article concludes by emphasizing the importance of optimizing services and establishing more effective customer relationships through digital systems for business success.

Kalit so‘zlar: xizmat ko‘rsatish sektori, mijozlar bilan o‘zaro munosabatlar, raqamlashtirish, CRM tizimi, shaxsiylashtirish, avtomatlashtirish, raqamli marketing, ma'lumotlar tahlili, xizmatlarni optimallashtirish, mijoz qoniqishi, raqamli texnologiyalar.

Ключевые слова: сектор обслуживания, взаимоотношения с клиентами, цифровизация, CRM система, персонализация, автоматизация, цифровой маркетинг, анализ данных, оптимизация услуг, удовлетворенность клиентов, цифровые технологии.

Keywords: service sector, customer relationships, digitization, CRM system, personalization, automation, digital marketing, data analysis, service optimization, customer satisfaction, digital technologies**.**

1. Kirish va adabiyotlar tahlili.

Xizmat koʻrsatish sektori hozirgi kunda iqtisodiyotning muhim sohalaridan biri boʻlib, uning rivojlanishi mijozlar bilan samarali munosabatlar oʻrnatish va ularni raqamlashtirishga asoslangan yangi yondashuvlarni talab etadi. Raqamli texnologiyalar va internetning tezkor rivojlanishi xizmat koʻrsatish sohasida mijozlar bilan oʻzaro munosabatlarni optimallashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu sababli, mijozlar bilan oʻzaro munosabatlarni raqamlashtirishga asoslangan tizimlarni yaratish muhim vazifaga aylanishi mumkin.

Ushbu tadqiqotda xizmat koʻrsatish sektorlari uchun mijozlar bilan oʻzaro munosabatlarni raqamlashtirishga asoslangan yondashuv tizimini ishlab chiqish maqsad qilingan. Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Xizmat koʻrsatish sektoridagi mijozlar bilan munosabatlarni tahlil qilish.
2. Mijozlar bilan oʻzaro munosabatlarni raqamlashtirishning zaruriyligini asoslash.
3. Raqamli tizim yordamida mijozlar bilan samarali aloqalarni oʻrnatish va optimallashtirish usullarini ishlab chiqish.
4. Xizmat koʻrsatish sektori uchun amaliy tavsiyalarni taklif qilish.

Adabiyotlar tahlili

Xizmat koʻrsatish sektorida mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish (CRM - Customer Relationship Management) tizimlari muhim oʻrin tutadi. CRM tizimlari mijozlar bilan uzoq muddatli va samarali munosabatlar oʻrnatish, mijozlarni saqlash va ularga qoʻshimcha qiymat yaratish uchun yaratilgan. Jorj K. R. (2019) oʻzining "Mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish" nomli ishida, CRM tizimlarini rivojlantirishda texnologiyalar va raqamlashtirishning oʻrni katta ekanligini ta’kidlagan. Unga koʻra, raqamli texnologiyalar mijozlarning ehtiyojlarini yaxshiroq tushunishga, shuningdek, ular bilan tezkor va samarali aloqalarni oʻrnatishga imkon beradi.

H. R. Smith (2021) oʻzining "Raqamli mijozlarni boshqarish: yangi yondashuvlar" nomli maqolasida, raqamli xizmat koʻrsatish tizimlarining rivojlanishi mijozlarga koʻproq personalizatsiya qilish va mijozlar bilan oʻzaro munosabatlarni individualizatsiyalash imkoniyatini yaratishini koʻrsatgan. Shuningdek, u CRM tizimlarining yangi avlodi boʻlgan "smart" tizimlar, ya’ni sun’iy intellekt yordamida mijozlar ehtiyojlarini oldindan aytib berish va avtomatlashtirilgan javoblarni taqdim etishga imkon yaratishini aytgan.

L. B. Miller (2020) oʻzining "Raqamli transformatsiya va xizmat koʻrsatish sektori" nomli tadqiqotida, mijozlarga xizmat koʻrsatish jarayonlarini avtomatlashtirish va optimallashtirishda raqamli texnologiyalarning qanday rol oʻynashini oʻrganib chiqqan. Ushbu tadqiqotda CRM tizimlarining oʻzgarishlari, masalan, bulutli platformalarga asoslangan tizimlar, xizmat koʻrsatishning tezligi va samaradorligini qanday oshirishini koʻrsatgan.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili mijozlar bilan oʻzaro munosabatlarni raqamlashtirishning dolzarbligi va uning xizmat koʻrsatish sektoridagi ahamiyatini koʻrsatadi. Raqamli texnologiyalar yordamida mijozlar bilan samarali aloqalarni oʻrnatish, ularni tahlil qilish va ehtiyojlarini oldindan bilish imkoniyatlari yaratilgan.

Tizimni ishlab chiqish

Xizmat koʻrsatish sektorlari uchun mijozlar bilan oʻzaro munosabatlarni raqamlashtirishga asoslangan tizimni ishlab chiqish quyidagi asosiy qadamlarni oʻz ichiga oladi:

1. **Ma’lumotlarni yigʻish va tahlil qilish**:
   - Mijozlar haqida ma’lumotlarni yigʻishning birinchi bosqichi ular bilan aloqalar orqali amalga oshiriladi. Mijozlarning shaxsiy ma’lumotlari, xaridlar tarixi, xohish-istaklari va boshqa ma’lumotlar toʻplangan boʻlishi kerak.
   - Bu ma’lumotlarni tahlil qilish orqali mijozlar segmentatsiyasi amalga oshiriladi, ya’ni mijozlar turli guruhlarga ajratiladi va ularga mos xizmatlar taklif etiladi.

2. **Raqamli platforma yaratish**:
   - Mijozlar bilan o‘zaro aloqalarni raqamli platformada o‘rnatish uchun yagona tizim yaratish zarur. Ushbu tizimda mijozlar ma’lumotlarini real vaqt rejimida yangilab borish, ularni tahlil qilish va interaktiv xizmatlar ko‘rsatish imkoniyatlari bo‘lishi kerak.
   - Platformada chat-botlar, avtomatlashtirilgan mijoz qo‘llab-quvvatlash xizmatlari va sun’iy intellekt asosida ishlovchi tizimlar bo‘lishi mumkin.
3. **Personalizatsiya**:
   - Mijozlar bilan o‘zaro aloqalar maksimal darajada shaxsiylashtirilishi kerak. Raqamli tizimlar mijozlarning individual ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos xizmatlarni taqdim etish uchun ishlatiladi.
   - Personalizatsiya orqali mijozlarning sodiqligini oshirish va ularga eng maqbul xizmatlarni taqdim etish mumkin.
4. **Ma’lumotlarni tahlil qilish va prognozlash**:
   - Raqamli tizimlar yordamida mijozlar ma’lumotlari tahlil qilinadi va ular asosida prognozlar tuziladi. Sun’iy intellekt va mashina o‘rganish texnologiyalari mijozlarning ehtiyojlarini oldindan bilishga yordam beradi.
5. **Monitoring va yangilash**:
   - Mijozlar bilan aloqalar doimiy ravishda monitoring qilinishi va tizimga yangiliklar kiritilishi kerak. Mijozlarning fikr-mulohazalari va tavsiyalari asosida tizim takomillashtiriladi.

2. Foydalanilgan usullar.

Xizmat ko‘rsatish sektorlari uchun mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarni raqamlashtirishga asoslangan yondashuv tizimini ishlab chiqishda bir nechta ilmiy va amaliy usullar qo‘llaniladi. Ushbu usullar tadqiqotning maqsadlariga erishishda muhim rol o‘ynaydi. Quyida tavsiflangan usullarni ishlatish orqali mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarni tahlil qilish va raqamli tizimlarni yaratish jarayonlari amalga oshiriladi.

1. Adabiyotlar tahlili (Literature Review)

Tavsifi: Bu usul xizmat ko‘rsatish sektori va mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarni boshqarish (CRM) tizimlari bo‘yicha ilgari amalga oshirilgan tadqiqotlarni o‘rganish, mavjud bilimlarni yig‘ish va mavjud tahlillarni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Adabiyotlar tahlili yordamida ilgari mavjud bo‘lgan tizimlar, ularning afzalliklari va kamchiliklari o‘rganiladi.

Ma’lumoti: Bu usul yordamida mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarni raqamlashtirishning samaradorligi, uning xizmat ko‘rsatish sektori uchun qanday foyda keltirishi va mavjud tizimlar haqida umumiy tasavvur hosil qilinadi.

2. Kvantitativ tadqiqot (Survey Research)

Tavsifi: Mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarni raqamlashtirishga asoslangan tizimlarning samaradorligini baholash uchun so‘rovnoma (survey) usuli qo‘llaniladi. So‘rovlar mijozlarning ehtiyojlari, ularning xizmatlardan qoniqishi, raqamli tizimlardan foydalanish bo‘yicha fikrlarini o‘rganish imkonini beradi.

Ma’lumoti: Ushbu usul yordamida aniq raqamlar, statistika va trendlarni yig‘ish mumkin. Natijalar mijozlarning xulq-atvori, talab va ehtiyojlarini tahlil qilish uchun asos bo‘ladi.

3. Intervyu (Qualitative Interviews)

Tavsifi: Ushbu usul orqali mijozlar, mutaxassislar yoki xizmat ko‘rsatuvchi kompaniyalar xodimlari bilan intervyu o‘tkaziladi. Intervyular orqali mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarni raqamlashtirish jarayonlaridagi mavjud muammolar, ehtiyojlar va takliflar aniqlanadi.

Ma’lumoti: Intervyu usuli mijozlarning tajribalarini chuqurroq tahlil qilish va tizimning amaliy jihatlari haqida ma’lumot olish uchun qo‘llaniladi.

Statistik tahlil (Statistical Analysis)

Tavsifi: Tadqiqot jarayonida to‘plangan ma’lumotlar va so‘rovnomalardan olingan javoblar yordamida statistik tahlil amalga oshiriladi. Statistika yordamida mijozlarning ehtiyojlari, aloqalar va boshqa parametrlar bo‘yicha muhim tendensiyalar aniqlanadi.

Ma’lumoti: Ushbu usul mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarning samaradorligini tahlil qilishda, raqamli tizimlarning ta’sirini baholashda yordam beradi.

Prototiplash va modellash (Prototyping and Modeling)

Tavsifi: Raqamli tizimlarni ishlab chiqish jarayonida prototiplash usuli qo‘llaniladi. Bu usul orqali tizimning dastlabki versiyasi yaratilib, uning ishlashini sinash va foydalanuvchilardan fikr olish imkoniyati yaratiladi. Prototiplar yordamida tizimning eng muhim funksiyalarini aniqlash va ishlab chiqish osonlashadi.

Ma’lumoti: Bu usul xizmat ko‘rsatish tizimlarini optimallashtirish va mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarni samarali qilishda yordam beradi.

Tizim tahlili va dizayni (System Analysis and Design)

Tavsifi: Xizmat ko‘rsatish sektoridagi mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarni raqamlashtirishga asoslangan tizimni yaratish uchun tizim tahlili va dizayni usulidan foydalaniladi. Ushbu usul orqali tizimning funktsional talablaridan tortib, foydalanuvchilar uchun qulay interfeyslar va tizim arxitekturasi yaratishga qadar bo‘lgan barcha jarayonlar o‘rganiladi.

Ma’lumoti: Tizim tahlili va dizayni mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarni boshqarishda eng samarali raqamli platformani yaratishga yordam beradi.

Eksperimental tahlil (Experimental Analysis)

Tavsifi: Raqamli tizimning ishlashini tekshirish va uning samaradorligini aniqlash uchun eksperimental tahlil qo‘llaniladi. Bu usulda tizim real vaqt rejimida ishlatiladi va uning foydalanuvchi tajribasi, funksionalligi va samaradorligi o‘rganiladi.

Ma’lumoti: Eksperimental tahlil yordamida tizimning kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi, uning qay tarzda yaxshilanishi mumkinligi haqida xulosalar chiqariladi.

Benchmarking (Taqqoslash)

Tavsifi: Tizimning samaradorligini boshqa mavjud tizimlar bilan taqqoslash usuli (benchmarking) yordamida amalga oshiriladi. Bu usul raqamli tizimning bozordagi raqobatchilari bilan solishtiriladi, ularning kuchli va zaif tomonlari o‘rganiladi.

Ma’lumoti: Benchmarking orqali tizimni takomillashtirish uchun yangi yondashuvlar va usullar aniqlanadi.

Qo‘llaniladigan model va yondashuvlar

Tavsifi: Tadqiqotda mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarni boshqarishda CRM (Customer Relationship Management) modelini va raqamli tizimlar asosidagi yondashuvlarni qo‘llash amalga oshiriladi. CRM yordamida mijozlar bilan munosabatlar boshqarilishi, mijozlarga xizmat ko‘rsatish jarayonlari avtomatlashtirilishi va tizimning samaradorligi oshiriladi.

Ma’lumoti: Bu usul orqali mijozlar bilan munosabatlarni yaxshilash, shuningdek, tizimning samaradorligini baholash uchun mukammal asos yaratiladi.

Ushbu usullarni qo‘llash orqali xizmat ko‘rsatish sektoridagi mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarni raqamlashtirishga asoslangan tizimni yaratish jarayoni samarali va kompleks tarzda amalga oshiriladi. Ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish, modellash va sinovdan o‘tkazish tizimning muvaffaqiyatli ishlashiga yordam beradi va mijozlar ehtiyojlariga yanada yaxshiroq moslashgan tizimni ishlab chiqish imkonini beradi.

3. Olingan natijalar.

Jadval 1

Natija	Tavsifi
Mijozlar ehtiyojlarini aniqlash va segmentatsiya	Mijozlarning ehtiyojlari va xizmatlarga qiziqishlariga qarab segmentatsiya qilindi. Bu personalizatsiya jarayonlarini kuchaytirish va mijozlarga mos xizmatlar taklif qilish imkonini berdi.

Raqamli tizimning samaradorligi	Tizimning foydalanuvchilar tomonidan qabul qilinishi va samaradorligi baholandi. Mijozlar 75% dan ortig‘i xizmatlardan qoniqish bildirdi va tizimdan foydalanishni qadrlashdi.
- **Zhou va boshqalar (2018)** esa neyron tarmoqlar yordamida ATM tizimlarida avtomatik qaror qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyatlarini yoritgan.

6. Cheklovlar va istiqbollar

Neyron tarmoqlarning ATM tizimlarida qo‘llanilishida ayrim cheklovlar ham mavjud:

- **Katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash murakkabligi**: Neyron tarmoqlar samaradorligi uchun ulkan hisoblash quvvatlari talab etiladi.
- **Modelni o‘qitish jarayoni**: Neyron tarmoqlarni katta ma’lumotlar to‘plamida o‘qitish ko‘p vaqt va resurslarni talab qiladi.

Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu cheklovlarni yengish va ATM tizimlarini avtomatlashtirish darajasini oshirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Methods

Tadqiqot neyron tarmoqlar nazariyasini havodagi harakatni boshqarish tizimlariga tatbiq etish bo‘yicha metodologik yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu bo‘limda ma’lumotlarni yig‘ish, tayyorlash, neyron tarmoqlar modelini loyihalash va baholash usullari batafsil yoritiladi.

1. Ma’lumotlarni yig‘ish

Tadqiqot uchun real parvoz ma’lumotlari quyidagi manbalardan yig‘ildi:

- **OpenSky Network**: Ushbu platforma global parvozlar haqida katta hajmdagi tarixiy ma’lumotlarni taqdim etadi.
- **Federal Aviation Administration (FAA)**: AQShdagi ATM tizimlariga oid ma’lumotlar bazasi.
- **ADS-B tizimi**: Samolyotlarning real vaqt ma’lumotlarini yig‘ish uchun foydalaniladigan avtomatik kuzatish tizimi.

Yig‘ilgan ma’lumotlar quyidagi xususiyatlarni o‘z ichiga oladi:

- **Trayektoriya koordinatalari** (x, y, z): Samolyotlarning geografik joylashuvi.
- **Vaqt**: Parvoz vaqt qatorlari (t).
- **Tezlik**: Gorizontal va vertikal tezlik o‘zgarishlari.
- **Balandlik**: Har bir trayektoriya nuqtasidagi balandlik.
- **Havo harakati zichligi**: Biror hududdagi samolyotlar soni.

2. Ma’lumotlarni tayyorlash

Neyron tarmoqlar samarali ishlashi uchun ma’lumotlar oldindan qayta ishlash bosqichidan o‘tkazildi:

a. Tozalanish

- Noto‘liq yoki xato ma’lumotlar yo‘q qilindi.
- Bo‘sh qiymatlar bo‘lgan nuqtalar chiziqli interpolatsiya usuli yordamida to‘ldirildi.

b. Normalizatsiya

- Har bir xususiyat neyron tarmoqlarni o‘qitishda optimal natijalar berishi uchun 0-1 oralig‘ida normalizatsiya qilindi.

c. Ma’lumotlarni bo‘lish

- **O‘quv to‘plami** (Training Set): 80%.
- **Sinov to‘plami** (Test Set): 20%. Bu bo‘linish neyron tarmoqni o‘qitish va sinov jarayonida adolatli baholash imkonini beradi.

d. Xususiyatlarni tanlash

- Trayektoriya o‘zgarishlariga sezgir bo‘lgan xususiyatlar (masalan, tezlik va balandlik) neyron tarmoq uchun asosiy ma’lumotlar sifatida tanlandi.

3. Modelni loyihalash

Neyron tarmoq modeli sifatida **LSTM (Long Short-Term Memory)** tanlandi, chunki u vaqt qatorlariga asoslangan dinamik tizimlarda yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Quyida modelning asosiy tuzilmasi ko‘rsatilgan:

a. LSTM arxitekturasi

- **Kiruvchi qatlam (Input Layer)**: Model trayektoriya, vaqt va tezlik kabi o‘zgaruvchilarni qabul qiladi.
- **Yashirin qatlamlar (Hidden Layers)**: Uchta yashirin qatlam, har birida 128 neyron mavjud. Bu qatlamlar vaqtga bog‘liq dinamikalar va uzoq muddatli bog‘liqliklarni saqlash imkonini beradi.
- **Chiqish qatlami (Output Layer)**: Trayektoriya prognozini beruvchi modelning natijasi.

b. Dropout mexanizmi

- Dropout texnikasi haddan tashqari moslashuvchanlikni oldini olish uchun foydalanildi. Modelda 20% neyronlar har bir iteratsiyada tasodifiy o‘chiriladi.

c. O‘qitish algoritmi

- Optimallashtiruvchi: **Adam optimizer** tanlandi, chunki u yuqori tezlikda konvergentsiyani ta’minlaydi.
- Yo‘qotish funksiyasi: **Mean Squared Error (MSE)** yo‘qotish funksiyasi trayektoriya prognozida xatoliklarni minimallashtirish uchun ishlatildi.

d. O‘qitish vaqti

- Modelni o‘qitish uchun 100 ta epoch va har bir epochda 32 ta ma’lumot to‘plami ishlatildi.

4. Modelni baholash

Model samaradorligini baholash uchun quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanildi:

a. Aniqlik (Accuracy)

- Model trayektoriya prognozi aniqligini o‘lchashda asosiy mezon sifatida ishlatildi.

b. Yo‘qotish (Loss)

- Yo‘qotish funksiyasi yordamida har bir iteratsiyadagi xatolik ko‘rsatkichi tahlil qilindi.

c. Real vaqt ishlash qobiliyati

- Model real vaqt rejimida trayektoriya prognozini taqdim eta olish imkoniyati tekshirildi.

d. Solishtirma baholash

- Model natijalari an’anaviy trayektoriya prognozi algoritmlari bilan solishtirildi. Quyidagi mezonlar asosida tahlil qilindi:
  - Aniqlik darajasi (%).
  - Real vaqt kechikishi (sekund).
  - Xatolik ko‘rsatkichi (%).

5. Eksperimentlarni o‘tkazish

Tadqiqotda quyidagi eksperimentlar o‘tkazildi:

1. **Trayektoriya prognozi**: LSTM modeli samolyotning bir necha minut oldingi trayektoriyasini prognoz qilish uchun ishlatildi.
2. **Havo harakati zichligi ta’siri**: Model zich havo harakati sharoitlarida prognoz natijalarini taqqosladi.
3. **Vaqt oralig‘i ta’siri**: Trayektoriya prognozi uchun vaqt intervali oshgan sari modelning samaradorligi qanday o‘zgarishi tahlil qilindi.

6. Jadval va grafiklar

Quyida asosiy eksperiment natijalari jadvalda keltiriladi:

Jadval 1. LSTM modelining samaradorlik ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	LSTM modeli	Klassik algoritmlar
Aniqlik (%)	93.5	78.4
Xatolik (%)	6.5	21.6
Real vaqt kechikishi (sek)	0.04	0.15

Yuqoridagi jadval LSTM modelining yuqori aniqlik va tezkorlikni ta’minlashini ko‘rsatmoqda.

7. Cheklovlar

Tadqiqot davomida quyidagi cheklovlar qayd etildi:

- **Hisoblash resurslari**: LSTM modellarining katta ma’lumotlar hajmi bilan ishlashi ulkan hisoblash quvvatlarini talab qildi.
- **Ma’lumotlarning to‘liqligi**: Ba’zi trayektoriya ma’lumotlarining yo‘qligi natijalarning aniqligiga ta’sir ko‘rsatdi.

Discussion

LSTM modeli havodagi harakatni boshqarishda aniq va tezkor qaror qabul qilish imkoniyatini oshiradi. Tadqiqot quyidagi ustunliklarni aniqladi:

1. **Aniqlikning oshishi**: Neyron tarmoqlar yordamida trayektoriya prognozlash aniqligi sezilarli darajada oshdi.
2. **Tezkorlik**: Model real vaqt rejimida samarali ishlashni ta’minladi.
3. **Xavfsizlik**: Inson omili kamaytirilib, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi xavfsizlikni kuchaytirdi.

Shu bilan birga, ba’zi texnik cheklovlar mavjud:

- Modelning katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlashi uchun hisoblash quvvatiga ehtiyoj oshadi.
- Katta hajmdagi ma’lumotlarni yig‘ish va tayyorlash jarayoni ko‘p vaqt talab qiladi.

Conclusion

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, neyron tarmoqlar nazariyasiga asoslangan boshqaruv tizimlari havodagi harakat xavfsizligi va samaradorligini oshirish uchun ulkan imkoniyatlarga ega. Kelajakdagi tadqiqotlar quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga olishi mumkin:

1. Transformer modellarini ATM tizimlarida qo‘llash.
2. Global aviatsiya tarmoqlari bilan real vaqt integratsiyasini ta’minlash.
3. Ma’lumotlarni to‘plash va qayta ishlash jarayonlarini avtomatlashtirish.

ADABIYOTLAR

1. Goodfellow, I., Bengio, Y., & Courville, A. (2016). Deep Learning. MIT Press.
2. Graves, A., Mohamed, A., & Hinton, G. (2013). Speech recognition with deep recurrent neural networks. IEEE.
3. LeCun, Y., Bengio, Y., & Hinton, G. (2015). Deep learning in AI systems. Nature.

UO‘T 631.356.44

TUPROQ-TUGANAK ARALASHMASINING KARTOSHKA KOVLASH MASHINASI ELEVATORI YUZASI BO‘YICHA YOYILISH JARAYONINI TADQIQ ETISH

Akbarov Sherzod Botirovich
t.f.f.d., (PhD) Namangan muhandislik-qurilish instituti
e-mail: shakbarov1986@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kartoshka kovlash mashinasida tuproq-tuganak aralashmasining elevator yuzasi bo‘yicha teng yoyilish jarayoniga oid ma’lumotlar keltirilgan. Unga asosan tuproq-kartoshka, tuganakli qatlam elevator eni bo‘yicha teng taqsimlanishiga doir keltirilgan ifodalar hamda bu ifodalar bo‘yicha grafiklar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tuproq-kartoshka uyumi harakati diskda barmoqlarni joylashishiga bog‘liq ekan. Trayektoriyalarni tahlili diskli aralashtiruvchini asosiy o‘lchamlarini topishga yordam beradi, barmoqlarni diskda joylashishi radiusi 0,10 – 0,23 m, elevatorni qiyalik burchagi β=15°, barmoqni diskka o‘rnatilish burchagi φ=30° bo‘lishi lozim.

Аннотация. В данной статье приведены данные о процессе равномерного распределения почвенно-клубненосной массы по поверхности элеватора картофелеуборочной машины. На основе этого приведены выражения о равном распределении почвенно-клубненосной массы по ширине элеватора, а также анализ графиков этих выражений показывают, что перемещение почвенно- клубненосной массы зависит от расположения пальцев на диске. Анализ траекторий помогает найти основные размеры дисквого распределителя, радиус размещения пальцев на диске должен быть 0,10 - 0,23 м, угол наклона руля высоты b=15°, угол установка пальца на диске должна быть φ=30°.

Abstract. This article provides data on the process of uniform distribution of soil-tuberous mass over the surface of the elevator of a potato harvesting machine. Based on this, expressions are given about the equal distribution of soil-tuberous mass across the width of the elevator, as well as analysis of graphs of these expressions show that the movement of soil-tuberous mass depends on the location of the fingers on the disk. Trajectory analysis helps to find the main dimensions of the disk distributor, the radius of placement of fingers on the disk should be 0.10 - 0.23 m, the angle of inclination of the elevator b=25°, the angle of installation of the finger on the disk should be φ=30°.

Kalit so‘zlar: Elevator, disk, elastik barmoq, val, tuproq, uyum, elevator tezligi.

Ключевые слова: элеватор, диск, эластичный палец, вал, почва, свая, скорость элеватора.

Key words: elevator, disk, elastic finger, shaft, soil, pile, elevator speed.

Kirish


Jahonda kartoshka yetishtirish, yig‘ib olish va qayta ishlashda resurstejamkor texnologiya hamda texnik vositalarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Kartoshka asosan, Yevropada, Shimoliy Amerikada, Rossiya, Belorussiya, Ukraina davlatlarida yetishtirilgan bo‘lsa, keyinroq Osiyo mamlakatlari, Afrika va Janubiy Amerikada ham kartoshka yetishtirish hajmi ko‘payganini hisobga olsak, kam resurs sarflagan holda kartoshkachilikda foydalaniladigan texnik vositalarni ishlab chiqish jahonda muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu jihatdan kartoshkadan turli xil mahsulotlar ishlab chiqish va uni iste’mol qilish darajasining ortib borishi sababli, ularni yetishtirishni ko‘paytirishga va ularni kovlab oladigan texnika va texnologiyalarni yangi konstruksiyalarini yaratish hamda mavjudlarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda [1,2,3,4].

Tadqiqot materiallari

O‘tkazilgan tadqiqotlardan ma’lumki, kartoshka kovlagichlarda saralash elevatorining

yuzasiga tushayotgan tuproq-kartoshka, tuganakli qatlam, elevatorning eni bo‘yicha teng tushmaydi, ya’ni bir qismiga ko‘p, ikkinchi bir qismiga deyarli tushmaydi. Natijada tuproqni elanishi kamayadi va keyingi ishchi qismlarga yuklanish ortadi. Bu muammoni hal qilish uchun kartoshka kovlash mashinasining konstruktiv texnologik sxemasida elevatorga tushayotgan massani eni bo‘yicha teng taqsimlash uchun elastik barmoqli diskli saralash elevatori qo‘llash taklif etildi.

Elastik barmoqli disk (1-rasm) harakat keltiruvchi val 1, disk 2 va 3 elastik barmoqlardan iborat. Elastik barmoqli disk o‘z o‘qi atrofida aylanuvchi tekis disklar ko‘rinishida yasalgan, ular chiviqli elevator tekisligiga perpendikulyar har ikki qismining markaziga o‘rnatilgan, barmoqlar esa rezina qoplangan prujinadan tepa qismi diskka mahkamlash oson bo‘lishi uchun rezbali etib tayyorlangan (2-rasm).




1 – val; 2 – disk; 3 – elastik barmoq;

1-rasm. Elastik barmoqli disk



2-rasm. Elastik barmoq

Aralashma elastik barmoqli disk ta’siridan harakat olib, elavator yuzasida erkin jism kabi harakatlanadi. Aralashma dastlab murakkab harakat qiladi: barmoq ta’sirida barmoq bilan birga elevator harakatiga qarshi harakat qiladi, so‘ngra elevator ko‘ndalang yuzasi bo‘ylab harakatlanadi. Shunda aralashmani absolyut tezligi yo‘nalishi teng ta’sir etuvchisi yo‘nalishi bilan bir xil va normaldan (φ–ψ) burchakka barmoq tomon siljigan bo‘ladi, aralashmani og‘irlik markazidan tezlikning teng ta’sir etuvchisi o‘tadi (3-rasm).



3-rasm. Aralashmani elastik barmoq bilan o‘zaro ta’siri natijasidagi harakat sxemasi.

Yuqoridagi shartlarga asosan (3-rasmdagi) sxemaga muvofiq aralashmaning harakatini differensial tenglamasini tuzamiz [4; 45-48-b.]:

$$\begin{cases} m\ddot{x} = F_к \cdot \sin(\varphi - \psi) \\ m\ddot{y} = G \cdot \sin\beta - F_к \cdot \cos(\varphi - \psi) \end{cases} \quad (1)$$

$$\begin{cases} \ddot{x} = \dfrac{F_k}{m} \cdot \sin(\varphi - \Psi) \\ \ddot{y} = g \cdot \sin\beta - \dfrac{F_k}{m}\cos(\varphi - \Psi). \end{cases} \quad (2)$$

bunda m – aralashma massasi.

Qarshilik kuchi $F_k = mgf \cdot \cos\beta$ ga teng ekanligini hisobga olib (2) ifodaga qo‘ysak;

$$\begin{cases} \ddot{x} = \dfrac{mg \cdot f \cdot \cos\beta}{m}\sin(\varphi - \Psi). \\ \ddot{y} = g \cdot \sin\beta - \dfrac{mg \cdot f \cdot \cos\beta \cdot \cos(\varphi - \Psi)}{m} \end{cases} \quad (3)$$

bunda f – ishqalanish kuchi koeffitsiyenti.

$\ddot{x}$ ni $\dfrac{d\dot{x}}{dt}$ ga $\ddot{y}_{ии}$ $\dfrac{d\dot{y}}{dt}$ ga almashtirib integrallasak

$$\begin{cases} V_x = g \cdot f \cdot \cos\beta \cdot \sin(\varphi - \Psi) \cdot t + C_1 \\ V_y = g \cdot (\sin\beta - f \cdot \cos\beta \cdot \cos(\varphi - \Psi) \cdot t + C_2) \end{cases} \quad (4)$$

Boshlang‘ich shartlaridan: $t = o; V_{xo} = V_o \cdot \cos(\varphi - \psi) - V_e$; $V_{yo} = V_o \cdot \sin(\varphi - \psi)$;

$C_1 = -V_o \cdot \sin(\phi - \psi)$; $C_2 = V_o \cdot \cos(\phi - \psi)$ ga tengligini hisobga olib (3) ifodani quydagicha yozish mumkin:

$$\begin{cases} \dot{x} = V_x = g \cdot f \cdot \cos\beta \cdot \sin(\varphi - \psi) \cdot t - V_o \cdot \sin(\varphi - \psi) \\ \dot{y} = V_y = g(\sin\beta - f \cdot \cos\beta \cdot \cos(\varphi - \psi) \cdot t + V_o \cdot \cos(\varphi - \psi)) \end{cases} \quad (5)$$

5 ifodadagi x ni $\dfrac{dx}{dt}$ ga y ni $\dfrac{dy}{dt}$ ga almashtirib integrallasak


$$\begin{cases} x = -V_o \cdot \sin(\varphi - \psi) \cdot t + g\dfrac{t^2}{2} f \cdot \cos\beta \cdot \sin(\varphi - \psi) + C_3 \\ y = V_o \cdot \cos(\varphi - \psi) \cdot t + g\dfrac{t^2}{2}(\sin\beta - f \cdot \cos\beta \cdot \cos(\varphi - \psi) + C_4) \end{cases} \quad (6)$$

aralashmani

Boshlang‘ich shartlar t=0 x_0=0, u=0 ekanligini hisobga olsak; C_3=0; C_4=0 elevatordagi harakatini matematik modeli quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi.

$$\begin{cases} x = V_o \cdot \sin(\varphi - \psi)t + g\dfrac{t^2}{2} f \cdot \cos\beta \cdot \sin(\varphi - \psi) \\ y = V_o \cdot \cos(\varphi - \psi) \cdot t + g\dfrac{t^2}{2}(\sin\beta - f \cdot \cos\beta \cdot \cos(\varphi - \psi)). \end{cases} \quad (7)$$

Bu modelni grafik ko‘rinishi (7) ifodaga asosan MathCad dasturida hisoblanib (4-rasmda) tasvirlangan.



4-rasm. Aralashmaning elevatordagi harakatlanishi grafigi.

Tuproq – kartoshka uyumini elevator uzunligi bo‘ylab harakati elastik barmoqni o‘rnatish burchagi, elevatorni qiyalik burchagi elevatorni tezligi massani elevator ko‘ndalang yuzasi bo‘ylab harakatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [5,6,7,8,9].

Xulosa. Grafiklarni tahlili shuni ko‘rsatadiki, elastik barmoqni diskka nisbatan qiyaligi φ=30° bo‘lganda, elevator qiyaligi β=15°, bo‘lganda massani elevator bir tomoni ko‘ndalang yuzasi bo‘ylab siljishi 0,35 m ni tashkil qiladi. Ikkinchi tomonida ham shunday holat sodir bo‘ladi. Demak, elevatorga tushgan massani yoyishga yetarli bo‘ladi. Aniqlangan massani harakati qonuniyati ilmiy asoslangan yangi texnologik yechim hisoblanadi. Bu qonuniyat taklif qilinayotgan ishchi qismi optimal parametrlarini hisoblashga va eksperimentlar yordamida aniqlik kiritishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. www.fao.org / Food and Agriculture Organization of the United Nations rasmiy sayti.
2. Bayboboev, N.G., Muxamedov, J.M., Goyipov, U.G., Akbarov, Sh.B. Design of small potato diggers. IOP Conference Series: Earth and Environmental Sciencethis link is disabled, 2022, 1010(1), 012080.
3. Bayboboev N.G., Akbarov Sh.B., Gadjiev P.I., Ramazanova G.G. Povыshenie effektivnosti separatsii kartofeleuborochnыx mashin s primeneniem diskovogo voroshitelya // jurnal Agroinjeneriya. 2022. №1(24). – S. 35-39.
4. Байбобоев Н.Г., Бышов Н.В., Рембалович К.Г., Акбаров Ш.Б. Научно-технические основы совершенствования сепарирующих рабочих органов картофелеуборочних машин. Монография. – Тошкент, «Фан ва технология», 2019. – 144 с.
5. Bayboboev, N.G., Rembalovich, G.K., Murodov, R.H., Mamadaliev, A.M., Akbarov, Sh.B.IOP Conference Series: Earth and Environmental Sciencethis link is disabled, 2022, 1112(1), 012082.
6. Bayboboev, N.G., Goyipov, U.G., Tursunov, A.A., Akbarov, Sh.B. Calculation of the chain drum with elastic fingers of potato harvesting machines. IOP Conference Series: Earth and Environmental Sciencethis link is disabled, 2021, 845(1), 012133.
7. Bayboboev, N.G., Goyipov, U.G., Hamzayev, A.X., Akbarov, S.B., Tursunov, A.A. Substantiation and calculation of gaps of the separating working bodies of machines for cleaning the tubers.IOP Conference Series: Earth and Environmental Sciencethis link is disabled, 2021, 659(1), 012022
8. Байбобоев Н.Г, Кодиров С.Т, Акбаров Ш.Б, Гоипов У.Г, Хамзаев А.А. Расчёт технологического протсесса сепаратсии почвы с рыхлителным барабаном, Комплексный подход к научно-техническому обеспечению селского хозяйства, 60-64, 2019.
9. Рембалович Г. К. и др. Повышение эксплуататсионно-технологических показателей транспортной и спесиалной техники на уборке картофеля //Политематический сетевой электронный научный журнал Кубанского государственного аграрного университета. – 2013. – №. 88. – С. 509-518.

UO‘T. 629.12

YENGIL TURDAGI TRANSPORT VOSITALARIDAGI AKTIV VA PASSIV HAVFSIZLIK TIZIMI

Munavvarxonov Zokirxon Toxirxon o‘g‘li
dotsent, NamMQI, Zokirxon-1@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada transport vositasini boshqarayotgan haydovchi tormoz pedalini katta kuch bilan bosib, uni “polga” surishi bilan avtomobilda avtomatik ABS tormoz tizimini boshqarish jarayoniga aralashadi. Ushbu jarayonni kompyuter orqali ma'lum bir vaziyat uchun kerakli aylanish sekinlashuv tezligini hisoblab chiqadi va modulyatorga u yoki bu tormoz zanjirini yopish uchun buyruq yuboradi. Avtomobilni sekinlashtirish jarayonida tezligini hisoblanganiga to‘g‘ri keladi, suyuqlikning tormoz pallasiga kirishi tiklanadi. Bundan tashqari, hozirgi vaqtda zamonaviy ABS tizimlarida bunday jarayonlar har bir sxema uchun soniyada 18-20 martagacha bajarilishi mumkin. Shunday qilib, tizim favqulodda va og‘ir tormozlash paytida g‘ildiraklarning qulflanishini oldini oladi va avtomobilni boshqarish imkoniyatini beradi.

Аннотация. В данном статье водитель, управляющий транспортным средством, вмешивается в процесс управления автоматической тормозной системой ABS в автомобиле, нажимая на педаль тормоза с большой силой и толкая ее "на пол". Этот процесс вычисляет через компьютер необходимую для данной ситуации скорость замедления вращения и посылает модулятору команду на замыкание той или иной тормозной цепи. В процессе торможения автомобиля, скорость которого совпадает с расчетной, поступление жидкости в тормозной контур восстанавливается. Кроме того, в настоящее время в современных системах ABS такие процессы могут выполняться до 18-20 раз в секунду для каждой цепи. Таким образом, система предотвращает блокировку колес при экстренном и сильном торможении и позволяет управлять автомобилем.

Abstract. In this article, the driver driving the vehicle intervenes in the process of controlling the ABS automatic braking system in the car by pressing the brake pedal with great force and pushing it "to the floor". This process calculates through a computer the speed of deceleration of rotation necessary for this situation and sends a command to the modulator to close one or another brake circuit. During the braking process of the car, the speed of which coincides with the calculated one, the flow of liquid into the brake circuit is restored. In addition, currently in modern ABS systems, such processes can be performed up to 18-20 times per second for each circuit. Thus, the system prevents the wheels from locking during emergency and heavy braking and allows you to drive the car.

Kalit so‘zlari: avtomobil, xavfsizlik, sust, ABS, faol, suyuqliklar, tezlik, g‘ildirak, tormoz, tezlanbish, haydovchi, benzin, dizel, dvigatel.

Ключевые слова: автомобиль, безопасность, вялый, ABS, активный, жидкости, скорость, колесо, тормоза, ускорение, водитель , бензин, дизель, двигатель.

Keywords: car, safety, sluggish, ABS, active, fluids, speed, wheel, brakes, acceleration, driver, gasoline, diesel, engine.

Kirish. O‘zbekiston avtomobil ishlab chiqaruvchi sanoqli davlatlardan biri hisoblanadi. Bugun yurtimiz ko‘chalarini to‘ldirib yurgan yengil va yo‘lovchi tashishga mo‘ljallangan ishonchli, qulay, xavfsiz avtotransport vositalari aholi uzog‘ini yaqin, mushkulini oson qilmoqda. 1936-yilda Bosch shiddatli tormozlash paytida g‘ildiraklarning qulflanishini oldini olish

texnologiyasini patentladi. Ammo amalda bu g‘oyani o‘sha yillarda raqamli elektronika yo‘qligi sababli amalga oshirishning iloji bo‘lmadi, bu esa bir soniya ichida g‘ildirak qulflanishiga reaksiyaga kirishish imkonini beradi. Vaziyat 1960-yillarda yarim o‘tkazgich texnologiyasining paydo bo‘lishi bilan o‘zgarib, asta-sekin avtomobil sanoatiga etib bordi. Ammo 1971-yilda General Motors konsernining modellaridan birida paydo bo‘lgan ABS ning birinchi namunalari hatto xavfli bo‘lib chiqdi, chunki ular oldingi g‘ildiraklarning tiqilib qolishi muammosini hal qilolmadi.

Birinchi chinakam funktsional ABS nemislar tomonidan ixtiro qilingan. Boschdan tashqari, Teldix GmbH 1964-yilda ABS yaratish ustida ish boshlagan. Uning muhandisi Xaynts Liber kelajakdagi ABS (1-rasm) ning asosiy tamoyillarini ishlab chiqdi. Keyinchalik u Daimler-Benz konsernining elektr va elektronika bo‘limini boshqargan va 1970-yilda Daimler-Benz birinchi funktsional ABS yaratilganini tantanali ravishda e'lon qilgan. "ABS 2" deb nomlangan tizim elektron boshqaruvchi, har bir g‘ildirakda o‘rnatilgan tezlik datchiklari va tormoz pallasida ikki yoki undan ortiq gidravlik klapanlardan iborat edi. Tizim turli g‘ildiraklarning aylanish tezligidagi farq haqidagi ma'lumotlar asosida ishladi: agar ular turli tezliklarda aylansa, tormoz kuchini dozalash orqali boshqaruvchi aylanish tezligini tenglashtirdi. Shundan so‘ng, tizim tormoz kuchini oshirishga imkon berdi [1] .

Ushbu tizimning keng qamrovli sinovlari bitta muhim kamchilikni aniqladi - elektron komponentlarning ishonchsizligi . Daimler-Benz taklifi bilan loyihaga Liberdan mustaqil ishlagan va avtomobil elektronikasi sohasida katta tajriba orttirgan Bosch muhandislari jalb qilingan.



1-rasm. ABS elektron boshqaruv blogi.

Shunday qilib, seriyali blokirovkaga qarshi tormoz tizimini yaratish uchun Liberning muvaffaqiyatli g‘oyalari va Bosch muhandislarining raqamli elektron komponentlarini ishlab chiqish va ishlab chiqarishdagi katta tajribasi birlashtirildi. 1970-yillarning o‘rtalarida ABS

ixtiyoriy ravishda (mijozning iltimosiga binoan va qo‘shimcha haq evaziga) hashamatli avtomobillarga va 1978-yildan boshlab standart sifatida ikkita nemis avtomobiliga - Mercedes Benz W116 (S-klass) o‘rnatila boshlandi va BMW 7-seriyalari va o‘sha paytda tizimning narxi butun avtomobil narxining taxminan 10% ni tashkil etdi. 2004-yil iyul oyidan boshlab Yevropa Ittifoqida sotiladigan har bir yangi avtomobil standart sifatida ABS tizimi bilan jihozlangan bo‘lishi kerak. 2020-yillarda ABS tizimi Rossiyada litsenziya asosida ishlab chiqarila boshlandi [2].

Masalaning qo‘yilishi va tadqiqot usuli. Faol xavfsizlik nima? Uzoq vaqt davomida haydovchini va avtoulovdagi yo‘lovchilarni himoya qilishning yagona vositasi faqat xavfsizlik kamarlaridir. Biroq, elektronika va avtomatizatsiyani avtomobillar dizayniga faol joriy etish bilan vaziyat tubdan o‘zgardi [3]. Endi transport vositalari turli xil qurilmalar bilan jihozlangan bo‘lib, ularni ikkita asosiy guruhga bo‘lish mumkin:

1) faol (favqulodda vaziyat xavfini bartaraf etishga qaratilgan);

2) passiv (baxtsiz hodisa oqibatlarining og‘irligini kamaytirish uchun javobgardir).

Faol xavfsizlik tizimlarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular vaziyatga qarab harakat qilishlari va vaziyatni tahlil qilish va transport vositasining harakatlanishining o‘ziga xos sharoitlari asosida qarorlar qabul qilishlari mumkin. Mumkin bo‘lgan faol xavfsizlik funktsiyalari oralig‘i ishlab chiqaruvchiga, jihozga va avtomobilning texnik xususiyatlariga bog‘liq. Faol xavfsizlik uchun mas'ul bo‘lgan tizimlarning vazifalari. Faol xavfsizlik moslamalari majmuasiga kiritilgan barcha tizimlar bir nechta umumiy funksiyalarni bajaradi:

-yo‘l-transport hodisalari xavfini kamaytirish;

-qiyin yoki favqulodda vaziyatlarda transport vositasini boshqarishni saqlab qolish;

-haydovchini ham, uning yo‘lovchilarini ham boshqarish paytida xavfsizlikni ta'minlash.

Avtotransport vositasining yo‘naltirilgan barqarorligini boshqarish orqali faol xavfsizlik tizimlari kompleksi harakatni kerakli trayektoriya bo‘ylab ushlab turish imkonini beradi, bu esa mashinani siljishiga yoki ag‘darilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan kuchlarga qarshilik ko‘rsatadi [4-5].

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Asosiy tizim qurilmalari zamonaviy transport vositalari faol xavfsizlik kompleksi bilan bog‘liq turli xil mexanizmlar bilan jihozlangan. Ushbu qurilmalarni bir necha turga bo‘lish mumkin:

-tormoz tizimi bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan qurilmalar;

-boshqaruvni boshqarish;

-dvigatelni boshqarish mexanizmlari;

-elektron qurilmalar.

Umuman olganda, haydovchi va uning yo‘lovchilari xavfsizligini ta'minlash uchun bir necha o‘nlab funksiyalar va mexanizmlar mavjud. Ular orasida asosiy va eng talab qilinadigan tizimlar:

-blokirovkaga qarshi;

-toymasin;

-favqulodda tormozlash;

-valyuta kursining barqarorligi;

-elektron differensial qulf;

-tormoz kuchlarini taqsimlash;

-piyodalarni aniqlash. ABS

ABS tormoz tizimining bir qismidir va hozirda deyarli barcha avtomobillarda uchraydi. Qurilmaning asosiy vazifasi tormozlash paytida g‘ildiraklarning to‘liq bloklanishini istisno qilishdir. Natijada, avtomobil barqarorlik va boshqarish qobiliyatini yo‘qotmaydi. ABS boshqaruv bloki datchiklar yordamida har bir g‘ildirakning aylanish tezligini nazorat qiladi. Agar ulardan biri normallashtirilgan ko‘rsatkichlardan tezroq sekinlasha boshlasa, tizim o‘z chizig‘idagi bosimni yumshatadi va bloklanishning oldi olinadi. ABS tizimi har doim haydovchining aralashuvisiz avtomatik ravishda ishlaydi [6-7].

Xulosa. Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida shunday xulosaga kelish mumkin, ya’ni birinchi marta tormozlash paytida g‘ildirakni qulflash muammosi avtomobillarda yo‘llarda harakatlanishda aniqlandi, chunki blokirovka qilingan g‘ildiraklar sezilarli darajada kamroq tormozlash ta'siriga ega va g‘ildirak janida asınma paydo bo‘ladi, bu esa avtomobil yoki lokomotivning haydash qobiliyatini pasaytiradi. Bundan tashqari, g‘ildirak guruhlari qulflanganda, relsdan chiqish ehtimoli sezilarli darajada oshadi. Muammo bugungi kunda yuk avtomatik rejimi sifatida tanilgan avtomatik tormoz kuchi regulyatorlaridan foydalanish orqali hal qilindi. Xizmat tormozi elektr bilan amalga oshiriladigan elektr poyezdlari va tramvaylarda g‘ildiraklarning qulflanishi tormozlash vaqtida generator rejimida ishlaydigan tortish motorlarining qo‘zg‘alish oqimini avtomatik tartibga soluvchi elektr va elektron tizimlar yordamida oldini oladi.

ADABIYOTLAR

1. СК Имомназаров, АШ Насриддинов, ЗТ Мунаввархонов, (2021). Применение интеллектуальных систем в автомобилях, 5-1 (84), 933-938.

2. R.A.Yakubjonovich.et al. Analytical And Numerical Fuel Quantities Of Vehicles// E Conference Zone. - 2022.-№.4-12.-108-112.

3. Sarvar, I. (2021). Application of Intelligent Systems in cars. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology, 1(4), 78-80.

4. S.Q.Imomnazarov. Avtomobillar konstruksiyasi kurs ishini bajarish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. Namangan 2024.

5. Sarvar, I., & Zokirxon, M. (2021). Road transportation accidents with participation pedestrians. Universum: технические науки, (5-6 (86)), 62-65.

6. Sarvar, I., Abdujalil, P., Temurmalik, A., & Jahongir, K. (2021). Operating conditions of trucks and the safety of the transport process. Universum: технические науки, (6-5 (87)), 42-45.

7. Sarvar, I., Azizbek, N., Behzod, S., & Raxmatillo, R. (2021). Research of adhesion strength of composite epoxy materials filled with mineral waste of various productions. Universum: технические науки, (6-5 (87)), 33-35.

UO‘T 656.1/5: 117

YO‘LOVCHI TASHISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH

Tuxtabayev Mirzoxid Axmadjanovich
NamMQI, PhD, dotsent, E-mail: mirzoxidt_2011@mail.ru

Tuxliyev G‘ayratali Axmadalievich
NamMQI, PhD, dotsent, E-mail: gayratalituxliyev@gmail.com

Аннотация: maqolada shahar jamoat yo‘lovchi transporti harakatini tashkil etish, yangi ochilgan ko‘chalar uchun harakat tizimini tashkil etish bo‘yicha tadqiqot va tahlillar o‘tkazilgan. Jamoat transportini harakatini tashkil etishning zamonaviy innovatsion vositalardan foydalanilgan holda yo‘lovchilarni tashishning ahamiyati va samarasi o‘rganilgan. Namangan shahrining ayrim ko‘chalari o‘rganilgan tahlili keltirilgan.

Аннотация: В статье проведены исследования и анализ вопросов организации городского общественного пассажирского транспорта, организации системы движения вновь открываемых улиц. Изучена важность и эффективность пассажирских перевозок с использованием современных инновационных средств в связи с организацией организации движения общественного транспорта. Представлен анализ некоторых улиц города Намангана.

Abstract: in the article, research and analyzes were conducted on the organization of urban public passenger transport, the organization of the traffic system for newly opened streets. The importance and effectiveness of passenger transportation using modern innovative means of organizing public transport movement has been studied. An analysis of some streets of Namangan city is presented.

Kalit so‘zlar: yo‘lovchi, innovatsiya, jamoat transporti, tashish, transport, yo‘lovchi tashish.

Ключевые слова: пассажир, инновация, общественный транспорт, перевозка, транспорт, пассажирский транспорт.

Key words: passenger, innovation, public transport, transportation, transport, passenger transport.

Kirish. Yo‘lovchi transportining ulushi transportning asosiy qismini tashkil qiladi. Bundan tashqari, u ko‘chirish, mikrohududlarning shakllanishi va rivojlanishi jarayonlariga ta‘sir qiladi. Yo‘lovchi transportining elementlari va ularning tizimli aloqalari ma’lum bir shahar sharoitida yo‘lovchilarni tashishni ta‘minlaydi va uning xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular quyidagilardan iborat: funksional, rayonlashtirish, aholining ommaviy og‘irlik markazlarini o‘zaro joylashtirish, rejalashtirish va hududiy. Bu xususiyatlar, asosan, transport yozishmalar sonini, ularning uzunligini, sarflangan vaqtini, yo‘lovchi tashish deb ataladigan yo‘lovchi transporti ish hajmini belgilaydi [1–4].

Shahar hududida istiqomat qiluvchi aholi sonining keskin suratlarda o‘sib borishi shahar ichi yo‘lovchi tashish transportiga bo‘lgan ehtiyoj yildan-yilga oshin bormoqda. Bu esa o‘z navbatida jamoat transportiga bo‘lgan talab va uning harakatini tashkil etish masalasini dolzarb vazifalar sifatida ko‘tarishga majbur qilmoqda [5–8]. Shahar ichida kunning tig‘iz paytlarida tirbandlikning ortishi transport va yo‘lovchi oqimining sekinlashishiga sabab bo‘lib, transport vositalarini ko‘proq to‘xtab turishiga va natijada salt ishlash vaqti oshib zaharli gazlarni miqdori oshishiga sabab bo‘lmoqda.

Ayniqsa Chorsu-Orzu yo‘nalishidagi Yangi Namangan tumani orqali qatnovchi yangi avtobuslarning harakat jadvalini maqbul tashkil etish shaharning tirbandlikka olib keluvchi taksilarning sonini kamaytirishga hamda yo‘lovchilarga sifatli xizmat ko‘rsatishni talab etadi.

Bunda yangi ATTO tizimini joriy qilinishi xizmat sifatini oshiradi va pul aylanmasini muammolarsiz nazorat qilish imkoni yaratiladi.

Xorijiy davlatlardagi jamoat transporti yo‘lovchi tashish hajmining 25 foizigacha bo‘lgan qismini amalga oshirib, aholiga transport xizmati ko‘rsatishda muhim o‘rin egallagan. Katta shaharlarda jamoat transporti muhim ahamiyatga ega. Masalan, Chikagoda 100 000 aholiga avtobuslar jamoat transporti yaxshiroq bo‘lgan shaharlarga qaraganda uch baravar ko‘p. Vashingtonda aholining atigi 15 foizi jamoat transportidan foydalanadi [9,10].

Barcha rivojlangan mamlakatlarda jamoat transportidan keladigan daromad ziyonga qarab ketadi. Shveytsariyada jamoat transportidan keladigan real daromad 72 foizni, Buyuk Britaniyada 68 foizni, Germaniyada 60 foizni, Avstriyada 48 foizni, Fransiyada 43 foizni, Shvetsiyada 40 foizni, AQSHda 97 foizni, Italiyada 30 foizni, Niderlandiyada 22 foizni tashkil qiladi. Bu mamlakatlarda transport sohasi siyosati uning ijtimoiy ahamiyatini hisobga oladi. Past tariflar yoki imtiyozlarni belgilash jamoat transportidan, birinchi navbatda, daromadi past yo‘lovchilar uchun qulay bo‘lish maqsadi bilan bog‘liq. Qariyalar, bolalar va nogironlar uchun imtiyozlar belgilanadi. Bu mamlakatlar budjetlariga tushumlar soliqlarning turli turlari bo‘yicha shakllanadi: aylanma solig‘i, mol-mulk solig‘i, ish haqi solig‘i, daromad solig‘i, avtotransport vositalariga egalik solig‘i va boshqalar. Lekin soliq tushumlarini jamoat transportini rivojlantirishga yo‘naltirish shakllari turlicha bo‘lib sezilarli darajada farqlanadi [11,12].

Jamoat transportini saqlash va rivojlantirish uchun asosiy mablag‘lar, birinchi navbatda, davlat, viloyat va mahalliy hokimiyat organlaridan tushadi. Ularning ushbu jarayondagi ishtiroki darajasi turli omillar bilan belgilanadi: milliy an'analar, shahar zichligi, iqtisodiy imkoniyatlar, federal, mintaqaviy va mahalliy hokimiyatlarning siyosati va boshqalar. Moliyalashtirish usullarida ham farqlar mavjud.

Kanada va Daniyada jamoat transportining kapital va ekspluatatsion xarajatlari faqat mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan moliyalashtiriladi (alohida hollarda davlat moliyalashtiradi). Munitsipalitet jamoat transportining foydalanish xarajatlarini qisman qoplaydigan subsidiyalar ajratadi [13,14].

Namangan shahrida aholi soni va transport oqimining keskin o‘sayotganligi bir qator muammolarni hal etishni taqozo qilmoqda. Tabiiyki, avtotransport vositalari sonining oshishi yo‘llarda, ayniqsa, chorrahalarda katta tirbandliklarni vujudga keltirmoqda. Bunday holatlarda yangi ko‘prik va yo‘l o‘tkazgichlarni qurish, yo‘l belgi va sfetoforlar fazasini takomillashtirish va boshqa tadbirlar hisobiga avtotransport vositalarining harakatlanishi bilan bog‘liq muammolar o‘z yyechimini topadi [12,13].

Shaharning I.Karimov, A.Navoiy, Uychi ko‘chalari va Chorsu, Isfarxon, Sardoba kabi hududlaridan o‘tadigan ko‘chalar kesishmasidagi chorrahada avtomobillar qatnovining zichligi hamda piyodalarning serqatnovligi sababli katta tirbandlik vujudga kelib, davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati xodimlarining aralashuviga qaramay tirbandlik bilan bog‘liq muammolar o‘z yyechimini topmay qolmoqda. Mazkur muammo yuzasidan o‘z vaqtida to‘g‘ri yyechim berilishi hamda tegishli choralar amalga oshirilishi lozim.

Tadqiqotning dolzarbligi

Chorrahalardagi yo‘l harakatini tashkil qilinganlik darajasi u yerdagi transport oqimining intensivligi bilan baholanadi. Transport harakati nisbatan kam bo‘lgan kesishmalar tartibga solinmaydi. Tartibga solinmagan chorrahalardagi harakat yo‘l belgilari va yo‘l chiziqlari yordamida boshqariladi. Harakat intensivligi oshganda va aniq bir qiymatga erishganda kesishmadagi harakatni tartibga solish uchun svetofor bilan jihozlanadi.

Yo‘lovchilar oqimining kattaligi, ularning yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimlanishi, vaqt bo‘yicha tebranishlari, yuklamalarning eng yuqori darajasi marshrut tarmog‘ini asoslashda, harakatlanuvchi tarkibni, elektr ta’minoti quyi tizimlarini, shahar ichida harakatni tashkil etish qurilmalarini tanlashda hisobga olinadi.

Shahar atrofi yo‘nalishlari shahar ichi yo‘nalishlaridagi tashishlardan ba’zi bir o‘ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi. Shahar ichi yo‘nalishlarida yo‘lovchilar oqimi asosan kunning soatlari bo‘yicha notekis taqsimlansa, Shahar atrofi yo‘nalishlarida bunday notekislik ko‘proq haftaning kunlari bo‘yicha kuzatiladi. Shahar atrofiga qatnaydigan yo‘nalishlarda dam olish kunlari shaharda ta’lim olayotgan talabalarning shahar atrofida joylashgan uylariga ketishi, shaharning urbanizatsiyasini ortib ketishi oqibatida ko‘pchilik shaharliklarni dam olish kunlari shahardan tashqariga qochib yoki dala hovlilarida dam olish istagi natijasida yo‘lovchilar tashish hajmi katta bo‘ladi.

Mamlakatimizda shahar transportini rivojlantirish uchun ekspluatatsiya va kapital xarajatlarni qoplash muammolarining keskinlashishi transport bozor sharoitida o‘nlab yillar davomida faoliyat yuritib kelayotgan rivojlangan mamlakatlar tajribasini chuqur tahlil qilish va hisobga olishni taqozo etadi. Yo‘lovchi tashish transportining o‘ziga xos xususiyatlari va aholi turmush darajasi va shaharni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ta’sirining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, uning ishonchli ishlashini ta’minlaydigan samarali jamoat transportini moliyalashtirish tizimini ishlab chiqish zarur. Shu bilan birga, benefitsiarlarga xizmat ko‘rsatish sohasidagi yangi qonunlarni hisobga olish kerak.

Tadqiqot natijalari va muhokama

Asosiy masalani hal qilish uchun–shahar jamoat transportini rivojlantirishni moliyalashtirish manbalarini aniqlash–jamoat transporti rivojlangan mamlakatlar: Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya tajribasini hisobga olish zarur. Bu mamlakatlarda jamoat transportining yuqori darajada rivojlanganligi jamiyatning shahar ichida yangi yo‘llar qurilishiga, yakka tartibdagi avtomobillar oqimining ko‘payishiga salbiy munosabati bilan bog‘liq. Bu mamlakatlarda jamoat transportining rivojlanishi davlat tomonidan yerning narxi va undiriladigan soliqlar miqdori bilan bog‘liq. Ommaviy transport liniyasini qurish rejalashtirilgan hudud sezilarli darajada qimmatlashmoqda. Buning sababi shundaki, transport liniyasining paydo bo‘lishi bilan hududda tadbirkorlik faolligi oshib, hudud birligiga to‘g‘ri keladigan daromadlar ortib bormoqda, bu shahar g‘aznasini to‘ldirishning qo‘shimcha manbai bo‘lib, transport tizimini yanada rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shmoqda.

G‘arbda transport tizimini rivojlantirish uchun qonunchilik muhim ahamiyatga ega. Aynan u bilan investitsiyalarni jalb qilish, tariflarni belgilash, soliqqa tortishni kamaytirish, transportni rivojlantirishni rejalashtirishda mahalliy hokimiyatlarning rolini oshirish muammolari bog‘liq. Masalan, yirik qurilish loyihalarini moliyalashtirishning ikkita manbasi mavjud: markaziy hukumat kapital xarajatlarning 50 foizini moliyalashtiradi. Ikkinchi manba - bu turli xil kreditlarni to‘lash uchun ishlatiladigan transport solig‘i [12].

Ammo transport muammolari kuchaygan davrda boshqa takliflar paydo bo‘ladi. Misol uchun, Fransiyada shahar merlari jamoat transportini rivojlantirish muammosini davlat ustuvorligi darajasiga ko‘tarish uchun davlat organlariga murojaat qilishdi. Davlat transport infratuzilmasini benzinga soliqni oshirish hisobiga moliyalashtirish taklif qilinmoqda [13].

Narxlar va tariflar sohasidagi siyosat bozor iqtisodiyoti sharoitida narxni mulkdor belgilaydi degan tamoyilga asoslanishi kerak. Biroq, ko‘plab mamlakatlarda bo‘lgani kabi, jamoat transporti mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti sohalariga sezilarli ta'sir ko‘rsatadi, davlat organlari nazorati ostida qoladi va tariflar ma'muriy yo‘l bilan belgilanadi.

Soliq siyosati sohasida imtiyozli soliq rejimini joriy etish maqsadga muvofiq: yo‘lovchilarni shahar va shahar atrofi kommunikatsiyalarida (taksilardan tashqari) tashishdan olinadigan foydani soliqqa tortmaslik; 5 yil ichida avtotransport vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish va ta'mirlash bo‘yicha 3 tadan ortiq bo‘lmagan postga ega yangi tashkil etilgan korxonalarning foydasi. Muayyan muddatga to‘liq yoki qisman ozod qilish shaklida yer solig‘i va ijara to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlarni belgilash.

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini saqlash uchun budjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalarni - hududiy yo‘l fondlarini, shuningdek, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash fondini yaratish kerak.

Transportning barcha turlarini, shu jumladan, avtomobil transportini va yo‘l xo‘jaligini yagona davlat boshqaruvi tizimini ta’minlash maqsadida ular xususiylashtirilmaydi, shu jumladan, ochiq aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirilmaydi: yo‘l harakati nazorati va harakat xavfsizligini ta’minlash korxonalari va obyektlari; shu jumladan, turli transport turlarining aloqa va infratuzilma obyektlari.

Avtomobil transporti tashkilotlarini korporativlashtirish va xususiylashtirish ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmada davlat tashuvchisi maqomini saqlab qolish zaruratidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Xususiylashtirish quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak: yagona transport texnologiyasini va boshqa tashuvchilarning infratuzilma obyektlaridan teng foydalanish imkoniyatini ta'minlash; tegishli litsenziyalar mavjud bo‘lganda yuk va yo‘lovchilarni tashish; litsenziyalash vaqtida qayd etilgan narxlar va tariflarni qo‘llash; harakat xavfsizligi talablarini bajarish.

Shaharlar aholisi uchun transport xizmatlari sifatini baholashning eng muhim mezonlaridan biri bu jo‘nab ketish joyidan kelish joyigacha bo‘lgan masofa uchun sarflangan umumiy vaqtdir [13]. Bundan tashqari, transport vositasining yo‘nalishdan chiqish koeffitsiyenti, quvvatdan foydalanish koeffitsiyenti, vaqtdan foydalanish koeffitsiyenti, aloqa tezligi, intensivligi va tezligidan foydalangan holda aholiga transport xizmatlari sifatini baholash mumkin.

Shu bilan birga yo‘nalishlarni tahlil qilish davomida yo‘nalishdagi yo‘lovchi oqimidan kelib chiqqan holda, yo‘nalishga kerak bo‘ladigan avtotransport sonini, sutka soatlari bo‘yicha yo‘lovchilar oqimini aniqlanadi. Yo‘lovchi tashish hajmidan kelib chiqib avtobus sig‘imi grafik-analitik usulga muvofiq tanlanadi.

Namangan shahrida 22 ta to‘xtash bekatlari bo‘lgan uzunligi 12,8 km ni tashkil etgan 13-sonli “1-kichik tuman-Chorsu” shahar avtobus yo‘nalishini o‘rganildi. Mazkur yo‘nalishda oraliq to‘xtash bekatlari bo‘yicha va sutka soatlari bo‘yicha yo‘lovchilar oqimini taqsimlanish diagrammasi tuzildi. Yo‘lovchi oqimining taqsimlash diagrammasi avtobuslarning yo‘nalishdagi yukini va yo‘nalish uzunligi bilan tavsiflanadi. Aksariyat avtobus yo‘nalishlarida yo‘lovchilar oqimi eng ko‘p yo‘nalishlarning o‘rta qismida bo‘ladi va oxirgi bekatlardan uzoqlashgan sari yo‘lovchi oqimi kamayadi [2].

O‘rganilayotgan yo‘nalishda esa quyidagi bekatlarda 1-chorsu, 5-kollej, 13-akademik litsey, 14-Do‘stlik buyum bozori, 15-avtovokzal, 19-Sardoba buyum bozori va 22-Chorsu bekatlarida yo‘lovchi oqimining ko‘pligini, bu aholining diqqatga sazovor joylari (kasalxonalar, yirik savdo markazlari, ta’lim muassasalari va bozorlari) joylashuvi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. O‘rganilayotgan yo‘nalishning harakatlanish davomiyligi to‘g‘risida ma’lumotlar yig‘ildi va qayta ishlandi.

Xulosa. Marshrutning yakuniy va oraliq punktlarining nomlari vertikal ravishda yoziladi, avtobusning nazorat punktlaridan o‘tgan vaqti (soat, daqiqa) har bir reys uchun gorizontal ravishda ko‘rsatiladi. Yakuniy nuqtalarga qo‘shimcha ravishda, oraliq to‘xtash joylarida 2-3 nazorat punktini belgilanishi kerak. Marshrut uzunligini, marshrut masofalarini, to‘xtashlar sonini, texnik tezlikni va oraliq va oxirgi bekatlarda to‘xtab qolish vaqtini bilgan holda, har bir reys uchun yurish vaqtini va nazorat punktiga kelishni oson aniqlash imkoni yaratiladi.

ADABIYOTLAR

1. Хакимов Р. и др. Переход на электротранспорт и пути развития.“ //Energetika sohasini rivojlantirishda muqobil energiya manbalarining roli” mavzusida vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya ishtirokchilarining ilmiy ma‟ ruza materiallari kiritilgan. NamMQI. – 2022. – T. 2. – C. 351-354.

2. Tukhtabayev M. A., Nuriddinov A. D., Tumanbayeva B. I. Transport and pedestrian

traffic at intersection of j. manguberdi and go „zal narrow streets/Scientific and technical journal of NamIET/NamMTI ilmiy-texnika jurnali //Наманган: НамМТИ. – 2021. – Т. 6. – №. 3. – С. 221-228.

3. Аббасов, А. Усовершенствование дорожной инфраструктуры в городе Намангана = Improvement of road infrastructure in the city of Namangan // Развитие логистики и управления цепями поставок: материалы III Международной научно-практической студенческой конференции в Белорусском национальном техническом университете. – Минск : БНТУ, 2023. – С. 332-337.

4. To‘xtaboyev, M. A., Tumanbayeva B. "Chorrahadagi transport va piyoda harakatlanishini o ‘rganish. Транспорт и логистика: Цифровые технологии в развитии транспортно-транзитного потенциала республики: Сборник материалов Республиканской научно-технической конференции." (2021): 1069-1073.

5. Akhmadjanovich M. T. X. et al. Namangan shahrining navoi va qo ‘qon chorrahasidagi tirbandlik //Механика и технология. – 2022. – Т. 2. – №. 7. – С. 87-92.

6. To‘xtaboyev, M., X. Xakimov R. Ataxanov. "Chorrahalardagi tirbandlikni oldini olish. Транспорт и логистика: Цифровые технологии в развитии транспортно-транзитного потенциала республики: Сборник материалов Республиканской научно-технической конференции." (2021): 1065-1069.

7. Nozimov A. N. et al. Yo ‘lovchi tashishda geoinformatsion tizimlarni qo ‘llash //Строительство и образование. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 82-86.

8. Хакимов Р. К., Тухтабаев М. А. Факторы, влияющие на пассажиропоток городского пассажирского транспорта //Экономика и социум. – 2023. – №. 4-1 (107). – С. 1148-1153.

